

NOSIROVA RA'NO XAMIDOVNA

MAKTABGACHA TA'LIMI
RIVOJLANTIRISHNING

KONSEPTUAL ASOSLARI FANIDAN
O'QUV QOLLANMA



373.
N-17.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA TA'LIM
VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

NOSIROVA RA'NO XAMIDOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING
KONSEPTUAL ASOSLARI FANIDAN**

O'QUV QOLLANMA

**Ta'lim yo'nalishi: 70110201- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim)**

Chirchiq – 2023

UO'K 373;37.0
KBK 74.200
N-17

Nosirova R.X. / Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslari / O'quv-qo'llanma – Chirchiq.: «City of book», 2023. – 172 bet.

O'quv qo'llanma davlat ta'lim standartlari hamda amaldagi fan dasturlariga ko'ra ishlab chiqilgan. Ushbu qo'llanma 70110201- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) magistratura yo'nalishidagi talabalar hamda soxada faoliyat olib borayotgan pedagoglari uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanma muallifning maktabgacha ta'lim sohasidagi ko'p yillik tajribalariga asoslanib, muayyan yo'nalishda olib borilgan izlanishlari asnosida yaratilgan. U o'z ichiga maktabgacha ta'lim-tarbiya huquqlari, shuningdek, bola huquqlarining kafolati va uning asoslari mazmuni, qoidalari, hamda, tushunchalari ochib berilgan. Ushbu o'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, talabalar, magistrlar, aspirantlar hamda kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari auditoriyasiga mo'ljallangan bo'lib, maktabgacha ta'lim-tarbiyaning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganishga qaratilgan.

Ta'lim yo'nalishi: 70110201- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

Tuzuvchi muallif:

R.X.Nosirova– ChDPU maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi
p.p.f.d (PhD)

Taqrizchilar:

Z.S.Teshaboyeva – ChDPU maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi
p.p.f.d (PhD)

D.T.Pulatova – Fan va texnologiyalar universiteti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası mudiri
p.p.f.d (PhD), dotsent.

O'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 noyabrdagi 491-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-780-16-5

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURSLAR MARKAZI

© Nosirova R.X., 2023

©«City of book», 2023

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI VA UNING KONSEPTUAL ASOSLARI	5 -20
§ 1. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimining isloh qilinishi	5-7
§ 2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunining mazmun- mohiyati	7-20
III BOB BO'YICHA XULOSA	
II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING KONSEPTUAL ASOSLARI	21-73
§3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi	21-31
§ 4. O'zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi Nizomi	31-36
§ 5. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining lavozim yo'riqnomasi va yuritilish tartibi	37-73
III BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHGA OID ME'YORIY-HUQUQIY XUJJATLAR VA DASTURLAR BILAN ISHLASH	74-117
§ 6. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini amaliyotga joriy etish texnologiyalari	74-78
§ 7. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.	80-99
§ 8. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining maqsad vazifalari va asosiy tamoyillari .	100-112
IV BOB. BOLALARNI HUQUQIY TARBIYALASHDA QONUN HUJJATLARIDAN FOYDALANISH	118-162
§ 9. Oilaviy nodavlat maktabgacha maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining asoslari	118-125
§10. Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashning mazmuni va mohiyati	126-131
§ 11. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Kuzatuv kengashining o'rni va yuritilishi	133-135
§ 12. YUNESKO" tashkilotining Bolalar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi	136-163
MAKTABGACHA TA'LIMDA ME'YORIY ASOSLAR FANI BO'YICHA IZOHLI LUG'AT	164-167
ADABIYOTLAR	168-169

KIRISH

Har bir sohaning jadal rivojlanishi, uning huquqiy bazasining nechog'lik mustahkam va mukammalligi bilan bevosita bog'liq. Shu sababdan ham davlatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazasining konseptual asoslarini yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. O'z navbatida, maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan har bir soha xodimi samarali ish faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun davlatimizda sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan maktabgacha ta'limning konseptual asoslari, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yaxshi bilishi lozim.

Shu sababdan ham so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada kengaytirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori, 2018 yil 30 iyulda "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida" 595-sonli qarori, 2018 yil 22 noyabrida "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 944-son qarori, 2018 yil 8 dekabrda "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqicho'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 999-son qarori, 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qarorlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi.

«Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslari» fani maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi va takomillashtirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar asosida samarali ish faoliyatini tashkil etish ko'zda tutilgan. Mazkur o'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim yo'nalishi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilot rahbarlari, pedagoglar, uslubchilar, oliy ta'lim tashkilotlarining maktabgacha ta'lim magistratura yo'nalishi talabalari uchun ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

I BOB

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

§ 1. O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'limi tizimining isloh qilinishi

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: Konstitutsiya, qonun, inson huquqi, farmon, farmoyish, buyruq, me'yoriy-huquqiy hujjat, konstitutsiyaviy huquq.

Bugungi kunda uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimida jadal o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohani jadal rivojlanishi sohada yaratilgan huquqiy bazaning mukammalligi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yilning 25 yanvar kuni Oliy Majlisga bildirgan murojaatnomasida: "Maktabgacha ta'limni rivojlantirish borasida boshlagan islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 5 ming 722 ta davlat, xususiy, oilaviy bolalar bog'chalari tashkil etildi. SHuning hisobidan farzandlarimizni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi bir yil davomida 38 foizdan 52 foizga ko'tarildi"-deya e'tirof etdi¹.

Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi printsiplari asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq tsikliga investitsiya kiritish, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz shart.

Davlatimizda maktabgacha ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha qisqa davr ichida huquqiy baza yaratilib, sohaning rivojlanishiga shart-sharoitlar hamda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi.

Me'yoriy-huquqiy hujjat deb me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi Qonunga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga aytiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar hisoblanadi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning turlariga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-Toshkent, 2020 yil, 25 yanvar

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
6. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlaridir va ular O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi.

Turli me'yoriy - huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha o'zaro nisbati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilgan organlarning vakolatiga va maqomiga, ushbu hujjatlarning turlariga, shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan sanaga muvofiq belgilanadi.

Me'yoriy - huquqiy hujjat o'ziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy -huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi shart.

Me'yoriy - huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda, yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy - huquqiy hujjat qo'llaniladi.

Teng yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy - huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda, keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalariga amal qiladi.

Agar me'yoriy - huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlikning, davlat qo'mitasining yoki idoraning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun maxsus vakolati bo'lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil darajadagi boshqa vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tomonidan qabul qilingan me'yoriy - huquqiy hujjatga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- ta'lim berishning muqobil shakllari;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ta'lim tashkilotlari;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining maqomi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat va nodavlat tashkiloti bo'lishi mumkin.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ham tashkil etilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga hamda faoliyat yuritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagi turlar bo'yicha tashkil etiladi:

- umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy rivojlantirish yo'nalishidagi guruhlarida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning alohida ta'lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog'lom muhitga uyg'unlashtirish orqali ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi.

Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv guruhlarda birgalikda o'qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turlarda ham tashkil etilishi mumkin.

§ 2. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019 yil 16 dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun" tasdiqlangan. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma'qullangan.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun 11 -bob, 58 -moddadan iborat.

1-bob. Umumiy qoidalar (1-6 moddalar)

2-bob. Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasini tartibga solish (7-14 moddalar)

3-bob. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari (15-17 moddalar)

4-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish

5-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish (18-27 moddalar)

6-bob. Maktabgacha bo'lgan yosh davrlari. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish va ulardan chiqarish (28-31 moddalar)

7-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ularning huquq va majburiyatlari (32-35 moddalar)

8-bob. Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni ijtimoiy himoya qilish (36-44 moddalar)

9-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi (48-51 moddalar)

10-bob. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta'minoti. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash vazifalari (52-53 moddalar)

11-bob. Yakunlovchi qoidalar (54-58 moddalar)

Qonunning maqsadi maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat².

Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

— maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar — nogironligi bo'lganidan yoki bo'lmashligidan qat'i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot;

inklyuziv ta'lim va tarbiya — bolalarning alohida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayon;

maktabgacha bo'lgan yosh — bolalarning tug'ilgan paytidan yetti yoshgacha, to'ularga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish boshlangan paytga qadar bo'lgan yoshi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya — bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standart — ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui;

maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi — bola tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy bilimlarning, mahorat va ko'nikmalarning hajmini hamda mazmunini belgilovchi, shuningdek ta'lim va tarbiya mazmunining o'ziga xosligini, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi hujjat;

maktabgacha ta'lim tashkiloti — maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida

maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

pedagogning kasbiy standarti — maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko'nikmalariga doir asosiy talablar majmui;

ta'lim va tarbiyaning muqobil shaklini tashkil etish modeli.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy printsiplari

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat: har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;

har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi;

bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv;

maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi;

ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;

ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiqligi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

har bir bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash;

bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko'rsatish;

bolalarning, shu jumladan alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish;

maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

² 2019 yil 16 dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun"

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari

Har bir bola maktabgacha ta'lim va tarbiya olish huquqiga ega.

Davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga o'qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlaydi.

Bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini tashkil etish orqali ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasini tartibga solish

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlar

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlar quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (bundan buyon matnda Davlat inspeksiyasi deb yuritiladi);

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

o'z tasarrufida maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lgan boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;

mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilmagan organlar hamda tashkilotlar qonun hujjatlariga muvofiq maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o'z faoliyatini ustav asosida amalga oshiradi.

Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;

mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Boshqa davlat organlari va tashkilotlar ham qonun hujjatlariga muvofiq davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o'z faoliyatini ustav hamda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi litsenziya asosida amalga oshiradi.

Yuridik va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

Jismoniy shaxslar tomonidan maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim xizmatlari ko'rsatish

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shaklida ta'lim xizmatlari ko'rsatadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan paytdan e'tiboran maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga haqli.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'pi bilan yigirma besh nafar maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning ta'lim va tarbiya olishiga yo'l qo'yiladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi litsenziya yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tganidan keyin beriladi.

Litsenziya berish, litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda Davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi Davlat inspeksiyasi tomonidan attestatsiya asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi besh yilda bir marta amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etishning majburiyligi

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari:

shaharlar, shaharchalar va boshqa aholi punktlari tashkil etilganda;

turar joy majmualari qurilganda;

tegishli hududda maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning qonun hujjatlarida belgilangan cheklangan soni oshganda majburiy tartibda tashkil etiladi.

Bir nechta ko'p kvartirali uydan yoki yakka tartibdagi uylar guruhlaridan iborat bo'lgan yangi turar joy majmualarini loyihalashtirish va qurishda ko'p kvartirali uylarning birinchi qavatlarida yoxud alohida bino tarzida har bir ikki yuzta kvartira yoki yakka tartibdagi uylar uchun kamida ellikta o'rindan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotining mavjud bo'lishi shartligi nazarda tutiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining huquq va majburiyatlari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti:

maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi asosida o'z ta'lim dasturini ishlab chiqishga;

bolaning qonuniy vakillari bilan tuzilgan shartnoma asosida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturida nazarda tutilganidan tashqari qo'shimcha pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatishga;

bolaning qonuniy vakillari bilan ta'lim va tarbiya borasida hamkorlikni amalga oshirishga haqli.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti:

davlat maktabgacha ta'lim va tarbiya standarti talablariga mos keladigan maktabgacha ta'lim darajasini ta'minlashi;

bolalarning rivojlanishi, ta'lim va tarbiya olishi uchun xavfsiz shart-sharoitlar yaratishi;

bolaga ta'lim va tarbiya berish masalalari yuzasidan uning qonuniy vakillariga maslahat yordamini berishi;

bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga tahdidlar, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi faktlari to'g'risida vakolatli organlarni xabardor qilishi shart.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish uchun olinadigan to'lovlar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish ularning muassislari mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning qonuniy vakillari bilan tuzilgan shartnoma asosida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturida nazarda tutilganidan tashqari qo'shimcha pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatishga haqli.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun majburiydir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti kamida besh yilda bir marta qayta ko'rib chiqiladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berish sohasidagi o'quv-uslubiy qo'llanmalarni, uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirishda, qurishda, jihozlashda va ularning faoliyatini tashkil etishda hisobga olinishi shart.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi bolani to'laqonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi:

bolaning bilim jihatidan va intellektual rivojlanishini;

bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlikni;

bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf-odatlarini va an'analari bilan tanishtirishni;

bolaning ijtimoiy moslashuvini;

alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan pedagogik-tuzatish (korrektsiyalash) va tibbiy-psixologik ishlar amalga oshirilishini;

bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashni ta'minlashi kerak.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarini tuzatishga (korrektsiyalashga) hamda rehabilitatsiya qilishga muhtoj bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan yakka tartibdagi rejalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Ta'lim berish tili

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish tili «Davlat tili to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish rejimi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo'lgan davrni, yozgi sog'lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar ularda bolalarning bo'lishi davomiyligiga qarab:

bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlar (kuniga 3-4 soat);

to'liq kunli guruhlar (kuniga 9, 10,5 va 12 soat);

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlar bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining:

bolalar 3-4 soat bo'ladigan guruhlarida — kunduzgi uyqu tashkil etilmaydi va bir martalik ovqatlantirish tashkil etilishi mumkin;

bolalar 9 — 10,5 soat bo'ladigan guruhlarida — uch martalik ovqatlantirish tashkil etilishi va kunduzgi uyqu uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak;

bolalar 12 soat bo'ladigan guruhlarida — to'rt martalik ovqatlantirish tashkil etilishi va kunduzgi uyqu uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlarida kunduzgi va tungi uyqu hamda besh martalik ovqatlantirish tashkil etilishi uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak.

Uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalar uzluksiz uxlamaydigan muddatning tavsiya etiladigan maksimal davomiyligi 5,5 — 6 soatni tashkil etadi.

Uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalar uchun sutkalik uyquning tavsiya etiladigan umumiy davomiyligi muddati 12 — 12,5 soatni tashkil etadi, shundan 2 — 2,5 soatni kunduzgi uyqu uchun ajratish tavsiya qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejimi va bolalarning unda bo'lishi davomiyligi uning ustavida belgilanadi.

Maktabgacha bo'lgan yosh va uning davrlari

Maktabgacha bo'lgan yosh bola shaxsining jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanishining asosiy davridir.

Maktabgacha bo'lgan yosh quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

go'daklik (tug'ilganidan bir yoshgacha);

ilk bolalik (bir yoshdan uch yoshgacha);

maktabgacha bo'lgan kichik yosh (uch yoshdan to'rt yoshgacha);

maktabgacha bo'lgan o'rtacha yosh (to'rt yoshdan besh yoshgacha);

maktabgacha bo'lgan katta yosh (besh yoshdan yetti yoshgacha).

Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish va ulardan chiqarish

Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va qo'shma turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan guruhlariga bolalarni qabul qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar Maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi huzuridagi tibbiy-ruhiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida, bolaning qonuniy vakillari roziligi bilan amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qabul qilish va ulardan chiqarish nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ustaviga muvofiq amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish

Guruh maktabgacha ta'lim tashkilotining tarkibiy birligidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlar yoshga doir toifalar yoki yoshga doir bo'lmagan toifalar bo'yicha to'ldirilishi mumkin.

Guruhlar yoshga doir toifalar bo'yicha to'ldirilganda quyidagi yosh toifalari belgilanadi:

ilk rivojlanish guruhi (bir yoshdan uch yoshgacha);

kichik guruh (uch yoshdan to'rt yoshgacha);

o'rta guruh (to'rt yoshdan besh yoshgacha);

katta guruh (besh yoshdan olti yoshgacha);

maktabga tayyorlov guruhi (olti yoshdan yetti yoshgacha).

Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish va bolalarni bir guruhdan boshqasiga o'tkazish har yili o'quv yili boshlanguniga qadar amalga oshiriladi.

Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar tegishli ravishda quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalar guruhlarida — ko'pi bilan o'ttiz nafar bola;

bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlarida — ko'pi bilan o'ttiz nafar bola;

turli yoshdagilar guruhlarida — ko'pi bilan yigirma besh nafar bola;

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlarida — ko'pi bilan o'n nafar bola.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun guruhlar tegishincha quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

kar bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n nafar bola;

yaxshi eshitmaydigan bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

ko'zi ojiz bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n nafar bola;

ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n sakkiz nafar bola;

gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bo'lgan bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

bolalar tserebral falaji sindromi asoratlari bo'lgan bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n nafar bola;

engil darajada aqli zaif bo'lgan aqliy nuqsonlari bor bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola, o'rtamiyona va o'rtacha darajada aqli zaif bo'lgan aqliy nuqsonlari bor bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n nafar bola;

autizmga chalingan uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n nafar bola;

aqliy rivojlanishi kechikayotgan uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

murakkab nuqsonlari (ikki va undan ortiq nuqsoni) bo'lgan bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan o'n nafar bola.

Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotida guruhlar tegishincha quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

1) uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun guruhlarida — ko'pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan ikki yoshdan uch yoshgacha ko'pi bilan uch nafar bola;

2) uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarida:

ko'pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan (yaxshi ko'ra olmaydigan yoki yaxshi eshita olmaydigan yoki tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan) ko'pi bilan uch nafar bola;

ko'pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan (ko'rish ambliopiyasiga chalingan, ko'zi g'ilay yoki nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan yoki autizmga chalingan) ko'pi bilan ikki nafar bola;

ko'pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan ko'pi bilan uch nafar bola;

ko'pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan ruhiy rivojlanishida kechikayotgan ko'pi bilan uch nafar bola.

Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun guruhlar tegishincha quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

qulog'i kar bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola;

qulog'i yaxshi eshitmaydigan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

ko'zi ojiz bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola;

ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n sakkiz nafar bola;

gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bo'lgan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n ikki nafar bola;

bolalar tserebral falaji sindromi asoratlari bo'lgan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola;

autizmga chalingan uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola;

murakkab nuqsonlari (ikki va undan ortiq nuqsoni) bo'lgan bolalar uchun guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari quyidagilardan iborat:

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bola;

bolaning qonuniy vakillari;

pedagog xodimlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlari shartnoma bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari:

kasbiy sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish;

ijodiy tashabbus ko'rsatish, ta'lim va tarbiya uslubiyotlarini, o'quv qo'llanmalarini hamda ta'lim vositalarini erkin tanlash;

maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda ishtirok etish;

maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatlar uchun ma'naviy va moddiy rag'batlantirilish;

maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi ilmiy, innovatsion, xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lmagan ish turlariga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari:

bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi;

pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, bolalarni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, ularni vatanparvarlik, mehnatga, qonuniy vakillariga hurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashi;

maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini bajarishi;

o'z malakasini oshirishi;

o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirish shart.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki bolalarni qonun hujjatlariga zid bo'lgan harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining haftalik ish yuklamasi

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari uchun haftalik ish yuklamasining miqdorlari qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining haftalik ish yuklamasi ushbu ish turi bo'yicha ish vaqti normalangan davomiyligining bir yarim baravari miqdoridan oshmasligi kerak.

Qonun hujjatlarida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining ayrim toifalari uchun haftalik ish yuklamasining boshqacha davomiyligi belgilanishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash va dam olishi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash miqdori va tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining lavozim maoshlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimining lavozimi va malaka toifasiga muvofiq belgilangan bazaviy tarif stavkalari;

lavozim maoshlariga ustamalar va qo'shimcha haqlar.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xodimlari uchun quyidagi malaka toifalari belgilanadi:

o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega mutaxassis;

bakalavr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega mutaxassis;

REPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega ikkinchi toifali mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega birinchi toifali mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega oliy toifali mutaxassis.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, har yilgi uzaytirilgan haq to'lanadigan ta'til va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Pedagogning kasbiy standarti

Ish beruvchilar tomonidan pedagogning kasbiy standarti:

kadrlar siyosatini shakllantirish;

pedagog kadrlarni ishga qabul qilish;

mehnat shartnomalarini tuzish;

lavozim yo'riqnomasini ishlab chiqish;

mehnatga haq to'lash;

pedagoglar o'qishini tashkil etish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarini attestatsiyadan o'tkazish chog'ida qo'llaniladi.

Pedagogning kasbiy standarti hududlarning madaniy, demografik va boshqa xususiyatlari inobatga olingan holda talablar bilan to'ldirilishi mumkin.

Pedagogning kasbiy standarti pedagogning shaxsiy sifatlariga nisbatan uning bilimlari, mahorati va ko'nikmalaridan ajralmas bo'lgan talablar qo'yadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Pedagogning malaka toifasi pedagogning kasbiy standartiga muvofiq beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishni quyidagilar amalga oshiradi:

pedagogik kengashi;

kuzatuv kengashi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish tartibi uning ta'sis hujjatlarida belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi³.

I BOB BO'YICHA XULOSA

1. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi. Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy talimdan keying ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi haqida tushuncha beriladi.

2. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonunning maqsad va vazifalari, mazmuni, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini faoliyatini tashkil etish va boshqarish usullari bayon qilib berilgan.

3. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmon va qarorlarining mazmun va mohiyati, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazasini yaratishga alohida ahamiyat berilgan.

4. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish qaratilgan Prezident farmon va qarorlarining mazmun-mohiyati haqida tushuncha beriladi.

5. Maktabgacha ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlardan o'z faoliyati davomida samarali va unumli foydalana olishga orgatiladi.

Nazorat savollari:

1. Me'yoriy xuquqiy xujjat deb nimaga aytiladi?
2. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning turlarini sanab bering?
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun qachon tasdiqlangan?
4. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun nechta bob va necha moddadan iborat?
5. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun maqsad va vazifalarini nimalardan iborat?
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi haqida so'z yuriting?

TOPSHIRIQLAR.

1. "Ijodiy ish" metodi asosida "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlanish tizimi" mavzusida sxema, jadval yoki klasterlarni yarating.
2. **Keyslar banki.**

1-keys. "Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan dastlabki huquqiy asoslardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarorining mazmuni, maqsadini atroflicha yoritib bering.

³ 2019 yil 16 dekabrda O'zRQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun"

Topshiriq: Ushbu qarorning qabul qilinishiga nima sabab bo'ldi?

Muammo turi	Kelib sabablari	chiqish	Hal etish yo'llari

2-keys. Tushunchalar tahlili jadvalini to'ldiring:

Tushunchalar	Mazmuni
Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar	?
Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	?
Inklyuziv ta'lim va tarbiya	?
Maktabgacha bo'lgan yosh	?
Maktabgacha ta'lim va tarbiya	?
Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti	?
Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi	?

3-keys. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonunining mazmuni, maqsadini atroflicha yoritib bering.

Topshiriq: Ushbu qarorning qabul qilinishiga nima sabab bo'ldi?

Muammo turi	Kelib sabablari	chiqish	Hal etish yo'llari

4-keys. "O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonunini mazmuni SWOT – tahlili yordamida yoritib bering.

S	Kuchli tomoni	
W	O'jiz tomoni	
O	Imkoniyatlari	
T	Xavflar	

II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

§3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: Kontseptsiya, nizom, davlat-xususiy sheriklik, davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim, davlat sherigi, davlat-xususiy sheriklik loyihasi, filantropik faoliyat, kontsessiya (kontsession bitim), otaliq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori qabul qilindi. Kontseptsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Kontseptsiyada quyidagila belgilandi.

- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»;
- 2019 — 2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari;
- 2025 — 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tadiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida quyidagilarni amalga oshirish belgilandi:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar

Bugungi kunda O'zbekistonda 7 104 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritadi, ulardan 5 604 tasi (79 fond) - davlat, 63 taen – idoraviy va 1 437 tasi (21 foiz) - nodavlat muassasalardir.

2017-2018 yillarda 752 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari filiallari negizida yuridik shaxe maqomiga ega to'laqonli maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil qilingan.

3-7 yoshdagi bolalarning umumiy sonidan (2,5 mln) 932 310 nafari (37,7 foiz), shundan shaharlarda 500 236 nafari (20,2 foiz) va qishloq joylarda 432 074 nafari (17,4 foiz) maktabgacha ta'lim bilan, qamrab olingan. Respublika aholisining umumiy soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 32,7 mln kishini tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, aholining uzoq muddatli o'rtacha o'sish sur'atlari 1,7-1,8 foizni tashkil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida o'lim koeffitsientining boshqa barcha yosh guruhlari nisbatan pastligini inobatga olganda, 3-7 yoshdagi bolalar sonining 1 o'sish sur'atlari butun aholining o'sishiga qaraganda yuqoridir.

O'zbekistonda yashovchi 3-7 yoshdagi 2,5 milliondan ortiq bolalarning 67,8 foizi Samarkand (12,1 foiz), Farg'ona (10,8 foiz), Qashqadaryo (10,5 foiz),

Andijon (9,3 foiz), Surxondaryo (8,5 foiz), Namangan (8,4 foiz) va Toshkent (8,2 foiz) viloyatlarida istiqomat qiladi.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga kura, har yili O'zbekiston Respublikasida 700 mingdan ortiq bola tug'iladi, bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan yukni oshiradi. CHunonchi, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan umumiy ortiqcha yuk respublika bo'yicha 12 foizni tashkil qilsa, uning eng yuqori darajasi Qor.aqalpog'iston Respublikasida (21 foiz), Jizzax (35 foiz) va Buxoro (21 foiz) viloyatlarida, eng past darajasi esa Surxondaryo (9 foiz) va Farg'ona (9 foiz) viloyatlarida, shuningdek Toshkent shahrida (6 foiz) kuzatilmoqda⁴.

Umuman, mamlakat bo'yicha 3-7 yoshdagi har 100 nafar bolaga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 28,1 ta joy to'g'ri keladi. So'nggi 20 yil ichida maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 45 foizdan ziyodga qisqargan. Bunday qisqarish ko'proq Andijon, Farg'ona, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari kabi tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda kuzatildi. Bugungi kunda O'zbekistondagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 55 foizdan ortig'i Toshkent shahriga (14,8 foiz), Farg'ona (12,6 foiz), Toshkent (9,8 foiz) 3 Namangan (9 foiz) va Samarqand (8,9 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda? ular qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

maktabgacha yoshdagi bolalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun' maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining yetarli emasligi;

qishloq joylarda maktabgacha ta'limning past darajada rivojlanganligi; maktabgacha ta'lim tashkilotlarining modtsiy-texnik holati lozim darajada emasligi;- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi;

maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarining tanqisligi va ular malakasining pastligi;

ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobiy jihatlari va foydasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi;

zamonaviy o'quv-metodik materiallar va ko'rgazmali qurollarning etishmasligi;

alohida ehtiyojli bolalar uchul mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlarining texnik jihozlanishi va uslubiy ta'minoti darajasining pastligi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va tibbiyot xodimlarining mapakasi zamon talablariga to'liq javob bermasligi.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari

Ushbu Kontseptsianing maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini; ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish;

maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilgor pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;

maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sog'lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosati ishlab chiqilayotgan me'yoriy-huquqiy bazada o'z aksini topadi.

Maktabgacha ta'lim sohasi ko'plab qonun hujjatlari bilan tartibga solinishiga qaramay, maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning huquqiyasoslarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiasini tashdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son

Shu munosabat bilan, Kontsepsiyani amalga oshirish doirasida maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani, takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1) ilgor xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga qo'yiladigan amaldagi davlat talablarini qayta ko'rib chiqish hamda quyidagilarni nazarda tutuvchi Maktabgacha, ta'limning davlat standartini ishlab chiqish:

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarga qo'yiladigan talablarni bolalarni parvarishlash, ularga qarash, sog'lig'ini saqlash va yaxshilash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibini;

2) maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarni moddiy resurslar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori va sigalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash normativlarini tasdiqlash;

3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

4) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namunaviy ustavlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

5) kasalliklarning profilaktikasi va diagnostikasi tartibini takomillashtirish, shuningdek, idoralararo o'zaro hamkorlik mexanizmlari orqali bolalarni psixologik-tibbiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;

6) maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan xalqaro me'yorlar va standartlarni implementatsiya qilish;

7) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi:

1) maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks

baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

2) maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o'tkazish;

3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari uchun yangi o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

4) "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini keng joriy etish;

5) tarbiyalanuvchilarning yakka tartibdagi ish daftarlari, kartochkalar, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o'rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalar ta'limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta'lim, eng yangi reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta'lim umumiy tizimi integratsiyalashuviga ko'maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;

7) maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va Modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish;

8) mashg'ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o'quv rejaları va ta'lim dasturlarini optimallashtirish;

9) bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash;

10) maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish;

11) bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish;

12) maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnamaydigan bolalar uchun ta'lim xizmatlari turlari: pullik ta'lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish.

Bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta'minlash, sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish

Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish bo'yicha vazifalarni hal etish birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tashkilotlari quvvatlarini oshirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning hozirgi

hajmi, tug'ilishning o'sishi dinamikasi saqlanib qolayotgan bir paytda, maktabgacha yoshdagi bolalarning qamrovini mavjud darajada saqlab turishni ta'minlab beradi, ammo uning o'sishiga yordam bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'larining cheklanganligini e'tiborga olib, nodavlat sektor maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni o'sishining harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lishi, davlat-xususiy sherikchiligi esa xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini maktabgacha ta'lim tizimiga jalb etishning asosiy mexanizmiga aylanishi lozim.

Maktabgacha ta'limning hammabopligini, shu jumladan respublikaning olis tumanlarida hamda maktabgacha ta'limning standart shakllarini kengaytirish qiyin bo'lgan joylarda ta'minlash yangi muqobil shakllarni joriy etish hisobiga ham amalga oshirilishi lozim.

Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

1) O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish davlat dasturlari doirasida va boshqa manbalardan ajratiladigan mablag'lar hisobidan yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

2) maktabgacha ta'lim sohasida qulay investitsiya muhitini yaratish, xususiy sektorni maktabgacha ta'lim tashkilotlarining quvvatlarini oshirishga yanada, rag'batlantirish va manfaatdorligini oshirish;

3) maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchiligi, jumladan uning quyidagi shakllarini yanada rivojlantirish: mavjud davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish va jihozlash sharti bilan xususiy sherikka nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish uchun yer uchastkalarini yoki mavjud davlat ta'lim tashkilotlari binolarini bepul asosida berish;

ko'p kvartirali turar joy binolari quruvchilari uchun davlat buyurtmasini joylashtirish;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini xususiy sherikka ishonchli boshqaruvga berish;

kontsessiya asosida qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun yer uchastkasi yoki bino ajratish; homiylik va boshqapar;

4) fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarini nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda uslubiy qo'llab-quvvatlash;

5) bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlari va sobiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ishlayotgan binolari negizida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish maqsadida ularni xatlovdan o'tkazish;

6) hamma joyda bolalarni umumiy boshlang'ich ta'limga bepul majburiy bir yillik tayyorlashning yagona tizimini joriy etish;

7) maktabgacha ta'limning moslashuvchan ish jadvali hamda rivojlantiruvchi, tuzatuvchi xizmatlar va tadbirlarning keng ko'lamini o'z ichiga olgan quyidagi muqobil shakllarini joriy etish va rivojlantirish;

har xil yoshdagi bolalar uchun qisqa muddatli maktabgacha ta'lim guruhleri - "Pley-guruhlar"; maktabgacha yoshdagi bolalarga uyiga borib maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish dasturi - "Home visits"; maktabgacha ta'lim tashkilotlari korporativ guruhleri va boshqalar;

8) yengil qurilish konstruksiyalari va zamonaviy energiya samarador materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda, shinamlik va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq quriladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi binolar loyihalarini ishlab chiqish (shu jumladan rivojlanishida jismoniy va ruhiy buzilishlari, bo'lgan bolalar uchun to'siqsiz muhit elementlarini hisobga olgan holda);

9) maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va samarali tashkil qilish zaruratini hisobga olgan holda, qurilayotgan turarjoy komplekslari va boshqa ob'ektlarni kerakli ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlash;

10) respublikaning barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ichimlik suvi, isitish tarmog'i, elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan, shu jumladan zamonaviy energiya: tejoychi texnologiyalarni joriy etish, yo'li bilan bosqichma-bosqich ta'minlash;

11) ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning variativligi hisobiga rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish;

12) maktabgacha ta'limning bola shaxsini shakllantirishdagi roli va muhimligi haqida tushuntirish tadbirlarini olib borish, ushbu faoliyatga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik va ota-onalarni faol jalb qilish.

Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish Maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir.

Maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish

Sifatli maktabgacha ta'limni berish asoslaridan biri boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmi hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida ushbu yo'nalishda keng ko'lamli ishlar bajarildi. CHunonchi, "Maktabgacha ta'lim" bakalavriat ta'limi yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilish kvotalari oshirildi, mazkur yo'nalishda o'qish muddati uch yilgacha qisqartirildi.

Respublika maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv-metodik markazi negizida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etildi va unga, maktabgacha ta'lim tizimixodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi yuklatildi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimini tahlil qilish quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarurligidan dalolat beradi:

1) xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko'p darajali uzluksiz ta'lim tizimini yaratish;

2) ta'lim va amaliyotni integratsiyalantirgan holda xalqaro. ta'lim standartlari, o'quvmetodik reja va dasturlar, interaktiv va muammoli- vaziyatli o'qitish usullari va treninglari, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

3) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlariga qo'yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash;

4) ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish yo'li bilan maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim, sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkiya qilish uchun, shu jumladan mamlakat hududlarida, ta'lim tashkilotlari sonini oshirish;

5) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining xorijdagi yetakchi univereitetlarda, ilmiy markazlarda va boshqa ta'lim tashkilotlarida stajirovka o'tashini tashkil qilish;

6) Vazirlikning pedagogika kollejlari faoliyatini Tashkil qilish, ularni malakali professor-o'qituvchilar tarkibi bilan ta'minlash choralari qurish;

7) xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari bilan uzoq muddatli munosabatlarni yanada rivojlantirish, maktabgacha ta'lim sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasida ularning filiallarini ochish;

8) tajriba almashish, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsadida pedagog kadrlarni tayyorlash, qaytatayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning tashkilotlari bilan samarali idoralararo hamkorlikni chuqurlashtirish;

9) o'zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kaebiy bilimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitini ta'minlaydigan kadrlarni shaffof taylov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish;

10) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini moddiy rag'batlantirish va yjtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

11) maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlariga zaruriy kasbiy kompetentsiyalar ro'yxatini o'z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish;

12) strategik boshqaruv., moliyaviy va menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sog'lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning sog'lom ovqatlanishini, ular sog'lig'ini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish xizmatlari bilan ta'minlash, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Sog'lom, xavfsiz va sifatli ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha vazifalarni hal qilish uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bunday xizmatlarni ko'rsatish qisman autsorsing shartlari asosida tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimidagi tibbiyot xodimlarining malakasini tizimli oshirish bo'yicha chora-tadbirlar faol qo'llanilmoqda.

Shu bilan birga, sog'lom avlodni tarbiyalash vazifalarini samarali hal qilish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilmokda:

1) maktabgacha ta'lim tashkilotlarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va yetkazib beruvchilarning narx siyosatiga amal qilishini nazorat qilishning shaffof marqazlashtirilgan tizimini yaratish;

2) tayyor taomlarni tayyorlash va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga etkazib berish uchun ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini, jumladan autsorsing asosida jalb qilish;

3) maktabgacha ta'lim tizimida sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami xizmatlari bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish;

4) bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'minoti uchun munosib, jumladan, to'laqonli, to'g'ri, balanslashtirilgan, sog'lom ovqatlanish, asoslangan tibbiy; ko'rsatmalarda belgilangan hajm va tezlikdagi, ko'ngilochar mashg'ulotlar va bilim olish elementlari mavjud faol o'yinlar va mashqlardan iborat sharoitlarni yaratish;

5) rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo'lgan bolalarga kompleks yordam berish tizimini takomillashtirish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo'lgan bolalarda asosiy kompetentsiyalarni zaruriy, sifat darajasida shakllantirishga erishish, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlash.

Kontseptsyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

Kontseptsyani amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda: barcha bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim olish uchun bir xil imkoniyatlarni ta'minlovchi maktabgacha ta'limning samarali innovatsion tizimining shakllanishi;

maktabgacha ta'limni insonning butun hayoti davomidagi uzluksiz ta'limning birinchi bosqichi sifatida belgilash, bolani shaxe sifatida jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda uning roli oshirilishi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namuna va turlari xilma-xilligi asosida maktabgacha ta'lim tizimida institutsional o'zgarishlar amalga oshirilishi, mazkur sohada sog'lom raqobatmuhitining yaratilishi;

zamonaviy energiya va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashning qengaytirilishi, ularning o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yinlar va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar, mebel, kompyuter texnikasi, o'quv uskunalar bilan jihozlanishi;

maktabgacha ta'lim sohasiga xususiy sektorning jalb qilinishi, uning ijtimoiy javobgarligi oshirilishi, moliyalashtirish manbalarining kengaytirilishi va maktabgacha ta'lim xizmatlari turlarining ko'payishi;

maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning ko'paytirilishi, maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligining oshirilishi, pedagog xodimlar mehnatiga munosib haq to'lashning ta'minlanishi;

maktabgacha ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-davlat tizimi joriy etilishi;

olti yoshli bolalarning majburiy bir yillik bepul umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorlash bilan to'liq qamrab olinishining ta'minlanishi;

3-7 yoshgacha bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishining ta'minlanishi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog xodimlar soni 247,7 mingtagacha yetkazilishi.

Kontseptsianing amalga oshirilishini monitoring qilish

1. Kontseptsianing amalga oshirilishini tizimli monitoring qilish, umumiy muvofiqlashtirish, respublikada maktabgacha ta'limning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammoli masalalarni tezkor ko'rib chiqish va hal qilish Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

2. Kontseptsianing amalga oshirish monitoringi ilovaga muvofiq

Kontseptsiyada ko'zda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli va to'laqonli bajarish bo'yicha vakolatli

§ 4. O'zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi Nizomi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qarorida:

- "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi Nizom;

- "Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to'g'risida"gi Nizom;

- "Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi Nizom;

- "Bolalarni ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yo'llash bo'yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya to'g'risida"gi Nizomlari qabul qilindi.

Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlari deb ataladi) maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

maktabgacha ta'lim tashkiloti — umumiy tipdagi davlat yoki nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilot;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan litsenziya asosida, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

bolaning qonuniy vakillari — bolaning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga va o'z ustaviga muvofiq amalga oshiradi⁵.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiya asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va shtampga, mustaqil balansga, byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga ega, o'z majburiyatlari bo'yicha ixtiyoridagi mol-mulk bilan javob beradi, o'z nomi yozilgan muhr va shtampga ega bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadlari va vazifalari

Maqsadi: Bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirishni ta'minlash;

bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotini saqlash va mustahkamlash; umumta'lim tashkilotlarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta'lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash.

Vazifalari:

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qarori

bolalarga, shu jumladan, o'ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta'lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o'z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish;

bolalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagi huquqlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi asosida o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;

maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturida ko'rsatilgandan tashqari qo'shimcha pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ishlanmaydigan kunlarda yoki belgilangan ish soatlaridan tashqari bolaning qonuniy vakillari bilan kelishuv asosida bolalarni parvarishlash va ularga qarab turish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;

maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari:

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishi;

maktabgacha ta'limning tegishli sifatini ta'minlashi;

bolani tarbiyalash va o'qitish masalalari bo'yicha uning qonuniy vakillariga maslahatlar bilan yordam berishi;

bolalarni kamol toptirish, tarbiyalash va o'qitish uchun xavfsiz shart-sharoitlarni yaratishi;

maktabgacha ta'lim sifati ta'minlanishini nazorat qilishda vakolatli davlat organlariga ko'maklashishi shart.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish

Maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turishni, ularni parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'limning mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha

ta'lim davlat ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturida belgilab beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejalari va jadvali bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o'yin hisoblanadi.

Har bir yosh guruhidagi mashg'ulotlar, o'yinlarning har kungi soni, davom etadigan davri va izchilligi maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasida belgilab beriladi.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lish vaqtiga qarab u yerdagi guruhlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

bolalar qisqa muddat (kuniga 3-4 soat) bo'ladigan guruh;

qisqa kunli guruh (bir kunda 9 soatgacha);

to'liq kunli guruh (kuniga 10,5 va 12 soat);

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruh.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ishlash tartibi va bolalarning unda bo'lish vaqti uning ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga o'tkazilganda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi.

Shartnomada bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga boradigan rejim, necha marta ovqatlanish va boshqa shartlar ko'rsatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo'lgan davrni, yozgi sog'lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash «Davlat tili to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat tilida va boshqa tillarda olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish va undan chiqarish

Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotlariga doimiy yoki vaqtincha qatnashga qabul qilish ushbu tashkilotda bo'sh joylar bo'lsa, kalendar yil davomida quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

bola qonuniy vakilining arizasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vakolatli organ bergan yo'llanma (davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun);

bola sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

Bola davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq qabul qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish

Guruh maktabgacha ta'lim tashkilotining tarkibiy birligi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlar ham bir xil yoshdagi, ham turli yoshdagi bolalar bilan to'ldirilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini to'ldirish va bir guruhdan boshqasiga o'tkazish har yili o'quv yili boshlanishidan oldin amalga oshiriladi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan guruhlarda — kamida 20 nafar va ko'pi bilan 30 nafar bola;

bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlarda — ko'pi bilan 30 nafar bola;

turli yoshdagi guruhlarda — kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola;

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlarda — ko'pi bilan 10 nafar bola.

Agar davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan joyda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishni xohlovchi maktabgacha yoshdagi bolalar soni 20 nafar boladan kam bo'lsa va bu joyda boshqa davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda kam sonli bolalardan iborat guruhlarini tashkil etishga yo'l qo'yiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ovqatlanishni tashkil etish

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ovqatlanish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar ovqatlanishini tashkil etish uchun javobgarlik maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari zimmasiga yuklanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish

Maktabgacha ta'lim tashkiloti qonun hujjatlarida, ushbu Nizomda, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti ustavida nazarda tutilgan tartibda boshqariladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishuv bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining hududiy bo'linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan mudir rahbarlik qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ustaviga muvofiq lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari hisoblanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga mudir joriy rahbarlik qiladi hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi va muassisi oldida hisob beradi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga direktor joriy rahbarlik qiladi va muassis oldida hisob beradi.

Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruvi organlari hisoblanadi:

Pedagogika kengashi;

Kuzatuv kengashi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashi:

maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejasini va pedagog xodimlarining pedagogik yuklamasini belgilaydi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;

maktabgacha ta'lim tashkilotining bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama etadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari va pedagog xodimlar hisobotlarini eshitadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani tarbiyalash, shakllantirish va o'qitishda ko'maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari orasidan tuziladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi:

maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

maktabgacha ta'limning tuman (shahar) bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini saylaydi, shuningdek, uni egallab turgan lavozimidan ozod qilish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlarni, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarini vaqti-vaqti bilan eshitadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;

tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlariga maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining huquqlari va majburiyatlari qonun hujjatlarida, ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

MAKTABGACHA TA'LIM XODIMLARI ASOSIY LAVOZIMLARINING MALAKA TAVSIFLARI

Mazkur asosiy lavozimlarning malaka tavsiflari (bundan buyon matnda malaka tavsiflari deb yuritiladi) "O'z standart" agentligining 2021-yil 12-fevraldagi 5-1288-son qarori bilan tasdiqlangan "Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari Klassifikatori (XALIKK-2020)" muvofiq, maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu malaka tavsiflari maktabgacha ta'lim xodimlari lavozimlari va ishchilar kasblari nomlaridan foydalanishda, mehnat daftarchalariga yozuvlarni qayd etishda, lavozimlarni xodimlarning toifalariga kiritishda, shuningdek, xodimlarni ishga qabul qilishda ularning ma'lumoti darajasiga qo'yiladigan eng minimal talablar yuzasidan qo'llanilishi majburiydir.

2-bob. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining malaka tavsiflari.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari: Maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish;

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, qarori va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, Maktabgacha ta'lim vazirligi (keyingi o'rinlarda vazirlik deb yuritiladi) hamda uning hududiy boshqaruv organlari, bo'ysunuviga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahar va viloyatlar, tuman (shahar) hokimlari (keyingi o'rinlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari) deb yuritiladi) ning qarorlari va boshqa hujjatlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda tashkilot deb yuritiladi) ga berilgan tegishli topshiriqlari jirosini to'liq bajarilishini ta'minlash; - tashkilotning Nizom (Ustav) ga muvofiq faoliyatini tashkil etish; - tashkilot joylashgan hududda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, tashkilotning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv-metodik faoliyatini samarali tashkilotish;

Boshqaruv

- tashkilotni yuqori kompetentlik, mahoratli va malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash; - bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish;

- maktabgacha ta'lim sohasiga oid normativ-hujjatlarni amaliyotga to'laqonli tatbiq etish; - tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limining Kengashi, ishlab chiqarish yig'ilishlarida, mahalliy davlat hokimiyat organlari yig'ilishlarida ishtirok etish hamda ularga tashkilot faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha hujjatlarni tayyorlash va tizimni rivojlantirish yuzasidan takliflar kiritish;

- tashkilot faoliyatini rejalashtirish, yillik va istiqbol ish rejalari ishlab chiqish;

- tashkilotning ish rejalari, o'quv-mavzu rejalari, yillik taqvim o'quv dasturlarini tasdiqlash;

- tashkilot pedagog va mutaxassislarining ish rejalari ko'rib chiqish va tasdiqlash, ularni to'laqonli vasifatli ijro etilishi ustidan nazorat olib borish;

- tashkilotni rivojlantirish yuzasidan istiqbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha buyruqlar qabul qilish, ularni tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limining ish rejasiga bilan muvofiqlashtirish;

- vakolati doirasida xodimlarni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish va mehnat munosabatlari yuzasidan tegishli buyruqlarni chiqarish;

- hududda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish manfaatlari yo'lida mahalla fuqarolar yig'inlari, huquqni muhofaza qiluvchi va jamoat tashkilotlari hamda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan o'rnatilgan tartibda o'zaro hamkorliklarni yo'lga qo'yish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limga qamrovini oshirish, ayniqsa 6 yoshli bolalarni to'liq qamrab olish orqali boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash choralari ko'rish;

- ta'lim tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalarini joriy etish;

- tashkilotning tarbiyalanuvchilari, pedagoglari va ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'risidagi axborotlarni o'z vaqtida muntazam ravishda axborot tizimi (EMIS) ga kiritib borish;

- tashkilotga bolalarni qabul qilish, qabul qilingan bolalar yoshi va kontingentidan kelib chiqib, har yilning avgust oyida buyruq asosida yosh guruhlarni shakllantirish;

- tashkilotda dam olish kunlari va ish kuni yakunlangandan keyin bolani parvarishlash, unga qarab turish, uni o'qitish bo'yicha qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish ishlarini tashkil etish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalarini kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratish;

–tashkilot pedagogic kengashi va umumiy ishlab chiqarish yig'ilishlariga raislik qilish;

–tashkilot “Kuzatuv kengashi”ning dastlabki yig'ilishini tashkil etish;

–“Kuzatuv kengashi”ga tashkilot faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-ho'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet va byudjetdan tashqari hamda homiylik mablag'laridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot berib borish;

–tashkilotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag' hisobini qilish va yillik xarajatlar smetasini tuzilishida tuman (shahar) bo'limiga taklif kiritish;

–tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarning to'laqonli bajarilishida pedagog va xodimlarning mas'uliyati va javobgarligini oshirish;

–tashkilotda ochiq mashg'ulotlar, seminarlar, ko'rik-tanlov, musobaqalar o'tkazishga rahbarlik qilish;

–tashkilotda huquqbuzarlik, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, giyohvandlik va boshqa zararli odatlardan saqlanish, uning oldini olish choralari ko'rish bo'yicha ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

–tashkilot xodimlari o'rtasidagi vazifalar taqsimotini belgilash, zaruriyatga qarab tegishli o'zgartirishlar kiritish, ish taqsimoti asosida xodimlarning huquq va majburiyatlarini belgilash;

–tashkilot faoliyatiga tegishli barcha axborotlarni tahlil qilish, hisobotlar tayyorlash va ijro intizomini doimiy nazorat qilish;

–ish yuritish va hujjatlar aylanish tizimi asosida tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan berilgan hujjatlar va topshiriqlarning o'z vaqtida ijro etilishini, hujjatlar aylanishi, tahlil va nazorat qilishning yagona tizimini amalga oshirilishini ta'minlash;

– tashkilotda pedagog va mutaxassislarning o'z xizmat vazifalarining sifatli bajarishlarida tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatish, xodimlarga zarur ish sharoitlarini yaratish choralari ko'rish hamda mehnat intizomini ta'minlash;

–tashkilotda pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimlar attestatsiyasini hamda ular tomonidan mehnat intizomiga rioya qilinishini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

“Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida” 2019-yil 7-iyundagi 470-son va “Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 17-sentabrda 572-son qarorlari asosida nazorat qilish;

–tashkilot xodimlari orasidagi eng faollarini rag'batlantirish, lozim vazifalarini bajarmaganligi uchun ularga nisbatan o'z vakolatli doirasida intizomiy jazo choralari qo'llash masalalarini ko'rib chiqish, jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish;

– tashkilotdagi ilg'or tajribali pedagog kadrlar nomzodini Davlat va tarmoq mukofotlari bilan taqdirlashida tuman(shahar) maktabgacha ta'lim bo'limiga taklif kiritish;

–tashkilot faoliyatining moliyaviy-xo'jalik masalalarini hal qilish, budjet va budjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi, undan samarali foydalanishini amalga oshirish, tashkilotni rivojlantirish uchun byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag' topish va moddiy resurslar bilan ta'minlash choralari ko'rish, tashkilotning investitsion jozibadorligini ta'minlash, shuningdek, ta'limiy maqsadlarga erishish uchun moliyaviy, moddiy resurslarning samarali taqsimotini va xodimlarning safarbarligini ta'minlash hamda qabul qilingan qarorlarning oqibatlari, moliyaviy-xo'jalik natijalariga shaxsan javob berish;

–tashkilotning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan o'quv-didaktik, ko'rgazmali materiallar, sport jihozlari, o'yin, o'yinchoqlar va musiqa asboblari bilan jihozlashga bo'lgan ehtiyoj bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limiga takliflar kiritish;

–tashkilotda sog'lom va xavfsiz ratsional ovqatlantirish ishlarini tashkil etish hamda sanitariya qoidalariga mos ravishda ovqatlantirishni tashkil etish;

–O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat sanitariya vrachining “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar” son va № 0016-21-son qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 26 iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 30) asosida tashkilotda sog'lom va xavfsiz ratsional ovqatlantirish ishlarini tashkil etish hamda sanitariya qoidalariga mos ravishda ovqatlantirishni tashkil etish; tashkilot brakeraj komissiyasi faoliyatini nazorat qilish;

–tashkilot faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq murojaatlar bo'yicha fuqarolarni qabul qilish, tashkilotga kelib tushgan xat, ariza va shikoyatlar hamda murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish va ijrosini to'liq ta'minlash;

–tashkilotda sifatli tibbiy xizmatni tashkil etish va hududiy sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda ishlash;

–tashkilot xodimlari va tarbiyalanuvchilarining tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini nazorat qilish;

–maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, tashkilot faoliyatini rivojlantirish yuzasidan ota-onalar fikrini o'rganish;

–tashkilotda kasbiy odob-ahloq qoidalari, ichki mehnat tartibi qoidalari hamda jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni ta'minlash, sog'lom raqobatli muhitni yaratish;

–yagona milliy mehnat tizimi (my.mehnat.uz) saytida pedagog va mutaxassis xodimlarning ma'lumotlar bazasini yangilab borish;

–har oy yakuni bo'yicha bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni (mehnat.uz) saytiga joylab borish;

–pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash, malaka va kompetensiyalarga ega xodimlarni tanlash, kadrlar zaxirasini shakllantirish,

pedagog xodimlar attestatsiyasini tashkil qilish, mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilinishini ta'minlash;

–korxona va tashkilotlar bilan xo'jalik shartnomalari tuzishda tashkilot nomidan faoliyat yuritish, uning manfaatlarini himoya qilish, ishonchnomalar berish, Kuzatuv va pedagogik kengash hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda tashkilotni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalarini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish, tashkilotning vazifa va maqsadlarini shakllantirishlarini tashkil etish;

–tashkilotda sog'lom ma'naviy-ruhiy, xavfsiz va rag'batlantiruvchi muhitni yaratish, tashkilot Kuzatuv kengashi faoliyatida obyektiv, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash uchun sharoit yaratib borish.

3. Bilishi lozim:

–O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ta'limga oid qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining ta'limga oid qarorlari va farmoyishlari, Maktabgacha ta'lim vazirining buyruqlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari qarorlarini;

–O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" 2019 yil 16 dekabrda O'RQ 595-son va "Ta'lim to'g'risida"gi 2020 yil 23 sentabrda O'RQ-637-son qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ta'limga oid qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 22dekabrda 802-son qarori va ta'limga oid boshqa qarorlari va farmoyishlari, Maktabgacha ta'lim vazirining buyruqlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari qarorlarini;

–ta'lim-tarbiya reja va o'quv dasturlarining mazmunini;

–maktabgacha ta'lim tizimi rahbar va pedagog kadrlariga qo'yiladigan malaka talablarini;

–zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olishi hamda ularni joriy etish usullarini;

–maktabgacha ta'lim pedagogikasi, psixologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasini;

–bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda va variativ (muqobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tatbiq etish va uzluksiz takomillashtirib borish yo'llarini;

–attestatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini, attestatsiya o'tkazish tartibi va mezonlarini;

–attestatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini

attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentabrda 572-son qarorlari asosida attestatsiya o'tkazish tartibi va mezonlarini;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 2018-yil 28-martda 244-son va "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 5-martda 122-son qarorlari talablari asosida bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning belgilangan tartibini amalga oshirish;

–kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari.

4. Malaka talablari:

–kamida bakalavr darajasidagi maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi oliy pedagogik ma'lumot (nomutaxassis va nopedagog oliy ma'lumotli kadrlar maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi kasbiy qayta tayyorlash kursini tamomlagan bo'lishi lozim);

–xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi kerak;

–uch yildan kam bo'lmagan pedagogik ish staji;

–ta'lim sohasida ishlagan, zamonaviy bilim va ma'naviy-ahloqiy fazilatlariga ega mustaqil fikrlaydigan hamda menejerlik qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

–Ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan, hududiy maktabgacha ta'lim bo'limlarida ikki yildan ortiq faoliyat ko'rsatgan, Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar, Toshkent shahridagi Puchon hamda «A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti» Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi filiali bitiruvchilari, yoki nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 1000 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarini (bakalavriat, magistratura) tamomlagan yoki ularda ilmiy daraja (PhD va unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja) olgan yosh mutaxassislardan pedagogik ish staji talab etilmaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunining 44-moddasiga muvofiq Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirishga quyidagi cheklavlar belgilab berilgan. Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar, shuningdek qasddan jinoyatlar sodir etganligi uchun ilgari hukm qilingan shaxslar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Ilgari o'zining aybli harakatlari sababli mehnat shartnomasi tugatilgan shaxslar, shuningdek qo'llanilgan jazo chorasidan, sudlanganligi holati tugatilganligidan yoki olib tashlanganligidan hamda o'ziga nisbatan amnistiya yoki afv etish akti qo'llanilganligidan qat'i nazar, qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun ilgari hukm

qilingan shaxslar, jinoyat ishlari aybdorligi to'g'risidagi masala hal etilmagan holda tugatilgan jinoyatlar sodir etgan shaxslar maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi organlari va tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari metodistining lavozim malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

- maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyatga rahbarlik qilish;
- metodist o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, qarori va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, Maktabgacha ta'limi vazirligi hamda uning hududiy boshqaruv organlari, bo'ysunuviga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimlari (keyingi o'rinlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari" deb yuritiladi)ning qarorlari va boshqa hujjatlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda tashkilot deb yuritiladi)ga berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini to'liq bajarilishini ta'minlash;
- metodist o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" 2019 yil 16 dekabrda O'RQ-595-son va "Ta'lim to'g'risida"gi 2020 yil 23 sentabrda O'RQ-637-son qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, qarori va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, Maktabgacha ta'limi vazirligi hamda uning hududiy boshqaruv organlari, bo'ysunuviga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimlari (keyingi o'rinlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari" deb yuritiladi)ning qarorlari va boshqa hujjatlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda tashkilot deb yuritiladi)ga berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini to'liq bajarilishini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim sohasiga oid normativ-hujjatlarni amaliyotga to'laqonli tatbiq etish;
- tashkilotning o'quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etish;
- bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish yuzasidan pedagog kadrlar bilan ishlash, ularga metodik maslahatlar berib borish;
- tashkilotning yillik va istiqbol ish rejalari loyihalarini ishlab chiqish va tashkilot rahbariyatiga kiritish;
- tashkilot pedagog xodimlarining ish rejalari, o'quv-mavzu rejalari hamda mashg'ulotlarga tayyorgarlik holatlarini ko'rish;
- tashkilotda tarbiyalanuvchilarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishini kuzatish, baholashga doir ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish va natijasiga ko'ra aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash;

–ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, bolalarni maktabgacha ta'limga tayyorlashdagi dolzarb masalalarni pedagogik kengashning muhokamasiga kiritish va unda pedagogik kengash a'zolarining faol ishtirokini ta'minlash, kiritilgan masalalarni chuqur o'rganish, natijalari bo'yicha sifatli, tahliliy, tanqidiy ma'lumotlar tayyorlash, qabul qilingan qaror va buyruqlarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini tashkil etish hamda ta'minlash;

–tashkilotning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarini tegishligi bo'yicha sifatli va samarali o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, pedagogik jamoaga ta'limdagi yangiliklarni yetkazish bo'yicha nazariy, amaliy seminar mashg'ulotlarini tashkil etish;

–tashkilotdagi guruh xonalarini bolalar yoshiga mos ravishda jihozlash yuzasidan tegishli maslahatlar berish;

–ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

–axborot va pedagogik texnologiyalarni, jumladan masofaviy o'qitish usullarini tashkil etishishlarini qo'llash va takomillashtirishni ta'minlash;

–tashkilot pedagog xodimlari o'rtasida sog'lom raqobatli muhitni yaratish maqsadida ko'rik-tanlovlar, tadbirlar, sport musobaqalari, o'quv va amaliy seminarlar tashkil etish va o'tkazish; –tarbiyalanuvchilar va ota-onalarni qiziqishini o'rttirish uchun turli sport musobaqalari, bayram ertaliklari, ochiq mashg'ulotlar, ko'rik-tanlovlar o'tkazilishini tashkil etish;

–tashkilot xodimlariga vakolati doirasida topshiriqlar berish va ularning bajarilishini nazorat qilish, xodimlarning kasbiy mahorati va metodik salohiyatini oshirish ishlarini tashkil etish;

–tashkilot pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimlar attestatsiyasini hamda ular tomonidan mehnat intizomiga rioya qilinishini nazorat qilish, o'z vakolati doirasida eng faollarini rag'batlantirish, jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda takliflar kiritish;

–tashkilotni o'quv-didaktik, metodik va ko'rgazmali materiallar, o'yin, o'yinchoqlar va musiqa asboblari bilan jihozlashga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va rahbariyatga taklif kiritish;

–tashkilotda ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomasi, sanitariya qoidalari va gigiyena normalariga, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarga qat'iy rioya qilishni ta'minlash.

–Pedagog xodimlarga metodik yordam berish, pedagogic faoliyatni tahlil qilish.

–Pedagog xodimlarning tasdiqlangan ish rejalarda belgilangan vazifalar bajarilishini nazorat qilish.

–Tashkilotda to'garaklar faoliyatini yuritishni ta'minlash.

–Tashkilotning ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini muvofiqlashtirish va yo'naltirish.

–Direktor yo'qligida uning lavozim vazifasini bajarish.

–tashkilotda huquqbuzarlik, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, giyohvandlik va boshqa zararli odatlardan saqlanish, uning oldini olish choralarini ko'rish bo'yicha ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish.

2. Bilishi lozim:

–maktabgacha ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun-mohiyatini;

–maktabgacha ta'limning davlat ta'lim talablari, ta'lim-tarbiya reja va o'quv dasturlarining mazmunini; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son va "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarorlari talablari asosida maktabgacha ta'limning davlat ta'lim talablari, ta'lim-tarbiya reja va o'quv dasturlarining mazmunini;

–zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalana olishni;

–maktabgacha ta'lim pedagogikasi, psixologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasini;

–bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tatbiq etish va uzluksiz takomillashtirib borish yo'llarini;

–jamoa shartnomasida belgilangan talablarga qat'iy rioya etish hamda jamoada sog'lom raqobatli ma'naviy-muhitni shakllantirish, ahillik va inoqlikni mustahkamlash orqali faoliyat yuritishni; O'zbekiston Respublikasining sanitariya-gigiyena talablariga, mehnat qonunchiligi asoslariga, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni.

3. Malaka talablari:

–maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma'lumot (nomutaxassis oliy ma'lumotlilar maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi kasbiy qayta tayyorlov kursini tamomlagan);

–xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

–maktabgacha ta'lim tizimida uch yildan kam bo'lmagan pedagogic ish staji.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

–tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish;

–tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash

to'g'risida" 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori talablari asosida ishni tashkil etish, davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish;

–yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar bilan ta'lim tarbiyaviy ishlarni olib borish, ularning hayoti va salomatligini muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomaning talablariga qat'iy rioya etgan bolalarni ehtiyotkorlik bilan nazorat qilish, tashkilotning binolarida va bolalar maydonchalarida sanitariya qoidalarini va yong'in xavfsizlik qoidalarini saqlash;

–rivojlanish xaritasiga muvofiq barcha ma'lumotlarni aks ettirgan holda har bir bolaning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, bolaning rivojlanish jarayonining natijasiga ko'ra, kuzatuv xaritasini o'z vaqtida 3 marta dastlabki (o'quv yili boshida), oraliq va yakuniy bosqichlarda amalga oshirish;

–o'ziga-o'zi xizmat qilish va hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bolalarning ko'nikmalarini shakllantirish;

–guruhlarda davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya dasturlaridan bolaning yosh xususiyatini hisobga olgan holda samarali foydalanish; tarbiyaviy ishlar bo'yicha joriy va uzoq muddatni rejalashtirish, ish rejasiga muvofiq mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, visual va didaktik materiallarni tanlash;

–bolalar orasida sog'lom turmush tarzini faol targ'ib qilish;

–ota-onalar (ularning o'rni bosuvchi shaxslar) bilan bola tarbiyasiga oid dolzarb masalalarda yig'ilishlar o'tkazish (har chorakda bir marta), ularga bag'ishlangan mavzuli stendlar mazmunini muntazam yangilash;

–bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy shakl va usullarini qo'llay olish, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy xorijiy, ijtimoiy kommunikativ hamda muomala ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan turli xildagi tadbirlarni tashkil etish;

–bola shaxsiga alohida yondashuvni, guruh va individual mashg'ulot, o'yin, sahnalashtirish, tabiatga ekskursiyalar tashkil qilish, individual xususiyatlari, qiziqish va qobiliyatlarini o'rganish;

–ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish;

–bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish;

–milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

–guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalarni joriy etilishini ta'minlash;

–guruhlardagi faollik markazlarini bolalar yoshiga mos bo'lgan o'quv ko'rgazmali, tarqatma va didaktik materiallar orqali bolalarga zarur sharoitlarni yaratish;

bartaraf qilish uchun turli xil psixologik (psixo-tuzatuv, rehabilitatsiya va konsultatsiya) yordam ko'rsatish bo'yicha choralar ko'rish;

–pedagogik xodimlarni, shuningdek, ota-onalarini maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi muammolariga yo'naltirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarining materiallari asosida psixologik va pedagogic xulosalar tuzish;

–5-7 yoshgacha bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda bolalarni diagnostik tekshirishdan o'tkazish, ularning umumiy o'rta ta'lim maktabida 1-sinfda o'qishga va moslashishiga psixologik tayyorgarligini aniqlash va tegishli xulosani rasmiylashtirish hamda ota-onalarga tavsiyalar berish;

–maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy va jinsiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarbiyalash dasturlarini rejalashtirish, shuningdek, rivojlantirishda qatnashish, hayotning turli xil holatlarida o'z taqdirini belgilashga tayyor bo'lishlariga yordam berish;

–pedagogik, metodik kengashlar faoliyatida, ota-onalar bilan uchrashuvlarni o'tkazishda qatnashish;

–turli yoshdagi iqtidorli va salohiyatli bolalarni aniqlash maqsadida turli psixologik metodlarni qo'llash, ularning iqtidorlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarini belgilash;

–pedagogik jamoa bilan tarbiyalanuvchilarning aqli va idroki hamda shaxs sifatida rivojlanishini pedagogik-psixologik tashxislar va korreksiyalarning dolzarb muammolariga bag'ishlangan metodik seminarlar, psixologik treninglar o'tkazish;–amaliyotda tarbiyalanuvchilar, ota-onalar hamda tashkilot xodimlarini pedagogic psixologik tashxislar metodikalaridan (anketalar, psixologik testlar, shaxsiy so'rovnomalar va h.k.) to'g'ri foydalanish va olingan natijalarning maxfiylikni ita'minlash;

–bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo'yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalar va salbiy tomonlarni aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha yakuniy kuzatuvlarni o'tkazilganligini nazorat qilib borish;

–O'zbekiston Respublikasining sanitariya-gigiyena talablariga, mehnat qonunchiligi asoslariga, odob-axloq, jamoa shartnomasi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

–bolalarni oilada rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarga psixologik ko'maklashish va maslahatlar berish.

–bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq shaxs huquqlarini himoya qilishga, ta'lim tashkiloti ijtimoiy sohasini uyg'unlashtirishga ko'maklashish va ijtimoiy jihatdan ko'nika olmaslik hollari yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

2. Bilishi lozim:

–maktabgacha ta'limi sohasidagi amaldagi va bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni;

–jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni;

–umumiy va ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiya, tibbiy psixologiya, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi xususiyatlarini;

–bolalar neyropsixologiyasi, psixodiagnostika yutuqlari, individual farq psixologiyasi, muhandislar psixologiyasi, defektologiya asoslarini;

–psixoterapiya, psixogigiyena, kasbga yo'naltirish, kasbshunoslik va mehnat psixologiyasini;

–testlar metodologiyasi va metodikasi, psixopatologiya, individual va guruhlar bo'yicha kasbga maslahat berishning zamonaviy metodlarini;

–bolaning normal va noto'g'ri rivojlanishini tashxislar va tuzatishni, xulq etikasi va madaniyatini;

–tadqiqot ishlarini o'tkazish texnologiyasini, tadqiqot natijalarini kompyuterda qayta ishlashni, psixodiagnostikaning dolzarb ilmiy ma'lumotlarni;

–tarbiyalanuvchilar sog'lig'ini saqlash, 5 yoshdan boshlab kasbga yo'naltirish tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar va ularning ijtimoiy muhofazasini;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasini.

–attestatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarorlari asosida attestatsiya o'tkazish tartibi va mezonlarini;

3. Malaka talablari:

–o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma'lumot, oliy ma'lumotga ega bo'lib psixologiya yo'nalishidagi qayta tayyorlov va maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi kasbiy qayta tayyorlov kursini o'tagan bo'lishi lozim;

–xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

–ish staji talab qilinmaydi.

Umumiy turdagi va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalar uchun va inklyuziv guruhlari o'qituvchi defektologi (o'qituvchi-logoped, tiflopedagog, surdopedagog, oligofrenopedagog) lavozimining malaka tavsiflari.

1.Lavozim vazifalari:

–Tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda

davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish;

–tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son va "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarorlari talablari asosida davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, psixologik xizmatni tashkil etish;

–maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan, shu jumladan nutqida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik mashg'ulotlarni o'tkazish;

–maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog bilan mashg'ulotlarga maktabgacha ta'lim tashkilotining quyidagi tarbiyalanuvchilari jalb qilinadi:

–3–7 yoshdagi inklyuziv guruhlardagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar;

–5–7 yoshdagi nutqning fonetik-fonematik rivojlanmaganligi, dislaliya (oddiy, murakkab) bo'lgan tarbiyalanuvchilar.

–maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog bilan mashg'ulotlarning zaruratini aniqlash uchun tarbiyalanuvchilar rivojlanishi va nutqini dastlabki tekshirish bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilingan vaqtdan boshlab 2 hafta ichida o'tkazish.

–maktabgacha ta'lim tashkilotining defektolog tomonidan 3–7 yoshdagi tarbiyalanuvchilar rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari va 5–7 yoshdagi tarbiyalanuvchilar nutqida nuqsonlari aniqlanganda, ushbu tarbiyalanuvchilar maktabgacha ta'lim tashkilotiga hududiy birlashtirilgan davolash-profilaktika muassasasiga chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yuborish.

–rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari tasdiqlanganda hududiy tibbiy psixologik-pedagogik komissiyasidan o'rnatilgan tartibda o'tish uchun yuborish.

–maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog faoliyatini tashkil etishdan maqsad rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari, shu jumladan nutqida nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish.

–maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat:

–nuqsonlarni aniqlashtirish maqsadida va yakka tartibdagi korreksion-pedagogik ish rejasini tuzish uchun kompleks psixologik-pedagogik tekshiruvni tashkil etish;

–rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlarni, shuningdek xotira, tafakkur, diqqat e'tiborni imkon qadar korreksiya qilishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;

–tarbiyalanuvchining imkoniyatlari va ehtiyojlariga muvofiq korreksion-pedagogik usullarni tanlash;

–rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy moslashuvi, shuningdek rivojlanishidagi

nuqsonlarni korreksiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar, shu jumladan inklyuziv ta'lim muhitini yaratish yuzasidan pedagoglar bilan hamkorlikda ishlash va ushbu faoliyatlarni muvofiqlashtirish;

–defektolog ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq, shuningdek ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya va korreksion faoliyatni tashkil etishda turlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksion pedagogik yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

–defektolog maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagoglari, boshqa mutaxassislari bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi, mashg'ulotlarni borib ko'radi, pedagog xodimlari va bolaning qonuniy vakillarga nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga yordam ko'rsatishning maxsus usullar va uslublarini qo'llash yuzasidan maslahat berish;

–inklyuziv guruhlardagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlar tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasida belgilangan muddatgacha o'tkazish;

–nutqida nuqsonlari bo'lgan 5–7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarni maktabgacha ta'lim tashkilotida korreksion-pedagogik ishlar 6 oy o'tkazilganidan keyin maktabgacha ta'lim tashkilotiga hududiy birlashtirilgan davolash-profilaktika muassasasining logopedi tomonidan tekshirish uchun yuborish.

2. Bilishi lozim:

–maktabgacha ta'limga oid normativ - huquqiy hujjatlarning mazmun mohiyatini va ularni amaliyotga tatbiq etishni;

–bolalar, umumiy va maxsus pedagogika va psixologiyasini;

–defektologiya asoslarini;

–ta'limni rivojlantirish istiqbollari;

–bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirilishini ta'minlash;

–bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

–bolalarning yosh va o'ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ularning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash;

–bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

–nogironligi bo'lgan bolalarga, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga, shuningdek bunday bolalar tarbiyalanayotgan oilalarga malakali ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, jamiyatdagi, oiladagi hayotga, o'qishga va mehnat qilishga imkon qadar to'liq hamda o'z vaqtida moslashishiga ko'maklashish.

–tibbiy abilitatsiya va rehabilitatsiya o'tkazish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni kompensatsiya va korreksiya qilish;

–bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;

–bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda ta'lim va tarbiya olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;

- bolalarni umum ta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;
- o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.
- bolalarning yoshiga xos anatomik, fiziologik asoslarni;
- kasbiy va amaliy faoliyat bo'yicha me'yoriy-uslubiy hujjatlarni;
- defektologiya fanining eng yangi yutuqlarini;
- odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasini.
- attestatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarorlari asosida attestatsiya o'tkazish tartibi va mezonlarini;

3. Malaka talablari:

- o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oily pedagogic ma'lumot;
- shuningdek oliy ma'lumotli nomutaxassislar maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi kasbiy qayta tayyorlov kursini o'tagan bo'lishi lozim;
- xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;
- ish staji talab qilinmaydi.

Ko'ptarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun guruhlar o'qituvchi-defektologi (o'qituvchi-logoped, tiflopedagog, surdopedagog, oligofrenopedagog) lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari: –tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish;

–tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son va "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarorlari talablari asosida davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, psixologik xizmatni tashkil etish;

–rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga quyidagi tamoyillar asosida ta'lim berish va tarbiyalash:

- ta'limning korreksion yo'naltirilganligi;
- ijtimoiy ymoslashuvi;

–ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ta'limning maxsus metodologiyasidan va toifalangan yondashuvdan foydalanish.

–rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik mashg'ulotlarni o'tkazish.

–defektolog bilan mashg'ulotlarning zaruratini aniqlash uchun tarbiyalanuvchilar rivojlanishi va nutqini dastlabki tekshirish bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilingan vaqtdan boshlab 2 hafta ichida o'tkazish.

–ixtisoslashtirilgan va qo'shma maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat:

–bola qabul qilinganda uning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini, sog'lig'i holati va rivojlanish darajasini hisobga olib korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalishni ishlab chiqish;

–individual yo'nalishni amalga oshirish jarayonida bola rivojlanishi dinamikasini aniqlash va zarurat bo'lsa, unga o'zgartishlar kiritish;

–korreksion-pedagogik va reabilitatsiya tadbirlari natijalari, bolaning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari darajasi va ijtimoiy moslashuv dinamikasi, ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirishi monitoringini olib bo'rish va baholash;

–nuqsonlarni aniqlashtirish maqsadida va yakka tartibdagi korreksion-pedagogik ish rejasini tuzish uchun kompleks psixologik-pedagogik tekshiruvni tashkil etish;

–rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlarni, shuningdek xotira, tafakkur, diqqat e'tiborni imkon qadar korreksiya qilishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;

–tarbiyalanuvchining imkoniyatlari va ehtiyojlariga muvofiq korreksion-pedagogik usullarni tanlash;

–bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan muddat davomida uni Tibbiy psixologik-pedagogik komissiyaga qayta tekshiruvga yuborish zarurati haqidagi masalani ko'rib chiqish;

–rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy moslashuvi, shuningdek rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar, yaratish yuzasidan pedagoglar bilan hamkorlikda ishlash va ushbu faoliyatlarni muvofiqlashtirish;

–ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq, shuningdek ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya va korreksion faoliyatni tashkil etish dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogik yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

–maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagoglari, boshqa mutaxassislari bilan yaqin hamkorlikda ish olib borish, mashg'ulotlarni borib ko'rish, pedagog xodimlari va bolaning qonuniy vakillarga nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga yordam ko'rsatishning maxsus usullar va uslublarini qo'llash yuzasidan maslahat berish;

–tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasida ko'rsatilgan bolaning bo'lish muddati tugashidan kamida bir oy oldin bolaning qonuniy vakillarini

tarbiyalanuvchining ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lish muddati tugaganidan xabardor qilish hamda ushbu tashkilotlarda bo'lishini davom ettirish yuzasidan uni tibbiy psixologik-pedagogik komissiyaga tekshiruvga yuborish;

2. Bilishi lozim:

–maktabgacha ta'limga oid normativ huquqiy hujjatlarning mazmun mohiyatini va ularni amaliyotga tatbiq etishni;

–bolalar, umumiy va maxsus pedagogika va psixologiyasini;

–defektologiya asoslarini;

–ta'limni rivojlantirish istiqbollarini;

–bolaning ta'lim olishgabo'lgan huquqini amalga oshirilishini ta'minlash;

–bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korrektsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

–bolalarning yosh va o'ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ularning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash;

–bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

–nogironligi bo'lgan bolalarga, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga, shuningdek bunday bolalar tarbiyalanayotgan oilalarga malakali ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, jamiyatdagi, oiladagi hayotga, o'qishga va mehnat qilishga imkon qadar to'liq hamda o'z vaqtida moslashishga ko'maklashish;

–tibbiy abilitatsiya va rehabilitatsiya o'tkazish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni kompensatsiya va korrektsiya qilish;

–bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;

–bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda ta'lim va tarbiya olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;

–bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;

–o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish;

–bolalarning yoshiga xos anatomik, fiziologik asoslarini;

–kasbiy va amaliy faoliyat bo'yicha me'yoriy-uslubiy hujjatlarni; defektologiya fanining eng yangi yutuqlarini;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasini.

–attestatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentabrda 572-son qarorlari asosida attestatsiya o'tkazish tartibi va mezonlarini;

3. Malaka talablari:

–o'z yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki magistr darajasidagi oliy ma'lumot (kasbiy qayta tayyorlov kursidan o'tgan oliy pedagogik ma'lumotli mutaxassislar vaqtincha o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumotli mutaxassis kelgunga qadar uning vazifasini bajarishi mumkin);

–Xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

–ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi yordamchisi lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

–Tarbiyachiga bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida yordam berish, ularni sayrga kuzatish, bolalarni muzeylar, xiyobonlar va boshqa dam olish joylariga olib borishda ko'maklashish;

–tarbiyachi rahbarligida tibbiy xodimlar bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarning salomatligini saqlash va mustahkamlash, ijtimoiy va psixologik rehabilitatsiya, ijtimoiy va mehnat moslashuvi uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydigan kundalik ishlarni amalga oshirish;

–bolalarning yoshini, o'z-o'zini boshqarishlarini, mehnat muhofazasi talablariga rioya eta olishini hisobga olgan holda ularni sanitariya-gigienik ko'nikmalarini ta'minlashga yordam berish;

–bolalarda nojo'ya harakatlar, zararli odatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar olib borish;

–kun tartibiga ko'ra bolalar uchun tayyorlangan taomlarni bolalarga tarqatish qoidalarini tashkil etish hamda idish yuvish va xonani tozalash bo'yicha shaxsan javobgar bo'ladi;

–bolalarga g'amxo'rlik qilish, parvarish qilish, kiyim-kechak, choyshab, yuvish, ovqatlantirish, bolalarni yotqizish, kiyimlarini quritish, kiyim almashtirish bo'yicha yordam berish;

–yozgi mavsumda bolalarni cho'milish uchun ochiq basseynga tayyorlashga yordam berish, bolalarning quyi guruhlarini cho'milish hovuzchasiga olib borish va guruh xonasiga qaytarishda ko'maklashish;

–guruhda bolalar hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, ehtiyotkorlikni ta'minlash;

–maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni aqliy va jismoniy rivojlanishidan kelib chiqib, vatanga, milliy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalash, tarbiyalanuvchilarning muomala ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan guruh va individual mashg'ulotlar, o'yinlar, bayram ertaliklari, sayr va boshqa tadbirlarni o'tkazishda tarbiyachiga ko'maklashish;

–odob-axloq, ichki tartib, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini talablariga rioya qilish;

–guruh xonalarni belgilangan tartibda shamollatish;

–guruh karantin bo‘lgan hollarda sanitariya qoidalarini va gigiyena normativlarida belgilangan tartibda umumiy yig‘ishtirish ishlarini olib borish, zararsizlantiruvchi eritmalar (xlorlieritmalar)dan foydalanishni bilish.

2. Bilishi lozim:

–“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarining mazmunini va amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini;

–maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish, tarbiyalash shakl va metodlarini;

–maktabgacha yoshdagi bolalarning ommaviy o‘yinlarini tashkil qilish qoidalarini, gigiyena asoslari, bolalar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish qoidalarini;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalarini.

3. Malaka talablari:

–kamida o‘rta maxsus pedagogik ma‘lumot;

–amaliy ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti til o‘qituvchilari lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

–Til o‘rgatuvchilar (o‘zbek, rus, ingliz va boshqa) tillarni o‘qitishda qo‘shimcha ta‘lim beradigan o‘qituvchi:

–“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda davlat o‘quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni to‘laqonli bajarish;

–bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish metodikasiga muvofiq holda tillarni o‘rgatish;

–guruhda bolalarga mos sharoitni yaratish;

–bolalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha maktabgacha ta‘lim tashkiloti va oila hamkorligini;

–tarbiyalanuvchi shaxsini hisobga olgan holda pedagogic faoliyat yo‘nalishini belgilashi;

–bolalarning yosh xususiyatlari, ularningi jodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda yakka tartibdagi ishlarni tashkil etishi;

–bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo‘yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalar va salbiy tomonlarni aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta‘lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha yakuniy kuzatuvlarni o‘tkazilganligini nazorat qilib borish;

–tilni o‘rganish bo‘yicha tarbiyalanuvchilar uchun o‘yinlar va mashqlarni rejalashtirish va tashkil etish;

–til o‘rgatishda didaktik materiallarni bola yoshiga mos ravishda tanlash;

–bolalar bilan guruhda va individual tarzda mashg‘ulotlar o‘tkazish;

–amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha pedagogik kengash va ota-onalar yig‘ilishlarida hisobot berish;

–ochiq mashg‘ulot va seminarlar tashkil etish;

–oilada xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha mustahkamlovchi mashqlarni o‘rgatish bo‘yicha ota-onalarga tavsiya va maslahatlar berish;

–bolalar tomonidan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish;

–so‘zlarning Grammatik tuzilishiga e‘tiborni qaratish;

–bolalarning yosh xususiyatiga ko‘ra so‘z boyligini oshirish;

–mashg‘ulotlar jarayonida bolalar hayoti xavfsizligini ta‘minlash.

2. Bilishi lozim:

–Maktabgacha ta‘limga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun mohiyatini va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini;

–“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini amaliyotga tatbiq etishni; –tilning lug‘at tarkibi, Grammatik qurilishi va fonetik tuzilishini;

–Grammatik va fonetik talaffuz jihatlarini, leksik frazeologik birliklarni tanlashni;

–bolaning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalarini;

–maktabgacha ta‘lim pedagogikasi, psixologiyasi, fiziologiyani, gigiyenasini; –o‘quv rejasining mazmunini, maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o‘rgatish metodikasini;

–zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini hamda kompetentlik yondashuvini joriy qilishni;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalarini.

3. Malaka talablari:

–o‘z yo‘nalishi bo‘yicha kamida bakalavr darajasidagi oily pedagogic ma‘lumot;

–ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti musiqa rahbari lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

– “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini amaliyotga tatbiq etish; –maktabgacha ta‘lim tashkiloti rejasiga muvofiq musiqa mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha seminarlar va ochiq mashg‘ulotlar o‘tkazishni tashkil etish; – maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilari, bolalar va ularning ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

–maktabgacha ta‘lim tashkiloti ma‘muriyati tomonidan belgilagan o‘quv, uslubiy va tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

–tarbiyalanuvchilarning musiqaga bo‘lgan qobiliyatlarini va ijodiy va musiqaviy faoliyatini tashkil qilishning turli shakl va ko‘rinishlaridan foydalanib, ularda estetik didni shakllantirish, musiqani tinglashga o‘rgatish; –tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatlarini yakka va jamoa ko‘rinishda rivojlantirishga ko‘maklashish;

–maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning musiqiy bilim darajasini umumlashtirish, tahlil qilish va natijasiga ko‘ra chora-tadbirlar, individual va yosh xususiyatlarini, ijodiy qobiliyatlarini hisobga olib, qo‘shimcha mashg‘ulotlar rejasini belgilash;

–bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo‘yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalar va salbiy tomonlarni aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta‘lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha yakuniy kuzatuvlarni o‘tkazilganligini nazorat qilib borish;

–tarbiyachilar bilan birga tarbiyalanuvchilarni raqsga tushishga, ashula aytishga, musiqiy o‘yinlarga o‘rgatish;

–ota-onalarga farzandlarining musiqiy tarbiyaga moyilligi, qobiliyati, iqtidorini rivojlantirish yuzasidan maslahatlar berish;

–maktabgacha ta‘lim tashkilotida tashkil etiladigan bayram ertaliklari, turli ma‘naviy ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalar talablariga rioya qilish.

2. Bilishi lozim:

–“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini;

–maktabgacha ta‘lim sohasida amaldagi musiqiy ta‘limga oid normativ-huquqiy, metodik va boshqa hujjatlarni;

–bolalar musiqa ta‘limi nazariyasi va amaliyoti asoslarini, bolalar musiqa adabiyotini, xoreografiya asoslarini, xor jamoasi bilan ishlashni, sahnalar, madaniy-ommaviy tadbirlarni o‘tkazish dasturlarini hamda ularning tartibini amaliy jihatdan ishlab chiqishni;

–bolalar shaxsini rivojlantirishning individual xususiyatlari, turli yoshdagi bolalarning musiqaviy idroki, tuyg‘ulari, motorikasi va musiqiy imkoniyatlarini;

–o‘zbek, sharq va xorijiy bastakorlar hayoti va ijodini, musiqa tarixi va madaniyatini, bolalar repertuari asarlarini;

–musiqa asboblari, shuningdek o‘zbek, sharq, Yevropa mumtoz musiqa san‘atini, operani, baletni, vokal-xor ko‘nikmalarini;

–respublikaning turli hududlariga xos bo‘lgan musiqa metodlarini va usullarini, instrumental va ijro yo‘nalishlarini, musiqaviy o‘yinlarni, musiqaviy vazn harakatlarini;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish yo‘riqnomasini.

2. Malaka talablari:

–kamida o‘rta maxsus musiqaviy ma‘lumot;

–musiqa asboblariidan birini nota orqali mustaqil ijro eta olish;

–amaliy ish staji talab etilmaydi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti musiqa xodimi lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

–“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini amaliyotga tatbiq etish;

–tarbiyalanuvchilarning musiqaga bo‘lgan qobiliyatlarini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishni amalga oshirish;

–musiqaviy faoliyatni tashkil qilishning turli shakl va ko‘rinishlaridan foydalanib, ularda estetik didni shakllantirish, musiqa asbobida ijro texnikasini mahorat bilan bajarish;

–tarbiyalanuvchilar bilan yakka va jamoaviy tartibda ishlash, qobiliyatli va iqtidorli tarbiyalanuvchilarni tanlab olish, ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

–maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning musiqiy bilim darajasini umumlashtirish, tahlil qilish va natijasiga ko‘ra chora-tadbirlar belgilash;

–tarbiyalanuvchilarning individual va yosh xususiyatlarini, ijodiy qobiliyatlarini hisobga olib pedagogic faoliyat rejasini belgilash;

–bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo‘yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalar va salbiy tomonlarni aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta‘lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha yakuniy kuzatuvlarni o‘tkazilganligini nazorat qilib borish;

–tarbiyachilar bilan birga tarbiyalanuvchilarni raqsga tushish, ashula aytish, musiqiy o‘yinlarni o‘rgatish;

–ota-onalarga farzandlarining musiqiy tarbiyaga moyilligi, qobiliyati, iqtidorini rivojlantirish yuzasidan maslahatlar berish;

–maktabgacha ta‘lim tashkilotida tashkil etiladigan bayram ertaliklari, turli ma‘naviy ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalar talablariga rioya qilish.

2. Bilishi lozim:

–“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini;

–maktabgacha ta'lim sohasida amaldagi musiqiy ta'limga oid normativ-huquqiy, metodik va boshqa hujjatlarni;

– bolalar musiqa ta'limi nazariyasi va amaliyoti asoslarini, bolalar musiqa adabiyotini, xoreografiya asoslarini, xor jamoasi bilan ishlashni, sahnalar, madaniy-ommaviy tadbirlarni o'tkazish dasturlarini hamda ularning tartibini amaliy jihatdan ishlab chiqishni;

–bolalar shaxsini rivojlantirishning individual xususiyatlari, turli yoshdagi bolalarning musiqaviy idroki, tuyg'ulari, motorikasi va musiqiy imkoniyatlarini;

–o'zbek, sharq va xorijiy bastakorlar hayoti va ijodini, musiqa tarixi va madaniyatini, bolalar repertuari asarlarini;

–musiqa asboblari, shuningdek o'zbek, sharq, Yevropa mumtoz musiqa san'atini, operani, baletni, vokal-xor ko'nikmalarini;

–respublikaning turli hududlariga xos bo'lgan musiqa metodlarini va usullarini, instrumental va ijro yo'nalishlarini, musiqaviy o'yinlarni, musiqaviy vazn harakatlarini;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasini.

2. Malaka talablari:

–kamida o'rta maxsus musiqaviy ma'lumot;

–musiqa asboblardan birini nota orqali mustaqil ijro eta olish;

–amaliy ish staji talab etilmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xoreografi lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

–“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tatbiq etishi;

–maktabgacha ta'lim tashkiloti rejasiga muvofiq yosh bolalar uchun musiqa, teatr, badiiy gimnastika, xoreografiya mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha seminarlar va ochiq mashg'ulotlar o'tkazishni tashkil etishi;

–tashkilot tarbiyachilari, bolalar va ularning ota-onalari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

–tashkilot ma'muriyati tomonidan belgilangan o'quv, uslubiy va tashkiliy ishlarda ishtiroketish;

–tarbiyalanuvchilarning o'zbek milliy raqsi, xalq-sahna raqsi, balet raqsi konsepsiyasini, uning spektakldagi va ijrodagi vazifasi bilan birga o'zaro aloqada egallash, janr, xarakter, ifodaviy vositalar orqali dastlabki ko'nikmalarni o'rgatish;

–tarbiyalanuvchilarning o'zbek raqsi, xalq-sahna raqsida yakka va jamoa ko'rinishda rivojlantirishgako'maklashish; –tarbiyalanuvchilarga xoreografik asarlarni (etyud, yakka va ommaviy raqs) sahnalashtirish texnologiyalari va usullarini o'rgatish;

–milliy va zamonaviy xoreografiya san'atining yo'nalishlari va uslublarini tadqiq etish;

–maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning xoreografik bilim darajasini umumlashtirish, tahlil qilish va natijasiga ko'ra chora-tadbirlar, individual va yosh xususiyatlarini, ijodiy qobiliyatlarini hisobga olib, qo'shimcha mashg'ulotlar rejasini belgilash;

–ota-onalarga farzandlarining xoreografiyaga moyilligi, qobiliyati, iqtidorini rivojlantirish yuzasidan maslahatlar berish;

–maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan bayram ertaklari, turli ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish.

2. Bilishi lozim:

–“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tatbiq etish yo'llarini;

–maktabgacha ta'lim sohasida amaldagi xoreografiyaga oid normativ-huquqiy, metodik va boshqa hujjatlarni;

–bolalar xoreografiya ta'limi nazariyasi va amaliyoti asoslarini, bolalar uchun musiqa adabiyotini, klassik raqsi, o'zbek milliy raqsi, xalq, xalq-sahna raqsi, asoslarini, madaniy ommaviy tadbirlarni o'tkazish dasturlarini hamda ularning tartibini amaliy jihatdan ishlab chiqishni;

–bolalar shaxsini rivojlantirishning individual xususiyatlari, turli yoshdagi bolalarning milliy raqs va xoreografiyaga imkoniyatlarini;

–xoreografiya sohasiga oid o'quv-uslubiy adabiyotlar hamda axborot manbalaridan foydalanishni;

–bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mushak og'irligini, raqsning chiroyli usuli va tana ko'rinishini yaratgan holda gavdaning jismoniy harakatlarni taqsimlanishini bilishi va ulardan foydalana olishi;

3-5 yoshdagi bolalar uchun ritmik mashg'ulotlarni tashkil etish;

–raqs san'atining o'ziga xos xususiyatlarini, o'zbek va jahon xoreografiya san'ati tarixi an'analari, respublikaning turli hududlariga xos bo'lgan raqs ijro uslublarini, musiqa va ijro yo'nalishlarini, hududlarga mos ertaklar va folklore o'yinlarini;

–o'zining ish faoliyatida olgan bilimlari asosida ijodiy-tashkiliy faoliyatga ega bo'lishi bilan birga bolalar xoreografiya jamoalarida ijodiy jarayonini tashkil etishni;

–xoreografiya terminologiyasini tushunish, bilish va mashg'ulotlar jarayonida bolalar xoreografik jamoa qatnashchilari bilan ijodiy aloqani o'rnatish.

–bolalar yoshini, hisobga olgan holda kichik konsert dasturlarini yaratish va sahnalashtirishi, bolalar yoshiga xos oddiy xoreografik yakka, ommaviy kompozitsiyalarni yaratish va sahnalashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi;

–zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bolalar uchun qiziqarli, nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazishi;

–mustaqil ijodiy izlanishlar natijasida pedagogik faoliyat sohasidagi usullar, uslublar, vositalar va shakllar borasida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

3. Malaka talablari:

–kamida o'rta maxsus musiqaviy ma'lumot va xoreografiya yo'nalishi bo'yicha maxsus tayyorgarlik;

–musiqa asboblardan birini nota orqali mustaqil ijro eta olish;

–amaliy ish staji talab etilmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisi lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

–“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tatbiq etish;

–bolalarni jismoniy rivojlantirish bo'yicha o'quv mavzu rejalarini tuzish;

–guruhlarda ertalabki badantarbiya mashqlarini o'tkazishda tarbiyachilar bilan hamkorlikda ishlash;

–tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari (ularning o'rnini bosadigan shaxslar) tomonidan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari, musobaqalar, sog'lomlashtirish kunlari va boshqa dam olish tadbirlarining tashkil etilishini va o'tkazilishini ta'minlash;

–tashkilot rahbariyatiga maktabgacha ta'lim tashkilotining sport jihozlari bilan ta'minlash bo'yicha ehtiyojini kiritish;

–jismoniy zaifligi mavjud tarbiyalanuvchilar uchun jismoniy rehabilitatsiya choralari ko'rilishini tashkil etish;

–bolalarning sog'lom turmush tarsi asoslarini shakllantirishga hissa qo'shish;

–tarbiyalanuvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosadigan shaxslar) orasida turli sport tadbirlari va musobaqalarni o'tkazish;

–tarbiyalanuvchilarning yoshi, tayyorgarligi, shaxsiy va psixofizik xususiyatlari, manfaatlariga asoslangan holda mashg'ulotlarning mazmunini belgilash;

–tarbiyalanuvchilarning jismoniy mashqlarni bajarishda, tana a'zolarining harakatlarini to'g'ri rivojlantirish;

–jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida tarbiyalanuvchilarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash;

–mavjud sport maydonchalari, zallari va jihozlari holati, sanitariya me'yorlariga mosligini, ishlatilishini va saqlanishini ta'minlash;

–tibbiy xodimlar bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarning sog'lig'ini saqlash holatini nazorat qilish;

–bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo'yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalar va salbiy tomonlarni aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni

rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha yakuniy kuzatuvlarni o'tkazilganligini nazorat qilib borish;

–bolalarni har tomonlama yetuk shaxs qilib shakllantirishda ota-onalar uchun metodik va maslahatlar berib borish;

–pedagogik va metodik kengashlarda, umumiy ishlab chiqarish yig'ilishlarida faol ishtirok etish;

–odob-axloq, va jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini talablariga rioya qilish.

2. Bilishi lozim:

–“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tatbiq etish yo'llarini;

–maktabgacha ta'lim sohasida amaldagi jismoniy tarbiyaga oid normativ-huquqiy, metodik va boshqa hujjatlarni;

–maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogika va psixologiyasi, fiziologiyasi asoslari hamda bolalarni jismoniy tarbiyalashning nazariya va amaliyoti asoslarini;

–odob-axloq, va jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasini.

2. Malaka talablari:

–o'z yo'nalishi bo'yicha kamida o'rta maxsus ma'lumot;

–amaliy ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti suzishni o'rgatish bo'yicha yo'riqchisi lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

–tarbiyalanuvchilarga sog'lom turmush tarzi asoslariga, gigiyena ko'nikmalariga, suvga ijobiy munosabatini shakllantirish;

–maktabgacha yoshdagi bolalarga suvda o'zini erkin tutishni va suzishni o'rgatish;

–kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarga yoshini hisobga olgan holda, kiyim kechak o'zgartirishga va dush qabul qilishga yordam berish;

–bolalarni amaliyotda suzishga o'rgatadigan yangi texnologiyalar va ixtiyoriy dasturlarni joriy etish;

–rejaga muvofiq bolalarning diagnostik tekshiruvini yiliga 2 marotaba o'tkazishni ta'minlash;

–har bir guruh uchun suzishga o'rgatish mashg'ulotlari jadvalini tuzish, guruhlar yosh tarkibini hisobga olib, tasdiqlangan dasturlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish;

–reja asosida tarbiyalanuvchilarning suv havzasida harakat faolligini nazorat qilish, suzish bo'yicha sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini olib borish;

–maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablari asosida suzish bo'yicha malaka ko'nikmalarni o'zlashtira olmayotgan bolalar bilan alohida mashg'ulotlar o'tkazish;

–tarbiyalanuvchilarning sogʻligi va jismoniy holatini nazorat qilish, tarbiyachilar va otaonalar bolalar sogʻligini mustahkamlash, jumladan suzish boʻyicha va boshqa sport seksiyalari, toʻgaraklarga jalb qilish boʻyicha maslahatlar berish, ularga metodik va amaliy yordam koʻrsatish;

–tarbiyalanuvchilarning sogʻligi yomonlashgani va jismoniy zaifligining jismoniy tiklanishi uchun chora-tadbirlar koʻrish;

–mashgʻulotlar paytida tarbiyalanuvchilar sogʻligi va xavfsizligiga javobgar shaxs hisoblanib, oʻzining kasbiy mahoratini, bolalar bilan ishlashning metodik usullarini takomillashtirish, maktabgacha taʼlim tashkiloti xodimlari va ota-onalar orasida jismoniy tarbiya boʻyicha targʻibot-tashviqot ishlarini olib borish;

–mavjud sport inshootlari va jihozlarning holatini, ishlashini kuzatish;

–tashkilotining pedagogik kengashi va metodik uyushmalar faoliyatida qatnashish, zaruriy hujjatlarni tartibga solish talablariga muvofiq saqlash;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yongʻin xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish.

2. Bilishi lozim:

–amaldagi maktabgacha taʼlim sohasidagi, suzish boʻyicha bolalar sportini rivojlantirishga oid hamda bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni;

–bolaning hayoti va sogʻligʻini himoya qilish boʻyicha koʻrsatmalarni;

–maktabgacha taʼlimga qoʻyilgan davlat talablari va amaldagi taʼlim dasturlari mazmunini;

–maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogika va psixologiyasi asoslari hamda bolalarni jismoniy tarbiyalashning nazariya va amaliyoti asoslarini;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yongʻin xavfsizligi qoidalari, bolalar hayoti va sogʻligʻini muhofaza qilish yoʻriqnomasini, attestatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional va maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan oʻtkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarorlari asosida attestatsiya oʻtkazish tartibi va mezonlarini;

3. Malaka talablari:

–oʻz yoʻnalishi boʻyicha kamida oʻrta maxsus maʼlumot;

–amaliy ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha taʼlim tashkiloti hamshirasi lavozimining malaka tavsiflari.

1.Lavozim vazifalari:

–binoning sanitary holatini va maktabgacha taʼlim tashkiloti joyini nazorat qilish;

–bolalarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazishga tayyorlash;

–bolalarning vaznini, antropometrik oʻlchovlarini belgilash;

–profilaktikamlashlar oʻtkazish va shifokor tayinlanishini amalga oshirish;

–shifokorning koʻrsatmasi boʻyicha sanitariya rejimiga rioya etilishini nazorat qilish, bolalarga jismonan chiniqtiruvchi choralar koʻrish;

–shifokor tibbiy koʻrsatmalarini va tartib-qoidalarni bajarish;

–kasallikdan soʻng kelgan va yuqumli kasallar bilan aloqada boʻlgan bolalarni ertalab termometriya (issiqlikni oʻlchash) va boshqa faoliyatni amalga oshirgan holda qabul qilish;

–joriy dezinfeksiyani oʻtkazishni tashkil qilish;

–guruh tarbiyachilari tomonidan olib boriladigan bolalarning kundalik ertalabki qabulini nazorat qilish;

–bolalar salomatligi va jismoniy tarbiyasi masalalariga bagʻishlangan ota-onalar hamda pedagogik kengashlarda qatnashish;

–dori-darmonlar, bakteritsid preparatlar, dezinfeksiyalovchi vositalar, tibbiy asbob-uskunalar va asbob-uskunalar uchun dasturlar tayyorlash;

–maktabgacha taʼlim tashkiloti xodimlari va ota-onalar oʻrtasida sanitar-tarbiyaviy ish olib borish;

–maktabgacha taʼlim tashkiloti xodimlarining tibbiy koʻrikdan oʻz vaqtida oʻtishini nazorat qilish;

–har oyda maʼmuriyat bilan birgalikda maktabgacha taʼlim tashkilotida bolalarning kasallanishining sabablarini oʻrganib chiqish va ushbu sabablarni bartaraf etish boʻyicha takliflar kiritish;

–mintaqadagi epidemiologik vaziyat bilan oʻz vaqtida tanishish maqsadida yaqin poliklinika bilan muntazam aloqani amalga oshirish;

–yetkazib beriladigan mahsulotlarning sifatini, ularni saqlash qoidalari rioya etilishini nazorat qilish;

–tayyor oziq-ovqatlar mahsulotlari (pishiriqlar) sifatini, mahsulotning tabiiy standartlariga mosligini nazorat qilish, ratsionning kimyoviy tarkibini va kaloriyasini muntazam ravishda hisoblab chiqish(bayonnomaga muvofiq).

–sanitariya gigiyena talablari muvofiq kunlik taomnomalarni tayyorlash va rahbariyatga tasdiqlash uchun kiritish;

–har kuni tayyor ovqat namunasini olish uchun idishlarni tayyorlaydi va davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati talablariga muvofiq namunani saqlash uchun olib qoʻyadi;

–namuna uchun qadoqlash holatini, uning markirovkasini kuzatib boradi.

–kundalik taomlarni guruhlar boʻyicha tarqatishda ishtirok etish;

–oziq-ovqat mahsulotlarini guruhlariga ajratish jadvaliga muvofiqligini nazorat qilish, taomnomadagi tarkibni tekshirish;

–xodimlarni ovqatlanishi uchun kundalik oziq-ovqat mahsulotlari xarajati hisobotini yuritib borish;

–bolalar guruhlarida kun tartibidagi ovqatlanishni oʻz vaqtida bajarilishini nazorat qilish.

3. Bilishi lozim:

–maktabgacha taʼlim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;

–Oʻzbekiston Respublikasi Bosh Davlat sanitariya vrachining “Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni

xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar” sanqvan № 0016-21-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 26 iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 30) asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun sanitariya gigiyena talablarini; –bolalarni jismoniy chiniqtirish usullarini;

–bolalar uchun oziq-ovqatni tashkil etishga qo‘yiladigan talablarni;

–shikastlangan bolalarga birinchi yordam ko‘rsatishning barcha usullarini;

–bolalar hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladigan o‘ta og‘ir vaziyatlarda tartib qoidalarni;

–oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash bo‘yicha sanitariya-gigienik talablarni;

–maktabgacha ta’lim, sog‘liqni saqlash sohasidagi amaldagi va bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarini;

–tarbiyalanuvchilar sog‘lig‘ini saqlash va ularning ijtimoiy muhofazasini;

–odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish yo‘riqnomasini.

–attestatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarorlari asosida attestatsiya o‘tkazish tartibi va mezonlarini;

4. Malaka talablari:

–hamshiralik ishi bo‘yicha kamida o‘rta maxsus tibbiy ma’lumot;

–ish staji talab qilinmaydi.

15-§. Maktabgacha ta’lim tashkiloti xo‘jalik mudiri lavozimining malaka tavsiflari

1. Lavozim vazifalari:

–maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish uchun ehtiyojlarni hisob-kitobini qiladi va tashkilot rahbariga talabnoma kiritish;

–bino va inshootlarining texnik holatiga va barcha moddiy boyliklarning saqlanishiga shaxsan javob berish;

–tashkilotga olib kelingan qattiq va yumshoq jihozlar va o‘yinchoqlar, ko‘rgazmali qurollar, texnik jihozlarni hamda ota-onalar, homiylar tomonidan berilgan jihozlarni o‘rnatilgan tartibda kirim qilish;

–tashkilotga qabul qilingan jihozlarni tarqatarish va chiqim qilish; maktabgacha ta’lim tashkilotiga olib kelingan jihozlarni raqamlash va saqlanishini ta’minlash;

–tashkilotdagi mavjud ta’mirtalab bo‘lgan jihozlarni ta’mirlashishlarini tashkil etish;

–tashkilotni jihozlar bilan ta’minlash, joriy ta’mirlash ishlarini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha xarajatlar smetasi tuzilishida o‘z takliflarini kiritish;

–tashkilotning kommunal to‘lovlari (tabiiy gaz, suv, elektr va issiqlik energiyasidan foydalanganligi) bo‘yicha hisoblagichlarning kundalik ko‘rsatkichlarini olib, tahlil qilgan holda byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan tejamkorlik bilan foydalanishni tashkil etish;

–tashkilotda telefon tarmoqlaridan foydalanilganda aloqaning uzluksizligini ta’minlash hamda aloqa buzilgan hollarda hududiy telefon tarmoqlari bo‘linmalariga xabar berib, aloqani tiklash choralari ko‘rish;

–tashkilotda atrof-muhitni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, hashar ishlarida hovli supuruvchi, binoni qo‘riqlashda qorovullar ishini to‘g‘ri tashkil etish;

–tashkilotda xodimlar o‘rtasida hashar, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish va ularda o‘zi ham faol ishtirok etish.

2. Bilishi lozim:

–maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;

–O‘zbekiston Respublikasi Bosh Davlat sanitariya vrachining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar” sanqvan № 0016-21-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 26 iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 30) asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun sanitariya gigiyena talablarini;

–jihozlarni saqlash bo‘yicha sanitariya-gigienik talablarni;

–sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish yo‘riqnomasini;

–kuz-qish mavsumini betalafot o‘tkazish maqsadida zarur bo‘lgan yoqilg‘i turi bilan ta’minlash bo‘yicha tuman(shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limiga talabnoma kiritishni;

–kuz-qish mavsumiga tashkilot binosining oyna va eshiklari, isitish va kanalizatsiya tizimi quvurlarini sozligini ko‘rib chiqish va mavsumga tayyorlash;

–maktabgacha ta’lim tashkilotiga mavsumni betalafot o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan yoqilg‘i (ko‘mir va ko‘mir briketi) materiallarini o‘z vaqtida yetkazish, sifatli saqlash, ularni belgilangan miqdorda sarflanishi hamda issiqlik tizimini optimal darajada ishlashini ta’minlash;

–tashkilotda yong‘in xavfsizligi asbob-uskunalarining yetarli darajada ishlashini ta’minlash.

–attestatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarorlari asosida attestatsiya o‘tkazish tartibi va mezonlarini;

4. Malaka talablari: –kamida o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lishi lozim;

–ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bosh oshpazi lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

- maktabgacha ta'lim tashkiloti oshxonasida ishni tashkil etadi.
- taomlarni maktabgacha ta'lim tashkilotidagi taomnoma asosida tayyorlash texnologiyasiga amal qilgan holda tayyorlaydi;
- tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarzda taomlarni porsiyalarga bo'ladi va tarqatadi;
- kunlik taomnomani tuzishda ishtirok etadi;
- oziq-ovqat mahsulotlarining belgilangan tartibda saqlanishi va taomnoma asosida to'g'ri sarflanishini ta'minlaydi;
- taomlarni tayyorlashda mahsulotlarga dastlabki va issiqlik ishlov berishni amalga oshiradi;
- turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlarining tavsifi va biologik qiymatini o'rganadi hamda organoleptik usul orqali ularning sifat ko'rsatkichlarini farqlaydi;
- issiqlik ishlov beruvchi, vazn o'lchovchi, muzlatgich va boshqa jihozlardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qiladi;
- har uch yilda bir marta sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha malaka oshiradi.

3. Bilishi lozim:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat sanitariya vrachining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar" sanqvan № 0016-21-son qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 26 iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 30) asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya gigiyena talablarini; –maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;
- oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash bo'yicha sanitariya-gigienik talablarni;
- sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasini.

4. Malaka talablari:

- kamida o'rta ma'lumotga ega bo'lishi lozim;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti bosh oshpazi eng kamida 3-razryadli oshpaz darajasiga oid maxsus kasbiy ma'lumotga ega bo'lishi zarur;
- o'z sohasiga tegishli masalalar bo'yicha axborot va ma'lumotlardan xabardor bo'lish;
- ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti oshpazi lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

- maktabgacha ta'lim tashkiloti oshxonasida bosh oshpaz boshchiligidan ishni tashkil etadi.

- taomlarni maktabgacha ta'lim tashkilotidagi taomnoma asosida tayyorlash texnologiyasiga amal qilgan holda tayyorlash;

- tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarzda taomlarni porsiyalarga bo'ladi va tarqatish;

- oziq-ovqat mahsulotlarining belgilangan tartibda saqlanishi va taomnoma asosida to'g'ri sarflanishini ta'minlash;

- taomlarni tayyorlashda mahsulotlarga dastlabki va issiqlik ishlov berishni amalga oshirish;

- turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlarining tavsifi va biologik qiymatini o'rganadi hamda organoleptik usul orqali ularning sifat ko'rsatkichlarini farqlash;

- issiqlik ishlov beruvchi, vazn o'lchovchi, muzlatgich va boshqa jihozlardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish;

- har uch yilda bir marta sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha malaka oshirish.

2. Bilishi lozim:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat sanitariya vrachining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar" sanqvan № 0016-21-son qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 26 iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 30) asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya gigiyena talablarini;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;

- oziq-ovqat mahsulotlarni saqlash bo'yicha sanitariya-gigienik talablarni;

- sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasini.

3. Malaka talablari:

- o'rta ma'lumotga ega bo'lishi lozim;

- maktabgacha ta'lim tashkiloti oshpazi eng kamida 2-razryadli oshpaz darajasiga oid maxsus kasbiy ma'lumotga ega bo'lishi zarur;

- o'z sohasiga tegishli masalalar bo'yicha axborot va ma'lumotlardan xabardor bo'lish;

- ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti oshxona ishchisi lavozimining malaka tavsiflari.

1. Lavozim vazifalari:

- maktabgacha ta'lim tashkiloti oshxonasida bosh oshpaz boshchiligidan ishni tashkil etadi.

- tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarzda taomlarni porsiyalarga bo'ladi va tarqatadi;

- oziq-ovqat mahsulotlarining belgilangan tartibda saqlanishi va taomnoma asosida to'g'ri sarflanishini ta'minlaydi;

- taomlarni tayyorlashda mahsulotlarga dastlabki va issiqlik ishlov berishni amalga oshiradi;

–issiqlik ishlov beruvchi, vazn o'lchovchi, muzlatgich va boshqa jihozlardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qiladi;

–har uch yilda bir marta sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha malaka oshiradi.

3. Bilishi lozim:

–O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat sanitariya vrachining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar" sanqvan № 0016-21-son qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 26 iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 30) asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya gigiyena talablarini;

–maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;

–oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash bo'yicha sanitariya-gigienik talablarni;

–sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasini.

4. Malaka talablari:

–amaliy ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti qorovuli lavozimining malaka tavsiflari.

1.Lavozim vazifalari:

–maktabgacha ta'lim tashkilotida binoni qo'riqlashishini tashkil etadi;

–qorovul o'zini ish kunida ma'muriyatdan bino va hovli joy eshikni qulfi, kalitlar, yong'indan saqlash asboblari, deraza eshiklari butunligi, telefon, signalizatsiya chiroqlarini tekshirib oladi va qo'l qo'yadi. Agar yuqoridagi holatlarda kamchilik bo'lsa tashkilot direktori (ma'muriyat)ga darhol yetkazadi yoki militsiyaga xabar beradi;

–tashkilot hududida yong'in chiqsa, darrov tegishli tashkilotga xabar beradi, birinchi yordamni berib turadi;

–kecha-yu kunduz hovli va binoni aylanib yuradi, chiroqlarga e'tibor beradi. Begona odamlarni tashkilot hududiga kiritmaydi;

–ertalab oshpaz (oshxona ishchi)larga eshikni ochadi, tashkilot hovlisidagi chiroqlarni o'chiradi, tashkilotni o'zidan keying qorovulga topshirib ketadi.

2. Bilishi lozim:

–maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;

–sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini.

4. Malaka talablari:

–amaliy ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti hovli supuruvchi lavozimining malaka tavsiflari

1.Lavozim vazifalari:

–davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida hovli-joylarni doimo toza turishiga javobgar. Qishda qorlarni kurash, tozalash;

–tarbiyalanuvchilarga o'yin o'ynashlari uchun ajratilgan joylarni, ayvonlarni supurib, tozalash;

–turli chiqindilarni tashlaydigan joyni tozalash;

–xo'jalik uchun kerak bo'ladigan jihozlarni yaxshi saqlanishiga qarash;

–tashkilot xodimlari va tarbiyalanuvchilar salomatligiga zarar beradigan narsa (buyum)larni tezda tozalab olishi;

–Sanitariya-gigiyena qoidalar talablariga qat'iy rioya qilishi shart, tuman (shahar) Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik markazi (SEOM) talabiga javob berishi;

2. Bilishi lozim:

–maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;

–sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini.

4. Malaka talablari:

–amaliy ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xizmatxonalari farroshi lavozimining malaka tavsiflari

1.Lavozim vazifalari:

–maktabgacha ta'lim tashkilotida o'ziga birlashtirilgan xonalarni yaxshilab tozalaydi, bir kunda ikki marta polni yuvadi, xonadagi changlarni muntazam ravishda artadi, deraza oynalarini doimo toza tutishi kerak;

–bir yilda ikki marta pardalarni yuvadi, oyda bir marta eshik va devorlarni yuvadi, gilamlarni tozalaydi.

–har kuni hojatxonadagi sochiqlarni o'zgartiradi, qog'ozlar bor yo'qligiga e'tibor qaratib, qog'oz qo'yib boradi, unitazlarni tozalaydi, xloramin bilan yuvadi, axlatlarni maxsus joyga tashlaydi;

–gullarni parvarishlab artib tozalaydi va suv qo'yadi;

–sanitariya-gigiyena qoidalar talablariga qat'iy rioya qilishi shart, tuman (shahar) Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik markazi (SEOM) talabiga javob berishi kerak.

2. Bilishi lozim:

–maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;

–sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini.

4. Malaka talablari:

–amaliy ish staji talab qilinmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti kir yuvuvchi lavozimining malaka tavsiflari

1.Lavozim vazifalari:

–maktabgacha ta'lim tashkilotidagi hamma yumshoq inventarlarni yuvadi va dazmollaydi.

Ayrim narsalarni qaynatadi;

–kir yuvishda xloramin, kir yuvish kukuni, sovun va kraxmaldan foydalanadi;

–jadvalga asosan toza narsalarni beradi, kirini olib yuvadi hamda alohida daftar tutadi (qancha kiroladi, qancha tozasini berdi), sanalarini belgilab boradi;

–kir yuvish xonasini tozaligini saqlaydi;

–yong‘indan saqlanish qoidasiga rioya qiladi. Kir yuvish mashinasini yoqib qoldirmaydi, ish faoliyatida sanitariya-gigiyena qoidalari talablariga qat‘iy rioya qilishi shart.

2. Bilish ilozim:

–maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;

–sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalarini.

4. Malaka talablari:

–amaliy ish staji talab qilinmaydi.

II BOB BO‘YICHAXULOSA

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasining maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari haqida so‘z boradi.

2. Maktabgacha ta‘lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar, bolalarni sifatli maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish ko‘lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta‘minlash, Kontsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalarga erishish vazifalari yoritiladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari to‘g‘risidagi Nizomning maqsad va vazifalari haqida bayon qilinadi.

4. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, Maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish, Maktabgacha ta‘lim tashkiloti guruhlarini to‘ldirish haqida so‘z yuritiladi.

5. Nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining binolarini qurish uchun yer uchastkalarini bepul asosda taqdim etish tartibi, Davlat mulki bo‘lgan bo‘sh turgan ob‘ektlarni, shu jumladan ishlamaydigan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining binolarini «nol» xarid qiymati bo‘yicha realizatsiya qilish tartiblari bo‘yicha bilimga ega boladi.

Nazorat savollar:

1. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori qachon qabul qilingan?

2. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari nimalardan iborat?

3. O‘zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari to‘g‘risidagi Nizomning muhimligi nimada?

4. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti guruhlarini to‘ldirish tarkibini izohlab bering?

5. Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi qachon tasdiqlangan?

6. Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini muhimligi nimada?

7. Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasining maqsadi va ustuvor yo‘nalishlarini izohlang?.

8. Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasining istiqboldagi bosqichlarni sanab bering?

Topshiriqlar.

Keyslar banki.

1-keys. Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasining mazmuni, maqsadini atroflicha yoritib bering.

Topshiriq: Ushbu Kontsepsiyasining qabul qilinishiga nima sabab bo‘ldi?

Muammo turi	Kelib sabablari	chiqish	Hal etish yo‘llari

2-keys. “Davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti to‘g‘risidagi Nizomniig maqsadini SWOT – tahlili yordamida yoritib bering.

S	Kuchli tomoni	
W	Ojiz tomoni	
O	Imkoniyatlari	
T	Xavflar	

3-keys. Tushunchalar tahlili jadvalini to‘ldiring:

tushunchalar	Mazmuni
davlat-xususiy sheriklik	?
davlat sherigi	?
filantropik faoliyat	?
davlat-xususiy sheriklik loyihasi	?
but qilinmagan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari	?
maxsus kontingent	?
otaliq	

4-keys. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim tizimiga oid nizomlar bilan ishlash.

Topshiriq: nizomlar bilan ishlash mexanizmida tutgan o‘rni ko‘rsating

III BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHGA OID ME'YORIY-HUQUQIY XUJJATLAR VA DASTURLAR BILAN ISHLASH.

§ 6. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini amaliyotga joriy etish texnologiyalari

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: davlat standarti, rivojlanish, rivojlanish sohasi, bola kompetentsiyasi, integratsiya, refleksiv faoliyat, kompetentsiya, kommunikativ kompetentsiya, o'yin kompetentsiyasi, ijtimoiy kompetentsiya, bilish kompetentsiyasi.

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta'minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020 yil 22-dekabrda 802-son qarori Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti tasdiqlandi. Davlat standarti 7 bob 3 ilovadan iborat.

Davlat standartining maqsadi — maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.

Davlat standartining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'limning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga bo'lgan sanitariya-gigiyenik talablarni belgilash;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish me'yorlarini tartibga solish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsion vositalar bilan jihozlash;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat standartining asosiy prinsiplari.

Davlat standartining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

har bir bolaning, shu jumladan, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish imkoniyatining tengligi;

davlat standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi;

maktabgacha ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

maktabgacha ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

maktabgacha ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat standartining tarkibiy qismlari

Davlat standartining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari (1-ilova);

Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi (2-ilova);

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar to'plami, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me'yorlari (3-ilova).

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishdagi gigiyenik talablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qurilish-loyihalash ishlari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablar tegishli qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasi (keyingi o'rinlarda — namunaviy o'quv reja) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning nomi, eng kam (minimal) hajmi va ularning yoshi bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Namunaviy o'quv reja maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv

REJASI

3 dan 4 yoshgacha bo'lgan guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning taxminiy soni							
T/r	Mashg'ulotlar nomi	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashtirish davri mobaynida		
		hafta mobaynida	oy mobaynida	o'quv yili mobaynida	hafta mobaynida	oy mobaynida	Sog'lomlashtirish davri mobaynida
1.	Atrofdagi olam bilan tanishtirish eksperimentlar — amaliy tajriba	1	4	36	1	4	12
2.	Tabiat bilan tanishtirish	1	4	36	o'yinlar-viktoralar	1	3

3.	Badiiy adabiyot						
4.	Nutqni rivojlantirish	1	4	36	1	4	12
5.	Sensortarbiya						
6.	Elementar matematika	1	4	36	o'yinlar	1	3
7.	Rasm chizish	2	8	72	1	4	12
8.	Applikatsiya	1	2				
9.	Konstruksiyalar tuzish	navbatma-navbat	2	36	1	4	12
10.	Plastilin, loydan yasash	1	4	36	1	4	12
11.	Jismoniy tarbiya	2 (bittasi toza havoda)	8	72	hordiq	1	3
12.	Musiq	2	8	72	hordiq	1	3
Jami:		12	48	432	5	24	72
4 dan 5 yoshgacha bo'lgan guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning taxminiy soni							
T/r	Mashg'ulotlar nomi	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashtirish davri mobaynida		
		hafta mobaynida	oy mobaynida	o'quv yili mobaynida	hafta mobaynida	oy mobaynida	Sog'lomlashtirish davri mobaynida
1.	Atrofdagi olam bilan tanishish						
	Ekspirimentlar — amaliy tajriba	1	4	36	1	4	12
2.	Tabiat bilan tanishish	1	4	36	1	4	12
3.	Nutqni rivojlantirish	2	8	72	1	4	12
4.	Badiiy adabiyot	1	4	36	viktorinalar	1	3
5.	Elementar matematika						
	mantiqiy fikrlash	1	4	36	mantiqiy o'yinlar	1	3
6.	Rasm chizish	2	8	72	1	4	12
7.	Applikatsiya	1	2				
8.	Konstruksiyalar tuzish	navbatma-navbat	2	36	1	4	12
9.	Plastilin, loydan yasash	1	4	36	1	4	12
10.	Jismoniy tarbiya	2 (bittasi toza havoda)	8	72	sport o'yinlari	1	3
11.	Musiq	2	8	72	hordiq	1	3
Jami:		14	56	504	6	28	84
5 dan 6 yoshgacha bo'lgan guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning taxminiy soni							
T/r	Mashg'ulotlar nomi	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashtirish davri mobaynida		
		hafta mobaynida	oy mobaynida	o'quv yili mobaynida	hafta mobaynida	oy mobaynida	Sog'lomlashtirish davri mobaynida
1.	Atrofdagi olam bilan tanishish	2	8	72	1	4	12

	eksperimntlar — ilm-fan						
2.	Tabiat bilan tanishish	1	4	36	1	4	12
3.	Nutqni rivojlantirish	2	8	72	1	4	12
4.	Badiiy adabiyot	1	4	36	viktorinalar	1	3
5.	Ikkinchi tilni o'rganish	2	4	36	o'yinlar	o'yinlar	o'yinlar
6.	Elementar matematika						
	mantiqiy fikrlash	1	4	36	mantiqiy o'yinlar	1	3
7.	Rasm chizish	2	8	72	1	4	12
8.	Applikatsiya	1	2				
9.	Konstruksiyalar tuzish	navbatma-navbat	2	36	1	4	12
10.	Plastilin, loydan yasash	1	4	36	1	4	12
11.	Jismoniy tarbiya	2 (bittasi toza havoda)	8	72	sport o'yinlari	1	3
12.	Musiq	2	8	72	hordiq	1	3
Jami:		17	64	576	6	28	84
6 dan 7 yoshgacha bo'lgan guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning taxminiy soni							
T/r	Mashg'ulotlar nomi	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashtirish davri mobaynida		
		hafta mobaynida	oy mobaynida	o'quv yili mobaynida	hafta mobaynida	oy mobaynida	sog'lomlashtirish davri mobaynida
1.	Atrofdagi olam bilan tanishish						
	eksperimntlar — ilm-fan	2	8	72	1	4	12
2.	Tabiat bilan tanishish	1	4	36	1	4	12
3.	Nutqni rivojlantirish	1	4	36	1	4	12
4.	Savodxonlikka o'rgatish	1	4	36	o'yinlar	1	3
5.	Badiiy adabiyot	1	4	36	viktorinalar	1	3
7.	Ikkinchi tilni o'rganish	2	4	36	1	4	12
8.	Elementar matematika						
	mantiqiy fikrlash	2	8	72	mantiqiy o'yinlar	1	3
9.	Rasm chizish	2	8	72	1	4	12
10.	Applikatsiya						
11.	Konstruksiyalar tuzish va qo'l mehnati	1 navbatma-navbat	2	36	1	4	12
12.	Plastilin, loydan yasash	1	4	36	1	4	12
13.	Jismoniy tarbiya	2 (bittasi toza havoda)	8	72	sport o'yinlari	1	3
14.	Musiq	2	8	72	hordiq	1	3
Jami:		18	68	612	7	33	99

Bolalar bilan qisqa muddatli guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning taxminiy soni

T/r	Faoliyat turlari	O'tkazish davriyligi
1.	Bolalarning erkin, mustaqil faoliyati	Har kuni
2.	O'yin faoliyati	Har kuni
3.	Tasviriy faoliyat	Haftasiga 2-marta
4.	O'rganuvchi tadqiqiy faoliyat (atrofdagi olamni anglash)	Haftasiga 2-marta
5.	Tabiat bilan tanishuv	Haftasiga 1-marta
6.	Matematika	Haftasiga 2-marta
7.	Musiq	Haftasiga 2-marta
8.	Jismoniy madaniyat	Haftasiga 2-marta
9.	Nutqni rivojlantirish	Haftasiga 1-marta
10.	Savodxonlikka o'rgatish	Haftasiga 1-marta
Jami		15 soat

Davlat standartini joriy etish

O'zbekiston Respublikasida davlat standartini joriy etish, muvofiqlashtirish, unga metodik rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat standart talablariga rioya etilishini nazorat qilish

Davlat standart talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat standartida belgilangan talablarni bajarish darajasini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat standart talablariga rioya etilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan quyidagicha amalga oshiriladi:

ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari ijrosi;

maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat o'quv dasturining bajarilishi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va xavfsiz ovqatlanirishni tashkil etishga bo'lgan gigiyenik talablarga rioya etilishi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurishda idoraviy qurilish me'yorlariga rioya etilishi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar to'plami, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablariga rioya etilishini tahlil qilish.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

ichki nazorat — davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari hamda maktabgacha ta'limni boshqarish bo'yicha yuqori turuvchi tuman (shahar)

maktabgacha ta'lim bo'limlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi;

tashqi nazorat — qonun hujjatlarida belgilangan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi;

jamoatchilik nazorati — mahalla va qishloq fuqarolar yig'inlarida tashkil etiladigan jamoatchilik komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

milliy va xalqaro darajada baholash — hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar talablari asosida maktabgacha ta'lim boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar, jumladan, xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Yakunlovchi qoida

Davlat standarti talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

§ 7. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy jihatdan shakllangan etib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda albatta zamon talabiga mos keladigan Davlat talablarini yangi, qo'shimchalar kiritilgan variantini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. SHulardan kelib chiqqan xolda, bir qator olim va tajribali amaliyotchilar ishtirokida ushbu Davlat talablari yaratildi. ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari 5 bob 2 ilovadan iborat

Davlat talablari O'zbekiston Respublikasi hududida tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, quyidagi ta'lim tashkilotlariga nisbatan qo'llaniladi:

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo'lgan "Mehribonlik" uylari va "Bolalar shaharchalari".

Maktabgacha ta'lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim turlari bo'yicha pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshiradigan tashkilotlar, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olayotgan oilalar davlat talablariga rioya qilishlari lozim.

Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

maktabgacha ta'lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon;

rivojlanish — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;

rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;

kichik soha — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

kutilayotgan natija — bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

bola tarbiyasining majmui — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakasi hamda qadriyatlar;

integratsiya — bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

inklyuziv ta'lim — bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

refleksiv faoliyat — bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni;

“Men” konsepsiyasi — bolaning o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatining bir qismi.

Davlat talablarining maqsadi va asosiy vazifalari

Davlat talablarining maqsadi — mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash.

Davlat talablarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

Davlat talablarining asosiy prinsiplari

Davlat talablari quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

bolaning noyobligi;

“Men” konsepsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol roli;

bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;

bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;

bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashish.

Davlat talablarining tarkibi.

Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini nazarda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi.

Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalarga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iborat.

Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi:

jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

bilish jarayonining rivojlanishi;

ijodiy rivojlanish.

“Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

yirik motorika;

mayda motorika;

sensomotorika;

sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

“Men” konsepsiyasi;

hissiyotlar va ularni boshqarish;

ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

“Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

nutq va til;

o'qish malakasi;

qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

intellektual-anglash malakalari;

elementar matematik malakalar;

tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

“Ijodiy rivojlanish” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

dunyoni badiiy tasavvur etish;

badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha);

erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);

kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);

o'rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);

katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);

maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar mazkur Davlat talablariga 1-ilovada belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar mazkur davlat talablariga 2-ilovada belgilangan.

Yakunlovchi qoida

Mazkur Davlat talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga

1-ILOVA

Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilayotgan TALABLAR

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI		
Kichik soha: Yirik motorika		
Talab: Bola o'z tanasi va uning a'zolarini boshqaradi, maqsadli to'g'ri harakatlanadi		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
boshi va ko'kragini ko'taradi; orqasidan qorniga va qayta o'giriladi; yordamisiz o'tiradi; oyoqlarini izlaydi va topib, og'ziga tortadi; turli yo'nalishlarda emaklaydi; to'rt oyoqlab harakatlanadi; tirkakka suyangan holda oyoqda turadi; kattalar yordamida va yordamisiz oyoqda turadi; yura boshlaydi; kichik to'siqlar ustidan xatlab o'tadi.	kattalar yordamisiz turli yo'nalishlarda yuradi; tizzasiga o'tiradi; yuguradi; engashib o'yinchoqlarni oladi; zinapoyadan yuqoriga qadam-qadam ko'tariladi.	bir oyoqda turib muvozanatni saqlaydi; mustaqil zinapoyadan ko'tariladi va tushadi; tepalikdan sirg'anib tushadi; ikki oyoqlab bir joyda sakraydi, oldinga siljib sakraydi; kichik to'siqlar ustidan sakrab o'tadi; yopiq eshikni ochadi, eshikdan kiradi va chiqadi; uch oyoqli velosipedda uchadi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
bolani sevimli o'yinchoq'ini yaqiniga emaklab kelishini rag'batlantirish; bola o'tirgan holatdan yotgan holatga tushishi va ko'tarila olishi uchun yumshoq joyni ta'minlash; bolani qorindan orqasiga aylanishini va qorniga o'girilishini rag'batlantirish; "men tomon emakla", "o'tir" ko'rsatmalari orqali bola bilan hamkorlikda o'yinlar tashkil qitish; bola xatlab o'ta olishi uchun uni "past predmetlar" bilan ta'minlash; vazifani murakkablashtirish maqsadida predmetlar sonini (masalan, kubiklarni) asta-sekin ko'paytirib borish; bola qiziqayotgan predmetga emaklab yoki xatlab yetishishi	bolaga tortish, cho'zish, ko'tarish imkonini beruvchi predmetlarni taklif qilish; bola bilan qo'l va oyoqlarni harakatlantirib va xirgoyi qilib o'ynash; bola erkin harakatlanishi uchun xavfsiz va mustahkam muhit yaratish; bolaga aravacha, otchalar, kubiklar, yirik o'yinchoq mashinalar bilan o'ynashni o'rgatish; bola bilan to'g'ri yo'nalishda yurish, yugurish, emaklash, predmetlarni otish/ilib olish imkoniyatini beradigan o'yinlar o'ynash; ertalabki badantarbiyani ochiq	bolaning harakat tajribasini turli xil jismoniy mashqlar bilan boyitish; bola bilan yo'nalishini topishi va bo'sh joyda harakatlanishi uchun harakatli o'yinlar o'tkazish; bolaga kichik tepalikka chiqish va tushishida ko'maklashish; bolalarni harakat faolligini tashkil etishda jamoaviy shakllarga jalb etish; tanish harakatlarni birgalikda oson va erkin, bir maromda va kelishgan holda bajarish; polda turli kataklar, yo'lakchalar, doirachalar chizish hamda bolaga quvonch va xursandchilik

0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
predmetlarni ushlaydi; predmetlarni bir qo'lidan ikkinchi qo'lga oladi; bir vaqtda bir necha predmetlarni qo'lida ushlaydi; barmoqlari bilan turli o'yinchoqlarni aylantiradi; oddiy o'yinchoqlarni bo'laklarga ajratadi va yig'adi; qarsak chaladi; qo'lini silkitadi.	ko'pincha bir necha varaqni o'tkazib, kitob betlarini varaqlaydi; predmetlarni teradi va birlashtiradi (piramida va hokazo); predmetlarni burab qo'yadi va burab oladi; "barmoqlar o'yini"ni o'ynaydi.	5 — 7 halqali piramidani bo'laklarga ajratadi va yig'adi; teshik shakliga mos keladigan yassi va hajimli shakldagi predmetlarni joylashtiradi; halqaga arqonni o'tkazadi; katta hajimli sodda mozaikalarni yig'adi; oson qurilish konstruksiyalarini quradi; kattalar yordamida yirik munchoqlarni ipga o'tkazadi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
har bir harakatni aniq tushuntirgan holda harakatni ko'rsatish; qurilmalar bilan o'ynash; bolaga o'yinchoqlar berib, ularni o'rganib chiqishiga imkoniyat berish; bolaga xavfsiz predmetlar, shaqildoglar, kichik piramidalar va boshqa predmetlarni kattalar nazorati ostida tanlashi va saralashi uchun berish.	bolaga, ochish/yopish mumkin bo'lgan uy-ro'zg'ordagi o'yinchoq va predmetlarni taqdim etish (sinmaydigan qopqoqli bankalar, kastryullar).	bola bilan muntazam shug'ullanish: hamkorlikda hayvonlarni, uy-ro'zg'or buyumlarini (likopcha, piyola, qoshiq) loydan yoki plastilindan yasash, ushbu barcha predmetlarni chizish; qumdonga bola bilan o'ynash, qumdonga kichkina o'yinchoqlarni bekitish mumkin, bola esa ularni o'zi qidiradi; qo'llar mayda motorikasining sensomotor muvofiqligini rivojlantirish uchun bog'lash o'yinlarini o'tkazish; bolaga kubiklarni yig'ish, qulflarni yopish va ochish imkoniyatini berish va h.k.
Kichik soha: Sensomotorika		
Talab: Bola sezgi organlari yordamida o'z harakatlarini boshqarishga qodir		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
muhitni qo'llari va og'zi bilan o'rganadi; predmetlarni bir-biriga uradi; qarsak chaladi; qiziqitrayotgan obyektga intiladi.	yoqtirgan taomi va boshqa buyumlarga qo'lini cho'zadi; likopchani (piyola) ushlaydi va undan ichadi; suvni bir idishdan boshqasiga to'kadi; ikki qo'li bilan koptokni irg'itadi; koptokni dumalatadi va otadi; oyog'i bilan koptokni itaradi; ipga bog'langan aravacha yoki mashinani boshqaradi.	koptokni boshqalarga dumalatadi; kattalarga koptokni otadi; tortilgan arqon ustidan koptokni otadi; piramidani rangi, shakli va kattaligiga qarab yig'adi; tanish sabzavot va mevalarning ta'mini aniqlashi mumkin; past va baland ovozlarni ajratadi; qo'l va oyoqlarini bir maromda uyg'un harakatlantiradi.

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLİYAT		
ovqatlanish va tamaddi qilishning aniq vaqtini belgilab qo'yish; bolaga quti berish va o'yinchoqlarini unga yig'ishini iltimos qilish; bolaga sevimli taomlarini taklif qilish; bolaga u ko'rayotgan narsasi va harakat o'rtasidagi bog'liqlikni anglashiga ko'maklashish ("Qara, koptok dumalayapti, bor, uni tutib ol"); bolaning har bir muvaffaqiyatini rag'batlantirish.	bolaga bir necha taomdan birini tanlash imkonini berish; bolani kun mobaynida mustaqil piyoladan ichishini rag'batlantirish; bolaga sezgisi bilan harakatlarni birlashtiruvchi jismoniy mashqlar imkonini taklif qilish (soylar o'yini, oyoqlar bilan chizish, signal bo'yicha harakat); turli material va turli shakldagi predmet va o'yinchoqlarni taklif etish va ularning nomini aytish.	bola bilan doimiy muloqotda bo'lish, u bilan o'ynash, u kublarni, piramidalarni, matreshkalarni qismlarga ajratish, yig'ish, predmetlarni qutilarning mos keladigan teshigiga kirgizish; salatlar tayyorlayotganda, bolaga sabzavotlarni tatib ko'rib, ta'mi va hidiga qarab aniqlash imkonini berish; "Sekin va baland", "Nima jaranglayotganini aniqla!", "qadam tashlaymiz va raqsga tushamiz", "Nimani eshityapsan?" kabi o'yinlarni o'ynash.
JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI		
Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik		
Talab: Bola salomatlikni saqlash ko'nikmalarini namoyon qiladi, xavfsiz sog'lom ovqat va hayotni saqlash qoidalariga haqida tushunchaga ega		
tug'ilgandan-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
yaxshi ishtaha va uyquga ega; qoshiq bilan mustaqil yeyishga harakat qiladi; qo'lining barcha barmoqlarini qo'llab gubkani siqadi; yuzi, og'zi va qo'llarini artadi; butilkadan ichadi; cho'milayotganda suvni sachratadi.	kattalar yordamida tishlarini tish cho'tkasi bilan tozalaydi; mustaqil yuzi, og'zi va qo'llarini artadi; kiyimini echishga harakat qiladi; stol va pollarni artishga taqlid qiladi.	qo'lini sovun bilan ishqalaydi, ko'pigin yuvadi va sochiqqa artadi; mustaqil qoshiq bilan taomlanadi; qo'l sochig'idan (salfetkadan) ovqatlanish jarayonida foydalanadi; suv muolajalariga ijobiy munosabat bildiradi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLİYAT		
bola bilan birgalikda jo'mrakdan oqayotgan suvni kuzatish; qo'l yuvish jarayonini ko'rsatish; bolaga sovun berish, undan qanday foydalanishni ko'rsatish, hidlab ko'rish imkoniyatini berish, rangiga bolaning e'tiborini qaratish; cho'milash vaqtida gubka, mayda o'yinchoqlar va ko'pik bilan o'yinlar tashkil qilish.	bolaga qanday qilib tishni tozalash va og'izni chayish kerakligini ko'rsatish; bolaning urinshlarini rag'batlantirish; suv nimaga kerakligini tushuntirish; jarayon vaqtida turli she'rlardan foydalanish; cho'tka bilan ishqalagandan so'ng kir joy qanday tozalanishini namoyish qilib berish.	bolalarni mustaqil harakatga o'rgatish; bolalarni to'g'ri ovqatlanishga o'rgatish; bolaga organizm uchun nima foydali, nima zarar ekanligini tushuntirish; salomatlikni saqlash va mustahkamlashda shaxsiy namuna ko'rsatish.
Kundalik hayotda, jamiyatda, tabiatda xavfsiz yurish-turish asoslarining shakllanishi.		
Tug'ilgandan 3 yoshgacha		
Bola hali juda kam tajribaga ega bo'lganligi sababli: bolani qarovsiz qoldirmaslik va jarohatlanishning oldini olish; o'yin va mustaqil harakat mobaynida doimiy ravishda bolaning kayfiyatini kuzatish; sokin va do'stona ohangda gapirish; bolaga o'yinchoq tanlashda ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga rioya qilish lozim.		

UTTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH		
Kichik soha: "Men" konsepsiyasi		
Talab: Bola o'zini o'z xususiyatlariga ega, ijobiy shaxs sifatida qabul qiladi. Bola mustaqil va o'ziga javob beradi		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
o'z ismiga munosabat bildiradi, ishora va tovushlar bilan javob beradi; ayrim tana a'zolarini ko'rsatadi (boshi, qo'li, oyog'i, burni); ko'zguda o'z aksiga kuladi; kattalar e'tiborini turlicha o'ziga tortadi; istagan natijaga erishganda xursandchilikni ifodalaydi yoki norozilik bildiradi, injiqlanadi.	ko'zguda, rasmda o'zini taniydi, o'z ismini biladi; kattalar talabi bilan uning istagi to'g'ri kelmaganda e'tiroz bildiradi; kattalar tomonidan o'zining harakatlariga bildirilgan rag'bat va tanbehni farqlaydi.	o'zi va buyumlari haqida so'zlaydi (bu meniki); hamma ishni o'zi bajarishga intiladi; o'zing bajargan ishga sevinadi; o'z narsalarini taniydi; o'zini aniq bir jinsga mansubligini biladi; biror-bir ishni mustaqil bajaradi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLİYAT		
bolani ismi bilan chaqirish; bolaning tana a'zolarini ko'rsatish va nomini aytish; bolaga ko'proq tabassum bilan qarash, u bilan birgalikda ko'zguga qarash; turli vaziyatlarda bolaning hissiyotlarini ta'riflab o'tish ("Zarina ayiqcha kelganiga xursand bo'lyapti", "Shahzoda charchadi, uyqusi kelyapti"); bolaning harakatlariga ko'ra munosabatni bildirish.	bolaga o'zini ijobiy baholashida ko'maklashish: "men — yaxshi", "men tirishqoq"; bolani boshqalar bilan bo'lashishga o'rgatishni boshlash; "o'g'il bolalar — kuchli", "qiz bolalar — muloyim" kabi stereotiplardan qochish; "man etiladi" va "...mumkin emas" iboralaridan voz kechish; bolaga noto'g'ri harakatlar oqibatini tushuntirgan holda uni yo'naltirish ("Qum ko'zingga tushsa, ko'zing og'riydi").	bolani boshqalar bilan muloqotda o'zini tanishtirishga odatlantirish; bolani yutuqlari uchun albatta maqtash, yutuqlar kichikroq bo'lsa ham; bola bosh bo'ladigan holatlarni tashkil etish; tanbeh berishdan o'zini tiyish.
UTTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH		
Kichik soha: Hissiyotlar va ularni boshqarish		
Talab: Bola boshqalarning his-tuyg'ularini farqlashi va o'zini ifodalashga qodir		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
atrofdagilar kayfiyatini so'zlashuv ohangiga qarab aniqlaydi (onam xursand bo'lyapti, bobomning jahli chiqyapti); qarak chaladi, xursand bo'ladi, biron-bir tovush yoki harakati atrofdegilarga ta'sir qilishini anglasa, ushbu tovush va harakatlarni qaytaradi.	kattalarning unga munosabatidan o'z hissiyotlarini, taassurotlarini namoyon qiladi; hayrat, zavq, qo'rqinchni ifodalaydi; mustaqil o'yin harakatlari bilan bog'liq bo'lgan quvonchni (xafalikni) ko'rsatadi.	muloqotda ochiq, ijobiy emotsional ruhiyat ustun, atrofdegilarga asossiz tajovuzkorlik ko'rsatmaydi; boshqalarga achinadi, qayg'uradi; boshqa odamning emotsional holatini tushuna boshlaydi va shunga mos munosabat bildiradi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLİYAT		
bolaning har bir yutug'ini maqtash va qo'llab-quvvatlash; o'yinchoqlarga ovoz berib, turli hissiyot va harakatlarni tanish imkoniyatini berish; bolaning ijobiy holatni	bola bilan u bilan bog'liq bo'lgan turli vaziyat va hissiyotlarni muhokama qilish; bolaga rad javobi berilishi sababini tushuntirish; bolaning jahli chiqqanda, xafa	bola bilan suhbatda hissiyotlarni ta'riflovchi so'zlarni qo'llash; multifilm qahramonlarining yorqinligini tahlil qilish; hissiyotlarni ifodalovchi so'zli o'yinlardan foydalanish.

yaratish va har kuni bola bilan o'ynash; o'yin vaqtida bolaga o'ziga ishonch hissini oshirish uchun yaqin turishga harakat qilish va barcha birgalikda bajarilayotgan harakatlarni bolaga aniq va lo'nda tushuntirish; baland tovush va shovqinlarni cheklash.	bo'lganda yoki o'zini yomon his etganda yonida bo'lish.	kayfiyat va his-tuyg'ular haqidagi hikoyalar va she'rlarni o'qish.
IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH		
Kichik soha: Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot		
Talab: Bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishga qodir		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
salomlashadi, munosabat bildiradi, xayrlashayotganda qo'lini silkitadi; boshqa bola harakatini kuzatadi, kuladi yoki bog'lanishsiz gapiradi; kattalarning ko'p murojaatlariga javob beradi, biroq ba'zilarini e'tiborga olmaydi.	kattalar harakatiga taqlid qilishga intiladi; tovushi yoki harakati bilan boshqa bolaning diqqatini o'ziga tortadi; boshqa bolalar bilan o'yinda qatnashadi; turi harakatlarni bajarib, hayvonlar harakatini o'xshatib harakatli o'yinlarda ishtirok etadi.	kattalar harakatiga taqlid qiladi; kattalarni birga o'ynashga jalb qilishga intiladi; tengdoshlari yonida o'ynaydi; boshqa bolalar bilan o'yinchoqlarini bo'lishadi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
bolaga harakatlar namunasini ko'rsatish (salomlashish, xayrlashish); bolani kattalar murojaatiga javob bergani uchun maqtash; ochiq havoda boshqa bolalar bilan birgalikda sayr tashkil etish; harakatlarni so'zlar bilan qo'shib olib borish.	bolaga o'yin yoki harakatning umumiy qoidalarini tushuntirish ("Biz qumni o'ynaymiz, lekin qumni sochmaymiz"); tengdoshlar bilan birgalikdagi faoliyatga jalb qilish	bola bilan o'yin mobaynida boshqalar bilan hamkorlik qilishni shaxsiy namuna asosida namoyish etish; muloqot jarayonida chegara belgilash; bolani boshqa bolalar bilan taqqoslamalik.
NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YoZISH MALAKALARI		
Kichik soha: Nutq va til		
Talab: Bola nutqni tinglash va tushunishga, gapirish va muloqot qilishga qodir		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
ba-ba, ma-ma, bu-bu va boshqa bo'g'lini talaffuz qiladi; bolalar qo'shiqlari, ovutmachochlar, ertaklar, qisqa va sodda hikoyalarni tinglaydi; nomi tilga olingan obyekt tomon qaraydi ("Oyisi qani..."); yorqin rasmlar kitobchalarni ko'rishga qiziqish bildiradi.	kundalik hayotda bajariladigan harakatlarni anglatuvchi so'zlar ma'nosini tushunadi; o'rindosh so'zlarni qo'llaydi; kattalar ketidan yengil so'zlarni qaytaradi; kattalar nutqiga taqlid qiladi; kitoblarni o'rganadi.	istak va iltimosni ifoda etadi; kattalar nutqini to'g'ri tushunadi; kattalarning oddiy topshiriqlarini bajaradi; harakatlarni nutq bilan birga olib boradi; so'zlardan foydalanadi; kitob o'qib berishlarini so'rashi mumkin; rasmlar bo'yicha kitobni taniydi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
bolani parvarishlash jarayonida (emizish, cho'miltirish, uxlashga	bolaga kitob o'qib, turli hikoya va ertaklarni so'zlab berish;	bola bilan muloqot vaziyatlarini yaratish, savollar berish;

yotqizish) u bilan gaplashish, tana a'zolari, kiyim, buyumlar nomini aytib;	sayr davomida ko'rgan narsalarni muhokama qilish (kuchuk yuguryapti, bolakay maktabga ketyapti);	bolaga topshiriqlar berish, masalan, "qiyom uchun likopcha olib kel", "qizil qalamni ol", "kichik ayiqchaga qo'shiq aytib ber";
bolaga turli hikoyalar, ertaklar aytib berish, birgalikda yorqin kitoblarni tomosha qilish va bolani diqqat bilan tinglashga qiziqitirish;	bola bilan birga kitob do'konlari va kutubxonalarga borish;	bolaning so'z boyligini turli didaktik o'yinlar, kuzatuv va tomoshalar orqali boyitib bo'lish;
bola bilan muloqot mobaynida unga savollar berish va ma'nosi bo'yicha to'g'ri javobni takrorlashga undash.	televizor ko'rish va elektron texnika qo'llashni chegaralash.	kitob xarid qilishda bolaga tanlash imkonini berish.
NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YoZISH MALAKALARI		
Kichik soha: Qo'l barmoqlari mayda motorikasi		
Talab: Bola asosiy harakatlarni egallagan, qo'llarning mayda motorli ko'nikmasiga ega		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
turli yuzalarda barmoqlari bilan guush(bo'y) yordamida chizadi (oyina, sellofan, qog'ozda).	ishlatayotgan buyumlarini barmoqlari bilan ushlaydi; (qalam, mo'yqalam, marker) betartib chiziqlarni chizadi.	turli erkin chiziqlar va noaniq aylanalarda chizadi; turli yuzalarda turli shakllar chizadi; o'z ismining yozuvini taniydi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
bolani rasm yaratish uchun barmoqlaridan foydalanishga rag'batlantirish.	bolaga yirik harflarni taklif etish, ushbu harflarni qum orasiga bекitib birgalikda izlash; harflar shaklidagi pechenyelarni xarid qilish; stikerli kitoblardan foydalanish; bola soch o'rishga o'rganishi uchun sochli qo'g'irchoqlardan foydalanish.	bolaga echinish va kiyinish ketma-ketligini ko'rsatish; bola bilan turli topshiriqli o'yinlar o'ynash; stolga qoshiqlarni qo'yish, non idishni olib kelish; bola bilan chizish, qirg'ich, yopishtirish va yelimlash; qum, xamir va shakllar bilan o'ynash; bolani kichik yutuqlari uchun doim rag'batlantirish.
ILILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI		
Kichik soha: Intelktual-anglash malakalari		
Talab: Bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
o'z o'yinchoqlarini tekshirish(o'rganish)ni boshlaydi; og'ziga soladi, uloqtiradi bo'laklarga bo'ladi, taqillatib ko'radi, ikkitasini bir-biriga uradi va chiqayotgan tovushni tinglaydi; biror-bir tovushni atrof muhit bilan bog'laydi (masalan, mushukni "myau" bilan, kuchukni "vov" bilan) atrofidagi obyektlarni kuzatadi.	rasmdagi predmetlarni taniydi; tabiat hodisalarini qisqa muddat ichida kuzatadi; ayrim sabzavot va mevalarni biladi va farqlaydi; hasharotlar (chuvalchaglarni tegib ko'radi, chumolini kuzatadi), hayvonlar (uy hayvonlariga qaraydi, ularni ko'rsatadi), o'simliklar (gullarni yuladi, barglarni to'playdi) bilan qiziqadi.	tana a'zolarini ko'rsatadi va ularning funksiyasini biladi; predmetlarning taktil xususiyatlarini biladi (yumshoq, qattiq, dag'al, silliq); predmetli rasmlar orqali jonli tabiat obyektlarining nomini biladi (hayvonlar, o'simliklar, qushlar); tabiatning ayrim hodisalarini farqlaydi (yomg'ir, qor).
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
bolaga turli obyektlarni boshqarish imkonini berish;	bola bilan toza havoda, fermada (uy hayvonlari), hayvonot bog'ida sayr qilish;	turli fakturali predmetlarni ushlab ko'rishni va nomini aytishni taklif qilish;

jamlashga qiziqitirish — qo'g'irchoq kiyimi qo'g'irchoqqa mos kelishi, bolaga atrofdagi yangi narsalarni ko'rsatish va uning munosabatini kuzatish; yangi obyektlarni qo'llagan holda bola bilan o'ynash; turli hayvonlar turli tovushlar chiqarishini namoyish qilish.	ob-havo va hissiyotlar haqida so'zlashish; yomg'ir yoki qor vaqtida bola bilan qor parchalari yoki yomg'ir tomchilarini kuzatish; ko'lmakka sakrash, qordan shakl yasash; varrak uchirish, biror-bir obyektini uzoq kuzatish.	barglar, cho'plar, toshlar yig'ish; hududda qush va hasharotlarni, akvariumda baliqlarni, ariqda yoki ko'lmakda suv harakatini kuzatish; tabiat hodisalarini kuzatish, qor, ko'lmak, quyoshli quyunchalar, qum, suv va soya bilan o'ynash.
---	---	--

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Elementar matematik malakalar

Talab: Bola boshlang'ich matematik malakalarga ega

0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
predmetlarni katta va kichikka ajratadi.	miqdorni "bitta" va "ko'p"ga ajrata oladi.	predmetlarni rangi va shakliga qarab farqlaydi; predmetlarni kichigidan kattasiga qarab bir qator qilib joylashtiradi; shakllarning o'ziga mosini topadi (Segen doskasi).

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

turli o'lchamdagi kubiklarni oling va ularni katta va kichikka ajratishni ko'rsatish; bolaga raqamlar yozilgan kartochkalarni ko'rsatish; bolani sensor tariyasini boyitish maqsadida qo'lini ushlab turli shakllar ustidan yurgizish (boshi dumaloq, ko'zi kichkina).	bolaga predmetlarning hajmi, og'irligi va uzunligini ta'riflab borish; bolaga sayr davrida elementar matematik savollar berish: "Biz qancha zinapoyani bosib o'tdik? Senda nechta o'yinchoq bor?" bolani matematik bilimlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyatga jalb qilish ("Menga bitta piyola olib kel, ikkita pechenye ber").	bola diqqatini bir-biridan farq qiladigan o'lchamdagi predmetlar va ularning nomlanishiga qaratish (katta-kichik); predmetlarni shakli bo'yicha ajratish va nomini to'g'ri aytish malakasi shakllanishiga ko'maklashish (kubik, g'isht, shar); bolada atrof olamni amaliy o'zlashtirish tajribasi o'rnatishiga ko'maklashish; yotoqxona, mehmonxona, o'yin xonasi va boshqa xonalarni ajratishga o'rgatish; bola bilan birgalikda zinapoyalarni, qarsak va boshqalarni sanash.
--	---	--

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat

Talab: Bola o'zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qiladi, fanni o'rganishda faol

0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
o'yinchoqlar va predmetlar bilan tajriba o'tkaza boshlaydi (ushlaydi, chiqaradi, bir-biriga joylashtiradi, bosadi, ochadi); bo'sh piyolani oladi va unga suv yoki sharbat quyib berishni so'raydi; predmetlar yoki insonlarning ko'zdan g'oyib bo'lishi va paydo bo'lishiga munosabat bildiradi.	boshqalarning harakatini yoki tushib ketgan predmetni kuzatadi; quvonch yoki qoniqish hissinin baxsh etuvchi harakat va tovushlarga erishish uchun predmetlar bilan harakatlanadi; harakatlarga taqlid qiladi yoki boshqalar imo-ishorasini	yaqin atrofdagi predmetlarni farqlaydi (o'yinchoqlar, idish-tovoqlar, kiyim, poyabzal, mebel); ayrim uy va yovvoyi hayvonlarni biladi; ayrim sabzavot va mevalarni farqlaydi kattalar yordamida qurilmalar

	takrorlaydi.	quradi; o'z qurilmasi atrofida o'yin tashkil etadi; predmetlarni tegishli muhitga joylashtirishni biladi (jirafni hayvonot bog'iga, mashinani garajga).
--	--------------	---

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

bolani o'yinchoqlar bilan o'ynashdagi mustaqilligini qo'llab-quvvatlash; bolaga tajriba o'tkazish uchun turli materiallarni turli miqdorda berish; piyolani olish, bolaga ichi bo'shligini ko'rsatish, biror-bir suyuqlik bilan to'ldirish va bolaga ichi to'lganligini tushuntirish.	bola bilan xirgoyi qilib, tovushlar chiqarib, imo-ishoralarni bilan o'ynash; bolaga shakli, rangi, og'irligi turlicha bo'lgan o'yinchoq va predmetlarni berish; bola harakatiga munosabat bildirish; o'zgarishlar jarayonini ko'rsatish (puflash, sovun ko'piklarini chiqarish); u bilan to'kilgan barglar ustida yurish, oynalarda tajribalar ko'rsatish.	yaqin atrofdagi predmetlarning nomini to'g'ri aytish (o'yinchoqlar, idish-tovoqlar, kiyim-kechak, poyabzal, mebel); predmetlar rangi, hajmi va qanday materialdan qilinganligini ko'rsatish va tushuntirish (qog'oz, daraxt, mato, loy); hayvonlar haqida oddiy dalillarni keltirish; mustaqil qurish istagini qo'llab-quvvatlash.
---	--	--

IJODIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Dunyoni badiiy tasavvur etish

Talab: Bola turli xil san'at vositalaridan foydalanib, dunyoni his etish va tushunishini namoyish etadi

0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
mutolaa davomida rasmi bolalar bildiradi; she'rlarni tinglaganda kattalar ketidan harakatlarni qaytaradi (boshini qimirlatadi, qarsak chaladi); yorqin rangdagi rasmlarga e'tiborini qaratadi.	musiqa, tovushlarga munosabat bildiradi; bolalar kitoblarini varaqlaydi va undagi tanish ertak qahramonlarini biladi; kiyimdagi rasmlarga e'tiborini qaratadi; multfilm tomosha qiladi rasm chizish uchun ranglarni tanlaydi.	sevimli kitobi va rasmlarni taniydi; ertaklardagi jarayonga o'z hissiyotlarini bildiradi; bo'yoq va mo'yqalam haqida bazaviy tushunchaga ega; loy va plastilindan foydalanadi; sevimli qo'shiqlarni tinglaydi; bolalar musiqiy instrumentlarini chaladi; teatrga qiziqish bildiradi; o'ziga moslab kiyim tanlaydi.

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

bolaga kitobning bir qismini emas, balki rasmlarni namoyish etgan holda biror-bir to'liq voqeani o'qishga harakat qilish; bolaga emotsional, hayvonlarga taqlid qilib, o'qish; bolani ijobiy hissiyotlarga undab o'qish; bolaga turli xavfsiz ijodkorlik predmetlarini berish; mumtoz musiqani qo'yish.	bolaga tomosha qilish uchun mo'ljallangan predmetlarni o'ziga jamlagan ish joyini tashkil qilib berish; bolaga chiroyli manzaralar tasvirlangan diskarni namoyish etish va ularni bola qo'li yetadigan joyda saqlash; bolalar bayrami va tadbirlarida ishtirok etish.	bolaga hayvonlarni o'xshatib, his-tuy'g'u bilan o'qish; bolaning musiqa bilan bog'liq faoliyatini qo'llab-quvvatlash (fonli mumtoz musiqa, bolalar qo'shiqlari); mahorat darslari, bayram, xalq sayllarida ishtirok etishni davom ettirish.
---	---	---

IJODIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Badiiy-ijodiy qobiliyatlar

Talab: Bola atrofdagi borliqni ijodiy o'zgartirish malakasiga ega

0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
musiqa tinglash mobaynida tanasi bilan raqs harakatlarini bajarishga intiladi; chiroyli predmet va narsalarga e'tibor qaratadi.	kattalar yordamida ovutmacholrar yodlaydi; chizilgan tasvirlarni barmoqlari bilan yurgizib chiqadi; sodda tasviriy shakllarni qo'li va barmoqlari bilan chizadi; qum yoki loyni ezig'laydi; sodda raqs harakatlarini bajaradi (qarsak chaladi, oyoqlari bilan harakatlanadi va hokazo); avval tinglagan musiqalarni taniydi.	o'z yoshiga monand she'rlarni aytadi; ovutmachol va to'rtliklarni aytayotganida imo-ishoralarni bildiradi; namuna asosida tegishli ranglarni tanlaydi; oddiy san'at shakllarini bo'yaydi; loy yoki plastilindan shakllar yasaydi; so'ralgan obyekttni kubiklardan saydi; sodda pazl va mozaikani yig'adi; musiqa tinglaganda raqsga tushadi; boshqa bolalar bilan birgalikda qo'shiq aytadi; ritmga mos harakatlanadi; musiqa asosida so'ralgan harakatlarni bajaradi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
bolaga quvnoq musiqalar qo'yish va birgalikda raqsga tushish; musiqaga monand qanday qarsak chalishni ko'rsatish; musiqaga monand oyoq va qo'llar bilan qanday harakatlanishni ko'rsatish; alla aytish; bolani chiroyli did bilan kiyintirish va kiyim detallariga bolaning diqqatini qaratish.	bola tasavvurini rivojlantiruvchi muhit yaratish; bolaning musiqiy faolligini rivojlantiruvchi bolalar qo'shiqlarini eshittirish; bolani taom tayyorlash, xonalarni bayramga tayyorlash jarayoniga jalb qilish; turli tabriknomalarni tomosha qilish, do'kon va salonlarda kompozitsiya yaratayotgan ishchilar faoliyatini kuzatish	bolaga mustaqil ishlashi uchun turli tabiiy materiallar, bo'yoq, yelim, qalam va plastilin va hokazolardan tashkil topgan ish joyini tashkil etish; bolani chizishga rag'batlantirish; bola atrofidagi o'yinchoqlar, predmet va materiallarni vaqti-vaqti bilan o'zgartirib turish; bolani tasavvurini qo'llagan holda biror-bir ertak qahramoni bo'lishga undash.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga
2-ILOVA

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilayotgan
TALABLAR

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI			
Kichik soha: Yirik motorika			
Talab: Bola o'z tana a'zolarini boshqaradi, maqsadli to'g'ri harakatlanadi			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
turli usullar bilan yuradi (to'g'ri, erkin, ko'rsatilgan yo'nalishda); kolonna, doira bo'lib saflana oladi; muvozanatni saqlab yuguradi;	oyoq uchida, tovonida, oyoq kaftlarining yon tomoni bilan va tizzalarini yuqori ko'tarib yuradi; arqon ustida muvozanat saqlab yuradi;	oyoqlarini uchidan tovoniga almashtirib yuradi; to'siqlarni aylanib yoki xatlab o'tadi; gimnastika skameykasi muvozanatni saqlagan xolda, qadamba-qadam	bir, ikki, to'rtta bo'lib saflanadi, doira bo'lib, qator bo'lib yuradi; yurishda turli topshiriqlarni bajaradi; yengil yuguradi (shiddat bilan, to'siqlarni yengib o'tib, yo'nalish va

sport zinasida yuqori va harakatlanadi; bir joyda ikki oyoqlab sakraydi; oldinga siljib sakraydi; aylana yoyi tagidan emaklab o'tadi; badantarbiya vaqtida mashqlarni takrorlaydi; uch oyoqli velosipedda uchadi.	tizzalarini yuqori ko'tarib yuguradi; past to'siqlar ustidan sakrab o'tadi; arqonda sakrashga harakat qiladi; gimnastika skameykasi ustida qo'li bilan tortilib qornida suriladi; gimnastika narvonida harakatlanadi; samokatda uchadi.	yuradi; qiya doska ustida to'g'ri va yoni bilan yuradi; yugurishning har xil turlarini bajaradi (ilonizi, zigzag, mokisimon, to'siqlarni yengib o'tib); turli usullar bilan sakraydi; bir necha predmet oralab emaklaydi; qornida yotib, qo'llari bilan tortilib emaklaydi; gimnastika narvoniga o'rmlab chiqadi.	muvozanatni saqlagan holda; bir joyda aylanib sakraydi, oyoqlarini o'ngga va chapga almashtirib sakraydi; arqonda turli usullarda sakraydi; arqonli narvon, yo'g'on arqonda yuqoriga ko'tariladi; ikki oyoqli velosipedda uchadi.
JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI			
Kichik soha: Mayda motorika			
Talab: Bola qo'li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatadi			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
halqaga arqonni kirgizadi; mayda predmetlarni ma'lum bir tartibda taxlaydi; mustaqil ravishda o'yinchoqlarni qutiga joylashtiradi va undan oladi; kattalar yordamida yirik hajmdagi munchoqlarni ipga o'tkazadi; buyumlarni bir idishdan ikkinchisiga joylashtiradi.	mustaqil tugmachalarini qadaydi va echadi, kiyimi va poyabzali ilgaklarini o'zi taqadi; namuna asosida ipga mayda, o'rtta, va yirik munchoqlarni teradi; qulflarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi; mayda buyumlarni buraydi va bir-biriga ulaydi (konstruktor qismlari); konstruktorning katta va kichik qismlaridan har xil predmetlar yasaydi; namuna asosida to'g'ri chiziq va aylana chizadi; ko'rsatilgan chiziq bo'yicha qog'oz, mato va salfetkani buklaydi; ko'rsatilgan chiziq bo'yilab qog'ozni qaychi bilan qirqadi.	yuзалarda turli chiziqlar chizadi (asfaltida klassik o'yini); kichik, o'rtta va katta o'yinchoqlarni qutiga hajmiga qarab joylashtiradi; murakkab konstruksiyalarni jamlaydi; qopchadagi o'yinchoqni paypaslab nomini ayta oladi; to'g'ri chiziq bo'yilab qog'ozni mustaqil qirqadi.	tasavvurdagi predmetlarni qo'llari bilan (gul, qush, kapalak, qasr) ko'rsatadi; arqonlardan turli tugunlarni tugadi; o'yin faoliyati mobaynida mayda o'yinchoqlar bilan o'ynaydi; belgilangan chiziqlar bo'yilab qog'ozni batartib yirta oladi; mayda qismli mozaika va pazllarni yig'adi.
JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI			
Kichik soha: Sensomotorika			
Talab: Bola sezgi organlari yordamida o'z harakatlarini boshqarishga qodir			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
katta koptoklarni masofaga, ikki qo'l bilan, o'tirib, turib	koptokni yerga o'ng va chap qo'li bilan galmagal uradi;	koptokni osmonga irg'itib, tutib oladi; uzatilgan koptokni turli	pastdan, boshi uzra koptokni irg'itadi; koptokni yer bo'yilab

irg'itadi; belgilangan nishonga predmetni irg'itadi; boshqa bolaga koptokni irg'itadi; yoki otadi; silliq va notekis teksturaning farqiga boradi; ta'mni aniqlaydi; qo'g'irchoqli aravachani itaradi.	galma-gal chap va o'ng tomon aylanadi; turli tekstura va yuzaning farqiga boradi; matrap bilan mayda uchayotgan, suzayotgan predmetlarni tutadi; sovun ko'piklarini uchiradi.	usullar bilan ilib oladi; koptokni klyushka bilan to'siqlarora olib o'tadi; qumli xaltachani nishonga otadi; boshqa bolaga koptokni ikki qo'llab asosiy vaziyatdan uzatadi; turli analizatorlar orqali predmetni tadqiq qiladi (ko'zi bog'langan holda, ta'miga qarab, paypaslab).	ilonizi qilib irg'itadi; chanada, rolikda, ikki oyoqli velosipedda uchadi; koptok bilan nishonni urib tushiradi (boulting); gardishni qo'lida, oyog'ida, belida aylantiradi; halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi.
--	---	---	---

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI

Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik

Talab: Bola sog'liqni saqlash malakalarini namoyon qiladi. Bola xavfsiz sog'lom taom va hayot xavfsizligi qoidalarini haqida tushunchaga ega

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
mustaqil qo'li, yuzini yuvadi, tishini tozalaydi, sochiqdan foydalanadi; taroq va dastro'mol yoki salfetkadan foydalanadi; ovqat vaqtida mustaqil qoshiqdan foydalanadi; ovqatdan so'ng og'zini chayadi; xonada tartibni saqlaydi, o'zidan keyin o'yinchoqlarni yig'ishtiradi; mustaqil hojatxonaga boradi; xavfli bo'ladigan predmetlarning farqiga boradi.	vitaminlar va sog'lom ovqatlanish foydasini biladi; ovqatlanish oldidan qo'lini yuvadi; sanchiqdan to'g'ri foydalanadi; o'z tashqi ko'rinishini tartibga keltiradi; hojatxonadan so'ng o'z-o'ziga xizmat qiladi; yordam so'ray oladi; xavfli bo'lgan predmetlar, joylar va moddalar nomini biladi (zinapoya, boloxona, ochiq oyna, issiq suv, olov, dori, o'tkir asboblari, elektr); notanish insonlar bilan ketish mumkin emasligini tushuntiradi; qanday qilib gavnani to'g'ri tutish kerakligini tushuntirib bera oladi.	shaxsiy gigiyenaga rioya qiladi; stol atrofida ovqatlanish madaniyatiga rioya etadi; vitaminlar va ularning taomdagi foydasini biladi; salomatlik haqida qayg'urish muhimligini anglaydi; asosiy tana a'zolari va ularning funksiyalarini biladi; piyodalar uchun asosiy yo'l qoidalarini biladi; suv ichish foydasini anglaydi va mustaqil suv ichish rejimini bajaradi; xavfsiz xatti-harakatning asosiy qoidalarini biladi va ularga rioya qiladi; yordam zarur bo'lganda kattalarga murojaat qilish kerakligini biladi; xavfli faoliyatlar nomini aytib beradi: xavfli joylarda o'ynash (mashina qatnovi yo'laklarida, qurilish yaqinida, notanish suv havzalarida, ko'l, oqar suvlarda cho'milish), velosipedda mashina qatnovi yo'llarida.	o'zining tashqi ko'rinishiga e'tibor beradi; jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi; tabiat burchagidagi o'simliklar va jonzorlarni parvarishlaydi; salomatlikka zararli bo'lgan xulq shakllarini anglaydi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o'ynash va hokazo); bog'chada, ko'chada, transportda yurish qoidalariga rioya qiladi; piyodalar va velosipedchilar uchun yo'l qoidalarini biladi; yong'in xavfsizligi — 101; milliy gvardiya — 102; tez yordam — 103; gaz xizmati — 104; qutqaruv xizmati 1050-telefon raqamlarini biladi; xavfli vaziyatlarda qanday yo'l tutishni biladi va tushuntiradi; supermarketda, shaharda, qishloqda, dalada yo'qolib qolsa, o'zini qanday tutish kerakligini biladi.

IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: "Men" konsepsiyasi

Talab: Bola o'zini o'ziga xos xususiyatlari bilan, ijobiy shaxs sifatida qabul qiladi, mustaqil va o'z xatti-harakatiga javob beradi

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

o'zi haqida — "men" deb birinchi shaxs nomidan gapiradi; o'zi haqida so'zlaydi (ismi, familiyasi, yoshi, jinsi va boshqalarni biladi); o'z yaqin insonlariga murojaat qiladi va yordam so'raydi; o'ziga do'st tanlaydi va u bilan o'ynaydi; o'z oilasi va yaqinlariga qiziqish bildiradi; o'z ehtiyojlarini bildiradi; ortib borayotgan o'ziga ishonchni bildiradi.	o'z xohish-istaklari, qiziqishlarini bildiradi; o'yin davomida rollarni bajaradi; o'z xatti-harakatlariga javob beradi ("Buni men qildim"); kattalar iltimosini (topshiriqni) bajaradi; mashg'ulot davomida diqqatni jamlaydi; yutuqqa motivatsiya bildiradi; omadsizlik, mag'lubiyatda qayg'uradi; turli hissiyotlar va kayfiyatlarni namoyish etadi; o'z o'yini uchun joy hozirlaydi.	o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni qabul qiladi; va bajaradi; o'zining qaysi millatga mansubligini biladi; o'zining xohish-istaklari va qiziqishlarini aniq belgilaydi; o'z hissiyotlarini namoyon qiladi; o'z-o'zini baholashga qodir; mustaqil o'ziga faoliyat turini tanlaydi; g'oyalar taklif etadi, tashabbuskor; xayrixoh va ochiq ko'ngil.	mustaqillikka intiladi; o'zining oilaviy, gender mansubligiga ijobiy his- tuyg'ularni anglaydi va farqlay oladi; o'zining millati, tili va o'z madaniyatining muhim elementlarini biladi; o'ziga yuklatilgan majburiyatlar asosida faoliyatni tashkil qiladi; shaxsiy qarorlarini qabul qilishga qodir; boshqalarga namuna bo'lishga harakat qiladi.
--	---	---	--

IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Hissiyotlar va ularni boshqarish

Talab: Bola o'zining va o'zgalarning hissiyotlarini anglashga va o'zining hissiyotlarini moslashtirishga qodir

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
ertak, hikoya, multfilmlar qahramonlariga hamdardlik bildiradi; quvonch, qayg'u kabi hissiy holatni tushunadi; o'z kechinmalari va hissiyotlarini namoyon etadi ("Menga yoqadi", "Men yoqtimayman"); boshqa bolaning hissiyotlarini aniqlaydi va so'z bilan ifoda etadi; boshqalarga hamdardlik bildiradi; sujetli-rolli o'yinlarda ishtirok etadi; o'z oilasi haqida so'zlar ekan nima yoqishi va yoqmasligi haqida gapiradi.	bolalar bilan o'yin davomida samimiy munosabat bildiradi va o'z o'yinchoqlari bilan o'rtoqlashadi; kattalar bilan eslatmasiz salomlashadi va xayrlashadi; o'z harakatlariga baho beradi; kattalarga murojaat qiladi va o'z fikrini bayon qiladi; sovg'a va bayramlardan quvonadi.	asosiy hissiyotlar sababini tushunadi; kimnidir xafa qilsa, o'zini aybdor his qiladi; yaxshi yoki yomon xulqqa baho bera oladi; o'yin mobaynida g'oliblikdan quvonishni biladi; yaqin insonlari va do'stlari bilan o'z hissiyotlari va kechinmalari bilan o'rtoqlashadi; qo'rquv va xavfni tushunadi; tushunarli asarlarni qiziqish bilan tinglaydi va ularga hissiyotlarini namoyon etadi.	o'z hissiyotlarini nazorat qiladi; turli ijtimoiy vaziyatlarga emotsional munosabat bildiradi; o'z hissiy holatini izohlab berishi mumkin; boshqa insonlar yoki badiiy asarlar qahramonlari hissiyoti haqida gapiradi; o'zini yomon his etayotganlarga hamdardlik bildiradi va yupatadi.

IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot

Talab: Bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishga qodir			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
o'z oila a'zolarini biladi; kattalar harakatiga taqlid qiladi; o'z harakatlari natijasiga erishishda qat'iylik bildiradi; kattalar va bolalar bilan birgalikda o'ynaydi; bolalar salbiy harakatiga o'z munosabatini bildiradi; jamoaviy o'yin faoliyatida qatnashadi; tengdoshlariga yaxshilik istaydi.	o'yin faoliyati davomida muloqotga kirishadi; o'yinda o'zaro harakatda bo'lib, ijtimoiy rolni qabul qiladi; guruh qoidalarini bajaradi (o'yinchoqlarni joyiga taxlaydi, kiyimlarini tartibga soladi va hokazo); o'z oila a'zolariga samimiy munosabat bildiradi va uyida ma'lum bir qoidalariga rioya qiladi; o'z do'stlari haqida so'zlab berishi mumkin; kattalar harakatlari va xulq modelini imitatsiya qilgan holda ularga taqlid qiladi; kattalar nazoratsiz topshiriqlarni bajara oladi.	muloqot davomida o'z fikrini, hissiyotlarini va taassurotlarini namoyon etadi; oila va guruhda tashkil etilgan mehnat faoliyatida ishtirok etadi; o'z suhbatdoshiga iltimos yoki ma'lumotni ayta oladi; mustaqil, kattalardan bevosita mustaqillikni erkin namoyon etadi, yordam ko'rsatishga tayyor; tanish insonlar bilan oson muloqotga kirishadi; tushunchalarda yoritilgan ijtimoiy xulq qoida va me'yorlariga bo'ysunadi (mumkin, man etiladi, yaxshi, yomon, kerak); boshqa bolalar bilan doimiy do'stona munosabatlarni qo'llab-quvvatlaydi.	kattalar va tengdoshlar bilan oson muloqotda bo'ladi; qiyin vaziyatlarda amaliy yechim qidiradi; boshqalar xatti-harakatiga o'z taassurotlarini bildiradi; o'zgalar yutug'iga quvonganligini namoyon etadi; nizolarni hal etishda bir necha metodlardan foydalanadi (tinchlantiradi, o'z o'yinchog'ini beradi, muloyim so'zlar aytadi); o'yinlar o'ylab topadi, sujetti, rolli o'yinlar, turli ertaklarni sahnalashtirishda ishtirok etadi.
NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI			
Kichik soha: Nutq va til			
Talab: Bola nutqni tinglaydi va anglaydi, so'zlashadi va muloqot qiladi			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
o'zining ayrim harakatlarini so'zlar bilan sharhlaydi; rasmda ko'rgan narsasi haqida so'zlaydi; kattalarning turli savollariga javob beradi (yaqin atrofiga tegishli); muloqot davrida faollik bildiradi; biror-bir parchani tinglab, tanish asarning nomini aytadi; kichik she'ni yoddan aytadi; kattalar tomonidan	boshlangan hikoyani davom ettira oladi; voqea-hodisalar to'g'risida muhokama davrida savollar beradi va o'z fikrini bayon etadi; berilgan savolni tushunadi va unga javob beradi; muloqotda fe'l va sifatlarini faol qo'llaydi; ot va fe'llarni qo'llagan xolda murakkab bo'lmagan gaplar tuzadi (shifokor kasallarni davolaydi, sotuvchi sabzavotlarni)	kuzatayotgan hodisa va voqealarni tushuntirib beradi; umumlashtiruvchi so'zlarni to'g'ri qo'llaydi (meva, sabzavot, daraxtlar, qushlar, idish-tovoq); o'ziga nisbatan predmetlar joylashuvini ta'riflaydi (oldimda, stolda); so'zlarni mazmuniga ko'ra to'g'ri qo'llaydi; nutqida ma'nosi monand asosiy so'z turkumlarini qo'llaydi; bir negizli so'zlarni (namuna asosida) tuza oladi (mushuk-mushukcha-mushukli);	o'z ona tilida erkin so'zlashadi; so'z turkumlarini yoshiga monand mustaqil, grammatik to'g'ri qo'llaydi; gapdan sinonim va antonimlarni topa oladi va berilgan so'zlarga ularni moslaydi; ko'p ma'noli so'zlarning turli ma'nolarini farqlaydi; turli gaplarni tuzadi; shaxsiy tajribasiga tayanib, rasm yuzasidan tasviri hikoyani mustaqil tuzadi; turli janrdagi badiiy asarlarni ifodalaydi;

aytilgan hikoya, davom ettiradi yoki tugallaydi; didaktik o'yinlar.	tanish ertakni "ko'p", "bitta" so'zlarni ishlatadi; turli ohangdagi so'zlarni imo-ishoralarda yordamida nutqida ishlatadi; didaktik va so'z o'yinlari o'ynaydi.	sotadi); "ko'p", "bitta" so'zlarni ishlatadi; turli ohangdagi so'zlarni imo-ishoralarda yordamida nutqida ishlatadi; didaktik va so'z o'yinlari o'ynaydi.	grammatik sodda va murakkab gaplar tuzadi; suhbatlasha oladi; kattalar yordamida ijodiy hikoya tuzadi; barcha tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz qiladi; xorijiy tilni bilishi; salomlashish va xayrlashish so'zlarini qo'llaydi; 10 gacha sanashni biladi; Asosiy ranglar nomini biladi (oq, sariq, qizil, yashil, ko'k, qora).	guruh muhokamasida muloqotga kirishib va tinglab ishtirok etadi; qofiyalar tuzadi; topishmoqlar topadi; nutqida xorijiy so'zlarni qo'llaydi; kichik she'rlarni, qofiyalarni so'zlab berishi mumkin; yil fasllari nomini biladi (bahor, yoz, kuz, qish).
NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI				
Kichik soha: O'qish malakalari				
Talab: Bola kitob va o'qishga qiziqish bildiradi				
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh	
KUTILAYOTGAN NATIJALAR				
kitob haqida tushunchaga ega; kattalardan kitob o'qib berishlarini so'raydi; o'z yoshiga mos kitoblarni tomosha qiladi; kitobdagi rasmlar va so'zlar orasidagi bog'liqlikni aniqlaydi; rasmlardan tanish ertak qahramonlarini taniydi.	tinglagan hikoyasiga munosabatini bildiradi va kattalarga savol beradi; rasmlar asosida tinglagan asarining asosiy o'rinlarini gapirib bera oladi; badiiy asardan parcha tinglagandan so'ng asar nomini ayta oladi; o'z yoshiga mos she'rlarni yoddan biladi; kitobdan ehtiyoqlab foydalanadi.	so'zdagi birinchi tovushni bitadi; kitobni mustaqil tomosha qiladi; tovushlarni farqlaydi; so'zlarni bo'g'inga bo'ladi; so'zlarga qofiya kelishtiradi; nutqning dialogik shaklini qo'llaydi, savollar beradi; she'rlarni yod oladi va ifodali o'qiydi; sevimli badiiy adabiyot, ertak va hikoya mualliflari va ularning nomini biladi; ifodalilikning ohang vositalarini to'g'ri qo'llaydi; harflarga tegishli so'zlarni topadi.	boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so'zlab beradi; sodda va murakkab gaplarni nutqida qo'llaydi; so'zlarni bo'g'inlarga bo'ladi; bo'g'inli kartochkalar yordamida bo'g'inlardan so'zlar tuzadi; so'z, tovush, bo'g'in, gap haqida tushunchaga ega; peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o'qiydi; bolalar adabiyoti janri nomini biladi (ertak, she'r, hikoya); mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi.	
NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI				
Kichik soha: Qo'l barmoqlari mayda motorikasi				
Talab: Bolada yozuv malakasi shakllanadi				
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh	
KUTILAYOTGAN NATIJALAR				
2-3 obyektidan rasm tuzadi; varaqa sathida to'g'ri chiziqlar chizadi; harflarga qiziqish bildiradi, ayrim harflarning shaklini biladi va farqlaydi; yirik munchoqlarni ipga teradi; yozishga harakat	chiziq, belgi, ilgaklarning sodda namunalarni qayta chiza oladi; predmetlarning murakkab bo'lmagan shakllarini chizadi; rasmlarni ustidan yurgizib chizadi va bo'yaydi; shablonlarni	chiziq, ilgak va gajakcha yozadi; qog'ozni turli usulda taxlaydi (origami); namuna asosida bosma harflarni yozishni boshlaydi; barmoqlari yordamida mashqlar bajaradi; rasmlarni tekis shtrixlaydi; turli sathlarda chizadi (nam	qog'ozda to'g'ri chiziqlar, so'zlar va qisqa gaplarni yozadi; daftardagi yozuv qatorlarini aniqlay oladi; rasmlarni to'g'ri joylashtiradi; qo'lni uzmasdan nuqta-chiziqlarni birlashtirib rasm chizadi; matodagi rasmini to'qiydi;	

qiladi.	shtrixlaydi; mayda qismlardan iborat konstruksiyani yig'adi; o'rta munchoqlarni ipga teradi; aniq belgilangan chiziq asosida qog'ozni qaychi bilan qirqadi; belgilangan chiziq asosida qog'ozni tekis yirtadi; ikki qo'li bilan qog'ozni buraydi.	qumda, asfaltida, doskada); soch o'radi; mozaika yig'adi.	"o'ziga" va "o'zidan" harakatlari tushunadi; turli materiallardan murakkab namunalarni qirqadi.
---------	---	---	--

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Intellektual-bilish malakalari

Talab: Bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
bitta belgi asosida predmetlarni ajratadi; olti rangni farqlaydi va ajratadi; bir xil poyini topadi; va nomini aytadi; jonli obyektlarga qiziqish bildiradi; predmetlar yasalgan materialni farqlaydi (qog'ozdan, taxtadan, temirdan); xonani kuzatadi va o'zi turgan joyini aniqlaydi; atrof muhitga qiziqish bildiradi.	rasmlarni solishtiradi; 2-3 belgi asosida guruhlarga ajrata oladi; jonzodlarning asosiy ehtiyojlarini ta'riflaydi va taqqoslaydi (hayvonlar: ovqat eydi, nafas oladi, harakatlanadi va hokazo); hayot uchun suv, havoning ahamiyatini ta'riflaydi; kun qismlarini nutqida to'g'ri qo'llaydi va biladi (ertalab, peshin, kechqurun, kechasi); yil fasllarini tavsiflaydi; atrof olamga faol qiziqish bildiradi.	rasm asosida sujetni eslab qoladi va gapiradi; ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi; mulohaza qiladi; turli hayvonlarning yashash joylarini aytadi (baliq suvda yashaydi, bo'ri o'rmonda); geografik tushunchalarni biladi (er, dengiz, tog', daryo); oddiy sabab va oqibat aloqalarni tushunadi (yomg'ir yog'yapti — panaga o'tish kerak); sinash va xatolarni tahlil qilish yo'li bilan amaliy vazifalar yechimini topishga harakat qiladi (mashinani yurg'izish uchun kalitni burash kerak); obyektlarni tizimga soladi.	Atrof olam haqida mustaqil ma'lumot izlaydi; kuzatuvlar asosida xulosa qiladi va umumlashtiradi; yil fasllari va voqea-hodisa ketma-ketligini aytadi; rasmlar bo'yicha ketma- ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi; o'z mamlakati va uning ramzlari haqida tushunchaga ega; o'z xalqining ayrim milliy an'analari va odatlarini biladi; bolalar ensiklopediyasidan foydalana oladi (kerakli ma'lumotni topa oladi); ichki va tashqi belgilarga ko'ra predmetlarni guruhlarga ajratadi (rangi, shakli, hajmi, vazni, harakatlanish tezligi, vazifasiga qarab).

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Elementar matematik malakalar

Talab: Bola elementar matematik malakalarga ega

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
predmetlarni 1-2 ta belgisi bo'yicha guruhlarga bo'ladi; atrof muhitdan "bitta" va "ko'p" ni topadi; predmetlarni	geometrik shakllarga o'xshash predmetlarni topadi; geometrik figura va shakllarning nomini biladi;	geometrik shakllarni biladi va ularni predmetlar orasidan ajratadi; predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga ko'ra taqqoslaydi;	hayotda son va sanoqning ahamiyatini tushunadi; geometrik shakllar va figuralarni biladi; 20 gacha bo'lgan ayrim matematik harakatlarni

kattaligiga qarab teradi; geometrik shakllarni farqlaydi (doira, kvadrat, uch burchak), shakllar (kub, shar); ko'plikni taqqoslaydi; "uzun" va "qisqa" tushunchalari ma'nosini biladi; "yarim", "yarimtachacha" tushunchalarini biladi; sanoq va sonlar qatoridagi bog'liqlikni tushunadi; mexanik tarzda 5 gacha sanaydi.	miqdoriy aloqalarni belgilaydi; sonning miqdoriy tarkibini biladi; matematik tushunchalardan (ko'p, kam, jami, shuncha); ketma ketlikda sanaydi; ko'pliklarni taqqoslaydi "ko'proq", "kamroq", "teng"; bo'shliqda yo'nalish olishni biladi (oldinda, orqada, tepada, pastda, yaqin, uzoq); butun va uning qismlari tushunchasini tushunadi.	predmetlar guruhini taqqoslaydi; muloqot davrida matematik terminologiyani qo'llaydi; belgilar tizimini tushunadi (son va belgilarni qo'llagan xolda +, -, =); 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarni to'g'ri va teskari sanaydi; predmetlarni soni va sanog'iga qarab taqqoslaydi; predmetlar tengligi va tengmasligi guruhlarini aniqlaydi va ularni bir-biri bilan taqqoslaydi.	bajaradi; 10 gacha qo'shish va ayirishli sodda matematik vazifalarni echadi (son va belgilarni qo'llagan xolda +, -, =); son qatori haqida tushunchaga ega; guruhlarning teng yoki teng emasligini tahlil qiladi (qanchaga ko'p? qanchaga kam?); hajmi, balandligi va qalinligiga qarab predmetlarni ketma-ket joylashtiradi; shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va qattiq materialni o'lchaydi.
--	--	---	---

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat

Talab: Bola o'zining tabiiy muhitga qiziqishini namoyon qiladi, fanni o'rganishda faol

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda qatnashadi (eritish, bo'yash, cho'ktirish, suv sathiga chiqarish va hokazo); tabiatdagi ayrim o'zgarishlarni farqlaydi (qor, yomg'ir, do'l, issiq, shamol va hokazo); ayrim hasharot va qushlarni taniydi va nomini aytadi; ayrim jonivorlar bolalarini nomini to'g'ri aytadi; "sujet" asosida qurilmalar yaratadi; suv va qum bilan o'ynaydi; jonli obyektlarni kuzatadi.	kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda ishtirok etadi (eritish, yaxlatish, magnetizm, bo'yash, qizdirish, qaynatish va hokazo); yil fasllariga xos tabiat hodisalarini biladi; nima uchun ovqatlanish, nafas olish, o'qish kerakligini biladi; organizmning ma'lum bir organlari funksiyasini biladi; ayrim jismoniy jarayonlar muhimligini tushunadi; konstruktor, pazl, mozaika, Legodan konstruksiyalar yaratadi.	tabiat hodisalarining turli omillarga bog'liqligini tushunadi; tabiatdagi o'zgarishlar sababini tushuntirib bera oladi (masalan, qor erishi); insonlarning atrof olamga ta'sirini tushunadi (ekin ekish, hosil yig'ish); tabiiy materiallardan qo'l ishlarini yaratishni biladi; ish bosqichlarini belgilaydi; mustaqil qurib yasashi mumkin; jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi; insonlar hayotida tabiatning ahamiyatini anglab yetadi.	qurilmani mustaqil o'lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo'yicha); shaxsiy qiziqishi va kuzatuvlariga bog'liq savollar beradi; shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtiradi va tushuntiradi; tadqiqotda yechimini talab etayotgan muammoni belgilaydi; turli resurslarni qo'llagan xolda shaxsiy kuzatuvlarni tasdiqlaydi va ta'riflaydi; atrof muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (masalan, axlat chiqindilarini tashlash, ularni ajratish, daraxt va gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog'ozni asrash).

IJODIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Dunyoni badiiy tasavvur etish

Talab: Bola turli xil san'at vositalaridan foydalaniib, dunyoni his etish va tushunishini namoyish etadi

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
illyustratsiya, o'yinchoq, xalq amaliy san'ati asarlarini o'rganishda emotsional ta'sirlanadi; tabiiat obyektlarida, o'yinchoq, bolalarning o'z kiyimlarida ranglar jilosini anglaydi; tanish qo'shiqlarni biladi; diqqat bilan tovush, ohanglarni tinglaydi; tasviriy san'at elementlaridan foydalanadi.	O'zbekiston xalq amaliy san'ati haqida ilk tushunchaga ega (so'zana, keramika); san'atga tegishli kasblarning ayrimlari haqida tushunchaga ega (rassom, bastakor, aktyor); ayrim san'at turlari va janrlarini farqlaydi (qo'shiq, raqs, musiqa, she'riyat, topishmoq, rasm, haykaltaroshlik); ayri arxitektura qurilmalari haqida tushunchaga ega (yashash joyi va jamoat joyi); qo'shiq va navolarda yuqori va past tovushlarni farqlaydi; ayrim musiqiy asboblarning chalinishini farqlaydi (pianino, dutor, doira); musiqaga monand raqsga tushishi mumkin.	musiqiy asarga hissiy munosabat bildiradi; musiqaga monand harakatlar o'ylab topishi mumkin; badiiy asarlar qahramonlari rolini o'ynashi mumkin; amaliy san'at turlari haqida birlamchi tushunchaga ega; shaxsiy loyihalar yaratishda g'oyalar bildiradi; musiqada uslublarni farqlaydi; kichik ssenariylar tuzib, sahna ko'rinishlari tashkil eta oladi; tabiiy materiallardan qo'l ishlari yasaydi; kiyimlarni bezashi, guldastalar tuzishi, sodda retsept asosida taom tayyorlashi mumkin.	she'rmi ifodali o'qib bera oladi; tanish asarlarni mustaqil so'zlab beradi, ularni sahnalashtirishda ishtirok etadi; she'riy va nasriy badiiy asarlarga munosabat bildiradi; musiqiy asarning xarakterini aniqlashga qodir; bolalar shoiri, yozuvchisi va bastakorlari hamda ularning asarlarini biladi; tasviriy san'at turlarini farqlaydi.
IJODIY RIVOJLANISH			
Kichik soha: Badiiy-ijodiy qobiliyatlar			
Talab: Bola atrofidagi bortiqliqni ijodiy o'zgartirish malakasiga ega			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
tasviriy materiallar nomini biladi va to'g'ri qo'llaydi; sodda kompozitsiyalar, alohida buyumlarni chizadi; tasvirlanayotgan predmetlarga mos ranglarni tanlaydi va bo'yaydi; bolalar musiqiy asboblari (buben, nay, ksilofon) chalishga taqlid qiladi; bolalar guruhi bilan qo'shiq aytadi; raqsga tushadi	predmetlar shaklini aniqlaydi ko'rsatgan holda qismlarga boy tasvirlar chizadi; sujetli rasm, predmet va personajlar chizadi; shakllarni turli texnika asosida bo'yaydi; loy, xamir va plastilindan yasaydi; faoliyati boshida ko'z oldiga keltirib tasavvur qiladi; xorda va yakkaxon qo'shiq aytadi; raqs harakatlarini hissiyotlarni namoyon etish va muloqot vositasi sifatida qabul	murakkab predmetlar chizadi va ularni dekorativ naqshlar bilan yasatadi (choynak, gilam, ro'mol, lagan); xotira yoki tasavvuriga ko'ra sujet yaratadi; qog'ozdan va tabiat materiallaridan applikasiya-hajmli oranjirovkalar yaratadi (siluetlar, otkritkalar, kitob yorliqlari); muhit yoki shaxsiy loyihalarni yasatadi; qog'oz buklash, yirtish, qirg'ish yo'li bilan shakllarning harakati va proporsiyalarini yoritgan	turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi; individual va jamoada qo'shiq aytadi; raqsga harakatlarga jilo bergan holda shaxsiy namuna yaratishi mumkin; musiqiy asboblarda yakkaxon yoki orkestrda jo'r bo'lib chalishi mumkin; g'oya yaratadi va tatbiq etadi; maqsadga erishishda o'rindosh sifatida turli predmetlar qo'llaydi; turli spektakllarda rol ijro etib ishtirok etadi; olamni o'zgartirishda

(juftlikda aylanadi, oyoqlari bilan depinadi, predmetlar bilan musiqaga monand harakatlanadi); plastilindan berilgan sodda shakllarni yasaydi; tayyor shakllardan tasvirlar yaratadi, turli shakldagi qog'ozlarni yasatadi; qumdan turli shakl va piramidalar quradi.	qiladi; musiqiy asboblarda chaladi (qo'ng'iroqcha, doira, metallofon, uch burchak); kattalar yordamida barmoqlar teatri sahna ko'rinishlarida ishtirok etadi.	holda kichik sujetli kompozitsiyalar yaratadi; tengdoshlari bilan ijodiy o'yinlar yaratishi mumkin; shaxsiy ishlarida turli ifoda vositalarini qo'llaydi; jamoaviy loyihalarda g'oyalar taklif etadi.	insonning yaratuvchi rolini anglaydi; buyumlarni ikkilamchi qo'llashda g'oyalar taklif etishi mumkin.
---	---	---	---

§ 8. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining maqsad vazifalari va asosiy tamoyillari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari, shuningdek, bolaning keyingi ta'lim bosqichiga o'tishidagi tayanch kompetensiyalari belgilangan. Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim davlat standartini amalga oshirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Davlat o'quv dasturining asosiy vazifasi kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida bola shaxsini rivojlantirish hisoblanadi. Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining quyidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari va muassasalarida qo'llanilishi majburiydir:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida;
- maktabgacha ta'lim sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi nodavlat MTTlarida;
- ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllarida;
- "Mehrionlik" uylari maktabgacha ta'lim guruhlarida;
- monitoring va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida.

Davlat o'quv dasturining qo'llanilishi

Davlat o'quv dasturi muqobil, parsial, moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi. MTT Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan muqobil, parsial, moslashtirilgan o'quv dasturlarini qo'llash huquqiga ega. MTT o'quv dasturi mutaxassislar va ota-onalarni jalb qilgan holda, pedagoglar tomonidan tuziladi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadi.

MTTning maqsad va vazifalari

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari asosida hamda MTT

davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;

- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish.

Pedagogning roli

Davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatadi va ta'lim va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi. Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg'ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi.

Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak. Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam beradi.

Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o'z ishini teng sheriklik asosida quradi.

MTTdagi ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan davlat o'quv dasturini amalga oshirishda ta'minlanishi kerak bo'lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish va rivojlantirishdagi yondashuvlarni tavsiflaydi. MTT ta'lim va tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Bolalikni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish. Bolalik – bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalikning o'ziga xos xususiyati - bu bolalarning ta'lim olish tajribasi natijasida kattalardan ko'ra ko'proq o'rganish va o'zgarish qobiliyatiga ega ekanligidir. Bolalik – bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan, bola rivojlanishining muhim bosqichi.

- Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish. Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga keladi va har biri tug'ma iste'dodga ega. Har bir bola o'ziga xos individualdir. Barcha bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish huquqiga ega.

- Bolalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok

etish, bilimga bo'lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta'lim olishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.

- Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash. MT - parvarish, ta'lim va tarbiyadagi uyg'un jarayondir; u bolaning barcha rivojlanish sohalarida rivojlanishini ta'minlaydi; bu ta'lim va tarbiya jarayonida barcha rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligini, shuningdek, ta'lim olishning turli xil va har tomonlama imkoniyatlari va har bir rivojlanish sohasi bo'yicha integratsiyani ta'minlash zarurligini belgillaydi.

- Bolaning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash. Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish; faol o'yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini, yirik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o'rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o'z tanasining ta'sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g'amxo'rlik qilishni va sog'lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar.

- O'yin orqali ta'lim olish va rivojlantirish. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda muhim yondashuvdir. O'yin quvonch keltiradi va bolalarni rag'batlantiradi, ularga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganishga, o'zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. MT bolaning o'yin huquqini tan oladi, o'yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta'lim olishi va farovonligiga ko'maklashishdagi pedagogik imkoniyatlari tan oladi.

- MTTning oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi. Bolaning farovonligi uning oila a'zolari va yaqinlarning MTT ahamiyatini tushunishiga bog'liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat o'quv dasturida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o'z hissasini qo'shganda bolalar yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar.

- Milliy, tarixiy va madaniy an'analar, ma'naviy boyliklarni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo'lish. Bolalarning o'z milliy madaniyati, tili, an'analarini hurmat bilan e'tirof etilganda ular yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar. Davlat o'quv dasturi milliy va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash – bu jamoaviy ish bo'lib, uni amalga oshirishga maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori mas'uldir. Ushbu tamoyillar maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi, pedagoglarga davlat o'quv dasturini rejalashtirish va amalga oshirishda, har bir bolaga ta'lim berish va rivojlantirish bo'yicha pedagogik va amaliy qarorlar qabul qilishda qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil etish

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari MTT tomonidan tashkilot imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, bolalar, oilalar va mahalliy hamjamiyat manfaatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Qo'shimcha ta'lim xizmatlari fakultativ hisoblanadi va ularni tashkil

qilishda ko'ngillilar (volontyorlar), ota-onalar, mutaxassislar va homiylar ishtirok etishi mumkin. Qo'shimcha ta'lim xizmatlari asosiy ta'lim faoliyatidan tashqari amalga oshiriladi va MTT o'quv rejasiga kiritilmaydi. Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi pedagoglar, ko'ngillilar, homiylar, mutaxassislar, ota-onalar mavzuli rejani ishlab chiqadilar, bu xizmat ko'rsatishga qarab, davlat o'quv dasturining yillik mavzuli rejasi asosida tuzilishi mumkin.

Ta'lim olishda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayoni (inklyuziv ta'lim)

Davlat o'quv dasturi har bir bolaning ta'lim, tarbiya, rivojlanish, himoya va faol ishtirok etishdan teng foydalanish huquqlarini tan oladigan inklyuziv o'quv dasturi hisoblanadi. Davlat o'quv dasturi barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual xususiyatlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim olish, rivojlanish va muloqotda qo'shimcha yordam ko'rsatishga mo'ljallangan. Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolani ta'lim olishi va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash – bu MTTning direktori, pedagog va mutaxassislari tomonidan tashkil etiladigan jamoaviy ish. Zarur bo'lganda, maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jamoasi va rahbariyati tor mutaxassislarni jalb qilgan holda, bola rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolaning yakka tartibdagi rejasini yaratadi. Inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, uning asosida individual-moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilishi mumkin. Bunday individual inklyuziv dasturda alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning ta'lim olishi, rivojlanishi, ishtiroki va farovonligi uchun barcha mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etadigan o'quv muhiti va o'qitish usullarini moslashtirish zarur.

Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. MTT ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishi mumkin:

- bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish (seminar, ota-onalar klubi, trening, maslahat, konferentsiya, davra suhbat, pedagogik mehmonxonalar va boshqalar);

- muntazam ravishda muloqot (kommunikatsiya)ni ta'minlash (ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlagan holda pedagoglarning ota-onalar bilan online va offline uchrashuv va yig'ilishlarni o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumot berishi va boshqalar);

- ota-onalarni guruh yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish (rivojlantiruvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta'minlash; o'yinlar tashkil etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarni bezash, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish);

- ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishida (tashkil etishda) ko'maklashish (topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish va boshqalar);

- maktabgacha ta'lim tashkilotiga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish (kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishlash, ularning faoliyati to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish, umumiy va guruhlarining ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish, maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi dasturlarini yaratish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish, bolaning qiziqishlariga qarab maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'shimcha xizmatlarni tanlash);

- bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish (maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda mahalliy hamjamiyat resurslaridan foydalanish, hududdagi muzeylar, istirohat bog'lari, hunarmandlar ustaxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy hokimlik yetakchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularni guruhlariga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilish, ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil etish).

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv

Maktabgacha ta'lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U ta'limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Davlat o'quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Bu maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida bolalar faoliyatining turli-tuman turlarida shakllanadigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Kompetensiya – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar majmuidir. Kompetentli bola o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ("Men" konsepsiyasi) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari

- Kommunikativ

- Ijtimoiy

- Shaxsiy ("Men" konsepsiyasini qurish)

- Bilish

Kommunikativ kompetensiya – atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo'lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o'yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanish ham kiradi. Nutq bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi hamda dunyoni bilishi uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitida bolalar

og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o'zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg'ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo'lib bajarishga yordam beradi. Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o'zlarini namoyon etishlari mumkin. Ular aytilganlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savol va topshiriqlarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni, ayniqsa o'qish va yozishni o'z ichiga olgan mashg'ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funksiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo'lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar. Bu kompetensiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi; ta'lim olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o'zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan tartib va odob-ahloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o'rganadilar. Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar. Ular tobora ko'proq o'zlarini guruhning bir qismi sifatida ko'radilar va o'z huquq hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Ular individual farqlarga ochiq. Bolalar boshqalar bilan uyg'unlikda yashashlari mumkin. Ular turli insonlar bilan muloqot qilishadi va atrofdagilarning madaniy jihatdan xilma-xilligini tan oladilar, ularga yordam beradilar va qo'llab-quvvatlay oladilar.

Shaxsiy kompetensiya ("Men" konsepsiyasini yaratish). Shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog'lom turmush tarzini amalda qo'llash mahoratini o'z ichiga oladi. Bolalar hayotdagi o'z o'rnini biladilar, o'zlarining, shuningdek, boshqalarning farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishga o'rganadilar. Bola mustaqil va u o'ziga ishonadi. O'zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi. U o'zining boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi. O'z g'oyalarini ilgari suradi va targ'ib qila oladi; o'zi uchun qaror qabul qilishni o'rganadi. U qanday tanlashni biladi, o'z oldiga maqsadlar qo'yadi. O'z harakatlari uchun tashabbus va mas'uliyatni namoyon qiladi. O'zining yaxshi ko'rgan narsasi, qiziqishlari, his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashadi. O'sib borayotgan jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradi. O'z ehtiyojlarini bildiradi va ularni qondirishni biladi, o'zini boshqara oladi; sog'lom turmush tarzi qoidalariga, madaniy-gigiyenik tartib qoidalariga rioya qiladi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadi, o'z salomatligi uchun mas'uliyatni namoyon qiladi.

Bilish kompetensiyasi bilim olish, o'qish va o'rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrofola'mni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Harakat va o'zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o'rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrofola'mdagi yangi ob'ektlarni o'rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o'yin va o'zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o'tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o'zlarining kashfiyotlari bilan o'rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o'z-o'zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar. Bolalar muammoni hal qilishga e'tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrofda'gi dunyoni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo'yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Bolalar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o'rganishdan zavqlanishlari va o'rganganlarini baham ko'rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo'lishishlari mumkin.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari

Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo'lgan keyingi bosqichiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi, boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir. Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarda belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari
- bilish jarayonining rivojlanishi
- ijodiy rivojlanish.

"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi kompetensiyalari "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi;
- turli xil faol harakat turlarini uyg'un holda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;
- o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiena malakalarini namoyon etadi;
- sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayot faoliyati asoslari qoidalariga rioya qiladi.

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- o'z "Men"i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;

- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi.

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- ona tilini eshitadi va tushunadi;
- ona tilida to'g'ri talaffuz, mos grammatik shakllar va turli gap tuzilmalaridan foydalanadi;
- chet tilini o'rganishga qiziqish bildiradi;
- chet tili bo'yicha dastlabki bilimlarini namoyish etadi;
- badiiy adabiyotga qiziqish bildiradi;
- so'zning lug'aviy ma'nosi, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga tushunchaga ega bo'ladi;
- gapning turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzadi va so'zlab bera oladi;
- ona tilida yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

"Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi kompetensiyalari "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga katta qiziqish bildiradi;
- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil topadi va qo'llaydi;
- predmetlar, voqea-hodisalar va holatlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, sanashni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematika hisoblarini amalga oshiradi;
- atrof-muhitni asrab-avaylash munosabatini namoyon etadi.

"Ijodiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari "Ijodiy rivojlanish" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakuniga 6-7 yoshli bola:

- san'at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi;
- milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi;
- san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni

Ta'lim va tarbiya jarayoni davlat talablari va davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tili va chet tillaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida" 6 gi qonuni bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya

jarayonini o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi. O'quv yili 2-sentabrda boshlanadi va 31-maygacha davom etadi. 1-iyundan 31-avgustgacha MTTda yozgi sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida o'yinning roli va maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayonida uning ahamiyati

Davlat o'quv dasturida bolaning o'yin o'ynash huquqi tan olinadi, o'yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi. O'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin orqali ta'lim olish bolalarni ta'lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir.

O'yin – bu bolani o'zini va atrofidagi dunyoni o'rganishga undashning tabiiy usuli. O'yin bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O'yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o'zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi. O'yin boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi, ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi. Va, eng muhimi, o'yin ta'lim olishni quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. O'yin har xil bo'lishi mumkin – bolaning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan to'laligicha erkin, pedagogning minimal yoki to'liq ishtirokisiz - pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning ko'rsatmalari yordamida amalga oshiriladi. Erkin o'yinning ahamiyatini tushunish va e'tirof etish bilan birga, uyushgan o'yinda pedagogning hal qiluvchi rolini ham tan olish kerak. Ta'lim va tarbiya jarayoni o'yin o'ynash imkoniyatini ta'minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o'yin o'ynash imkoniyatiga hissa qo'shishi kerak. O'yin uchun sharoit yaratish, ya'ni bolalarni yetarli vaqt, joy, qo'llab-quvvatlovchi resurslar va o'yinchoqlar bilan ta'minlash juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar bolalar o'yiniga yordam berishlari muhimdir. Bolalar o'yinini tashkil etishda pedagogning o'rni quyidagilar bilan ifodalanadi:

- bolalar o'yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar). Pedagog o'yin maydonchasini tayyorlaydi, bolaning yoshi, qiziqishlari, qobiliyati va madaniyatiga mos keladigan rag'batlantiruvchi o'yin resurslari bilan ta'minlaydi. Pedagog xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda xona ichida va tashqarisida ham o'yin uchun imkoniyatlar yaratadi;

- bolalar o'yinini rivojlantirish. Pedagog bolalarga o'yin orqali o'rganish va rivojlanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Pedagog bolalarga o'yin holatiga kirishga va/yoki o'ynashni davom ettirishga yordam beradigan ko'nikmalarni shakllantiradi. U bolalarning individual xususiyatlari, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va rivojlanish ehtiyojlarini kuzatish asosida o'yinni rejalashtiradi;

- bolalarning o'yinda o'zaro munosabatda bo'lishiga yordam berish. Bolalarni o'yinda kuzatish pedagogga bolaning boshqa bolalar bilan qanday o'ynashini, bola o'yinda qanday ko'nikma va malakalarni namoyon etishini, o'yin orqali qanday ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligini anglashga yordam beradi.

Pedagog o'yinga qo'shib, bolaning ta'lim olishini, uning tasvirlash, tushuntirish, asoslashi, tegishli tilni qo'llash qobiliyatini, shuningdek, ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi;

• bolalarga o'zlarini va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berish. Pedagog rejalashtirishda bolaning o'z g'oyasi asosida yoki uning tashabbusi bilan o'ynash uchun yetarli vaqt ajratadi, bunda bolalar shoshmasdan va kattalar tomonidan to'xtatilishidan qo'rqmasdan o'ynashlari mumkin. Bolalarga erkin o'yin uchun vaqt va kattalarning faol aralashuvizisiz o'zlarini va qobiliyatlarini ifoda etish imkoniyati beriladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish

Rejalashtirish davlat o'quv dasturini amalga oshirish va har bir bolada tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlashning muhim qismidir. Ta'lim va tarbiya jarayoni o'quv rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Rejalashtirish – o'quv dasturini yaratish va qo'llash jarayonining muhim qismi. O'quv reja – bu pedagoglarga bolaning sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlagan holda, davlat talablariga erishish, rivojlanishning asosiy va barcha sohalaridagi bolaning vakolatlarini ta'minlashga qaratilgan ta'lim faoliyatini amalga oshirishga imkon beradigan tashkillashtirilgan va tuzilgan hujjatdir. O'quv rejasini tuzishda bolaning yoshi va individual rivojlanish xususiyatlarini e'tiborga olish kerak. O'quv reja guruhi guruhning taxminiy kun tartibiga muvofiq har xil turdagi ta'lim va tarbiya jarayonining xilma-xil va oqilona almashinuvini ta'minlashga qaratilgan bo'lib 7, unda pedagog tomonidan bolalarning tanlovi va manfaatlarini hisobga olgan holda kundalik mashg'ulotlar, bolalar o'yinlari, mavzuli loyiha faoliyati, bosh vaq va boshqa turdagi o'quv mashg'ulotlari rejalashtirilgan. Kun tartibi ish maromini belgilashi va bolaga bir faoliyatdan ikkinchisiga muammosiz o'tishga yordam berishi kerak. Kun tartibini tuzishda muqobil shaklli guruhlar ishini tashkil qilishda kunduzgi uyqu hisobga olinmaydi, dam olish vaqti, sayr vaqti hisobga olinadi. O'quv reja turli xil ta'lim va tarbiya jarayoni shakllarini o'z ichiga olishi kerak. O'quv rejasini shakllantirishda o'yin maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar faoliyatining asosiy va yetakchi turi ekanligini hisobga olish kerak 8. Ta'lim va tarbiya jarayoni bolaning hayoti va uning atrof-muhitidan kelib chiqadigan yagona mavzular majmuiga birlashtirilgan va shuning uchun o'quv dasturi 9 aynan shu bir xil mavzular majmui doirasida rivojlanish markazlarida ta'lim va tarbiya jarayonining integratsiyasini ta'minlashi kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish ta'lim sharoitlariga qarab o'zaro bog'liqlik, xilma-xillik va moslashuvchanlik asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yil fasllari va ob-havo sharoitlarini ham hisobga olish kerak. O'quv rejasini shakllantirishda mintaqaning tabiiy-geografik va madaniy-tarixiy o'ziga xosligini hisobga olish kerak. Ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirishda maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasida hududning xususiyatlarini hisobga olgan holda 20 foizgacha bo'lgan hududiy komponent va davlat o'quv dasturida nazarda tutilgan majburiy komponentning 80 foizi ko'zda tutilgan 10. Mavzuli reja mavzu, maqsad, mazmun va tadbirlarni o'z ichiga oladi. Faoliyatni tanlashda ta'lim va

tarbiya jarayonining umumiy maqsadlari bilan birga rivojlanish sohaları maqsadlari, mazmun va faoliyatining integratsiyasi ham hisobga olinadi. Ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish davlat talablarini, shuningdek, davlat o'quv dasturini amalga oshirishga yordam beradigan qisqa muddatli (haftalik) va uzoq muddatli (yillik) rejalarni yaratishni o'z ichiga oladi. Mavzuli reja yozma shaklda bo'lishi kerak.

Bolaning rivojlanish sohaları bo'yicha yutuqlari

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning ta'lim olishi va rivojlanishini baholash kuzatishlar yordamida amalga oshiriladi. Pedagog bolalar hayotini muntazam va tizimli ravishda kuzatib boradi. Bolaning rivojlanishini kuzatish – pedagog faoliyatidagi muhim mas'uliyatli ish. Kuzatishlarning maqsadi ta'lim va tarbiya jarayonida bolaning turli bilim va ko'nikmalardan qanday foydalanishi haqida ma'lumot to'plashdir. Bolalarni turli joy, vaqt va sharoitlarda kuzatib, pedagog ularning qiziqishlari, kuchli tomonlari va ehtiyojlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi. Pedagogik kuzatishlar natijasida olingan ma'lumotlar asosida ta'lim va tarbiya jarayoni rejalashtiriladi va takomillashtiriladi. Kuzatish natijalarini hujjatlashtirish pedagogga ularni saqlash, vaqt o'tishi bilan sodir bo'lgan o'zgarishlarni kuzatish va bolaning ota-onalari, shuningdek, ushbu maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislari bilan bolalarning rivojlanishi va ta'lim olish xususiyatlari haqida ma'lumot almashish imkonini beradi. Bolaning rivojlanishi va ta'lim olishidagi yutuqlarini kuzatish va baholash natijalarini hujjatlashtirish uchun rivojlanish xaritalaridan foydalaniladi. Rivojlanish xaritasi kuzatuvlarni hujjatlashtirish shakli sifatida bolaning turli sohalaridagi rivojlanish darajasi to'g'risida muntazam ravishda ma'lumot to'plash jarayonini o'z ichiga oladi. Rivojlanish xaritasi davlat talablari asosida bolaning rivojlanish sohaları, kichik sohalar va kutilgan natijalarga tayanadi. Bolaning rivojlanish xaritasi har bir yosh guruhi (3-4, 4-5, 5-6, 6-7) uchun alohida yuritiladi va har bir bola 14 uchun bir yilda uch marta: o'quv yilining boshida, o'rta va oxirida to'ldiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidan chiqishda 6-7 yoshli 15 bolaning maktabga tayyorligi xaritasi (faqat MTT bitiruvchilari uchun) to'ldiriladi

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlari, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

- mazmunan boy – davlat o'quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar, jihozlar va xona va bino tashqarisidagi inventarlarning xilma-xilligi;
- o'zgartuvchan – ta'lim va tarbiya jarayoni vaziyatiga, shuningdek, bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarining o'zgarishiga qarab rivojlantiruvchi muhitda o'zgarishlar bo'lish imkoniyatini nazarda tutadi;
- polifunksional – rivojlantiruvchi muhitning turli tarkibiy qismlaridan xilma-xil foydalanish imkoniyati;
- muqobil – guruhda turli joylar, rivojlanish markazlari, shuningdek, bolalarning erkin tanlovini ta'minlaydigan turli xil materiallar, o'yinlar,

o'yinchoqlar va jihozlarning mavjudligi; o'yin materialining muntazam ravishda o'zgartirilishi, bolalarning o'yin, harakat, bilish va tadqiqot faoliyatini rag'batlantiradigan yangi buyum va ashyolarning paydo bo'lishi;

- hammabop – tarbiyalanuvchilar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan barcha faoliyat turlarini ta'minlaydigan o'yinchoqlar, qo'llanmalar, resurslar bilan ta'minlanganligi;

- xavfsiz – barcha elementlarni ulardan foydalanishning ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash talablariga muvofiqligini nazarda tutadi;

- oqilona – davlat o'quv dasturi va davlat talablariga muvofiq zamonaviy rivojlantiruvchi muhitni yaratish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotining turli ta'lim dasturlarini amalga oshirishni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish; inklyuziv ta'lim tashkil etilgan taqdirda, zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;

- mahalliy sharoitga moslashtirilgan – madaniy va tarixiy qadriyatlarga, milliy va mintaqaviy an'analar, tabiatga, iqlimga bog'liq xususiyatlar, hududdagi sanoat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lishi;

- shaxsga yo'naltirilgan – pedagog har bir bolaning o'z qiziqishiga ko'ra shug'ullanishini ta'minlashi kerak (bolalar guruh muhitida osongina harakat qilishadi, qayerda nima joylashganini biladilar, o'yinchoqlar va barcha resurslardan erkin foydalana oladilar). Rivojlantiruvchi muhitning mazmuni maktabgacha ta'lim tashkilotining sharoitlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kamida 5ta rivojlanish markazlarini tashkil etishni ta'minlashi kerak.

Davlat o'quv dasturi bo'yicha kutilayotgan ta'limiy natijalar

Davlat o'quv dasturini o'zlashtirishdan kutilayotgan ta'limiy natija maktabgacha ta'lim tashkilotini bitiruvchi bolaning tayanch kompetensiyalari (kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy, bilish)ning shakllanganligi hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagog kuzatishlar yordamida har bir bolaning rivojlanishini davlat talablarida qayd qilingan rivojlanish sohalari va kichik sohalar bo'yicha barcha yosh guruhida bolaning mumkin bo'lgan yutuqlarining ijtimoiy-me'yoriy yosh xususiyatlarini kuzatib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining individual xususiyatlari maktabgacha yoshdagi bolaning davlat talablariga to'liq mos keladigan ta'lim yutuqlariga qo'yiladigan talablarni cheklaydi va ta'lim dasturini o'zlashtirishda kutilayotgan natijalar shaklida aniqlash zarurligini belgilaydi.

Davlat talablariga muvofiq kutilayotgan natijalar:

- to'g'ridan-to'g'ri baholanmaydi, ya'ni bolalarning haqiqiy yutuqlarini davlat talablari bilan rasmiy taqqoslashga yo'l qo'yilmaydi (bunda bolalarning sinovdan o'tishlariga yo'l qo'yilmaydi);

- pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish, davlat o'quv dasturini o'zlashtirish sifatini baholash kabi boshqaruv vazifalarini hal qilish uchun rasmiy asos bo'la olmaydi;

- bolalardan kutilayotgan natijalar direktor va pedagoglar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayoni va MTT jamoasining kasbiy faoliyatini tahlil qilishga yordam beradi.

Resurs ta'minot

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat o'quv dasturini amalga oshirishning resurs ta'minoti O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Minimal resurslar bilan ta'minlanganlik kun tartibi va yillik rejada ko'zda tutilgan o'yin, qiziqishlarga ko'ra mashg'ulot va loyihaviy faoliyatlarni amalga oshirishni ta'minlashi kerak. Shu bilan birga, ilovada keltirilgan resurslar bilan bir qatorda ushbu markazlar va rivojlantiruvchi muhitni bolalar, otaonalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati mahsulotlari bilan jihozlash tavsiya etiladi; shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari zarur o'quv va rivojlantiruvchi didaktik materiallarni yaratishda mahalliy hamjamiyat resurslari va o'zlarining ijodiy qobiliyatlariga tayanishlari mumkin.

III BOB BO'YICHA XULOSA

1. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining mazmun-mohiyati, asosiy soha va kichik sohalar indikatorlari haqida tushuncha beriladi.

2. «Ilk qadam» davlat o'quv dasturining maqsad vazifalari va asosiy tamoyillari. Unda bolalar yosh guruhlari va bola rivojlanishiga qo'yiladigan talablarning yoritilishini organadi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishdan iborat.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotini tashkil qilishda kun tartibining ahamiyati. Kun tartibining turli yosh guruhlardagi farqi va "Ilk qadam davlat o'quv" dasturida yoritilishi haqida ma'lumot beriladi.

5. Turli yosh guruhlarda mashg'ulotlar va kun tartibini tashkil qilishdagi farqlar. Ilk qadam davlat o'quv dasturida mashg'ulotlar jadvali, ularning tuzilishi va mavzulari haqida tushunchalar shakllantiriladi.

6. Bolaning rivojlanish xaritasi (3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr), Maktabgacha ta'lim tashkilotidan chiqishda 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi to'ldirilish mezonlarini organadilar.

Nazorat savollari:

1. Davlat talablarining mazmun-mohiyati haqida gapirib bering.
2. Davlat talablarining rivojlanish sohalarihamdakichik sohalar haqida so'zlab bering.
3. Davlat talablarining vazifalari haqida gapirib bering.
4. Davlat talablarida berilgan indikatorlar (ko'rsatkichlar) haqida

ma'lumot bering.

5. Bolalar bilimini nazorat qilish haqida ma'lumot bering.
6. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi qachon tashkil qilingan?
7. Davlat o'quv dasturining nechta soha kompetentsiyalari mavjud?
8. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida bolaning rivojlanish xaritasi haqida so'zlab bering.

III BOB. YUZASIDAN TEST SAVOLLARI.

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining 4-sohasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) Bilish jarayonini rivojlanishi;
 - b) "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi"
- sohasiga;
- c) Ijtimoiy xissiy rivojlanish sohasiga
 - d) Ijodiy rivojlanish sohasiga

2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining 5-sohasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) Ijodiy rivojlanish;
- b) "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi"
- c) "Bilish jarayonining rivojlanishi"
- d) Ijtimoiy xissiy rivojlanish

3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasining kichik sohalari nechta?

- a) 3 ta;
- b) 5 ta;
- c) 4 ta;
- d) 2 ta;

4. "Ilk qadam" qanday dastur?

- a) davlat o'quv dasturi;
- b) Ishchi dastur
- c) Variativ dastur
- d) Tayanch dastur

5. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi qaysi hujjat asosida ishlab chiqilgan?

- a) ilk maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari;
- b) MTT Nizom asosida ishlab chiqilgan

- c) O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiya asosida ishlab chiqilgan
- d) Ta'lim to'g'risidagi Qonun asosida ishlab chiqilgan

6. Dasturdan qayerlarda foydalaniladi?

- a) davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida, mexribonlik uylari, boshlang'ich majburiy ta'lim, boshqaruv organlari tashkilotlari;
- b) Ixtisoslashtirilgan MTT
- c) Savodxonlik markazlari
- d) Mehribonlik uylari.

7. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetentsiyasi qaysi?

- a) kommunikativ, o'yin, ijtimoiy, bilish kompetentsiyalari
- b) Bola kompetentsiyalari
- c) Kichik soha, rivojlanish sohasi
- d) Ijodiy rivojlanish

8. Qaysi dastur ta'limda alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan?

- a) "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi;
- b) Bolajon tayanch dasturi
- c) Bilimdon dasturi
- d) Saodga tayyorlash

9. "Ilk qadam" o'quv-tarbiyaviy jarayonda rejalashtirishning qanday turlari qo'llaniladi?

- a) yillik, oylik, haftalik;
- b) kunlik xaftalik
- c) yillik
- d) o'ulik

10. MTTning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

- a) o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
- b) bolarni maktab ta'imiga tayyorlash
- c) bolalarni savodga tayyorlash
- d) bolalarni ijodiy rivojlantirish

11. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv yili qanday tashkil etiladi?

- a) 2 sentyabrdan 31 maygacha;
- b) Yil davomida
- c) 2 setyabrdan 1 dekabrgacha
- d) Xar oyda

12. Bolaning rivojlanish xaritasi asosida yil davomida necha marta kuzatuv jarayoni tashkil etiladi?

- a) 3marta (sentyabr, dekabr, may oyida);
- b) Xar chorakda
- c) Xar oyda
- d) Bir yilda bir marotaba

13. Oraliq kuzatuvning maqsadi nima?

- a) Kuzatishning maqsadi bolalar uchun tanlangan metodikaning to'g'riligini belgilash va rivojlanish dinamikasini aniqlashdan iboratdir;
- b) Bolalar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni bajarish
- c) Kuzatish va baholash
- d) Kuzatishdan maqsad bollar bilimini taxlil qilish

14. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari qanday sohalar bo'yicha belgilanadi?

a) jismoniy rivojlantirish sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-xissey rivojlantirish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish.

b) jismoniy rivojlantirish, o'z-o'ziga xizmat va gigeena ijtimoiy-hissey rivojlantirish nutqi, o'qish va savodga tayyorgarligi Bilish jarayoni, atrof olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash

c) badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish va badiiy estetik rivojlantirish. nutqi, o'qish va savodga tayyorgarligi

d) jismoniy rivojlantirish, madaniy gigienik kunikmalarni shakllantirish ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish; bilish jarayonini rivojlantirish; badiiy estetik qobiliyatlarni rivojlantirish

15. Bilish jarayonining rivojlanishi sohasining kichik sohalarini belgilang.

- a) Intelektual anglash malakalari; elementar matematik malakalar; tadqiqiy bilish va samarali refleksif faoliyat
- b) Atrof olambilan tanishtirish; tabiat bilan tanishtirish; elementar matematika
- c) Elementar matematik ko'nikmalar, badiiy ijodiy qobiliyat; badiiy estetik rivojlantirish

d) jismoniy rivojlantirish, madaniy gigienik kunikmalarni shakllantirish ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish; bilish jarayonini rivojlantirish; badiiy estetik qobiliyatlarni rivojlantirish

16. Ijtimoiy xissey rivojlanish sohasining kichik sohalarini belgilang

- a) "Men" kontsepsiyasi; xisseyotlar va ularni boshqarish; ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot;
- b) Kattalar bilan muloqot; tengdoshlar bilan muloqot; "Men" Kontsepsiyasi

c) "Men" kontsepsiyasi, xissey rivojlanish, o'zini ximoya qilish, o'zini anglash malakalari

d) Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot, Men kontsepsiyasi, Xissey rivojlanish

17. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari maqsadini belgilang.

a) mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

b) ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

c) bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashish.

d) maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

18. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining vazifalari

a) maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

b) bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi

c) xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan

d) bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

19. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari qaysi tashkilotlar bilan kelishilgan

a) Vazirlar Mahkamasi qoshidagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi va «Oila» Respublika ilmiy-amaliy markazi bilan kelishilgan.

b) O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi

c) Maktabgacha ta'lim muasasalari raxbar va mutaxassislarni kayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

d) Uzbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi

20. Integratsiyaga berilgan to'g'ri ta'rifni ko'rsating

a) bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

b) bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar

c) maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlari

d) bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

21. Refleksiv faoliyatga berilgan to'g'ri ta'rifni ko'rsating

- a) bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni
- b) bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;
- c) sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;
- d) inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar

22. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muasasalari davlat o'quv dasturi qachon tasdiqlangan

- a) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori
- b) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-sonli hay'at yig'ilishi qarori
- c) Adliya vazirligining 2018 yil 3 yuldagi 3032 sonli
- d) Adliya vazirligining 2017 yil 19 iyuldagi 2898 sonli

23. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muasasalari davlat o'quv dasturining tuzilishi kursatilgan qatorni belgilang

- a) Umumiy qoidalar, MTT ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillari, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv, o'quv tarbiyaviy faoliyat, bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari, rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish, ilovalar
- b) Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv O'quv-tarbiyaviy faoliyat
- c) MTT ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillar Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari, Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish
- d) Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari, Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish Yakuniy koidalar

24. Maktabgacha ta'lim muassasaning katta guruhida haftada nechta machg'ulot rejalashtirilgan?

- a) 17ta
- b) 10ta
- c) 12ta
- d) 15ta

25. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhida haftada nechta machg'ulot rejalashtirilgan?

- a) 18ta
- b) 10ta
- c) 12ta
- d) 15ta

26. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kichik guruhida haftada nechta machg'ulot rejalashtirilgan?

- a) 12ta
- b) 10ta
- c) 14ta
- d) 15ta

27. Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rta guruhida haftada nechta machg'ulot rejalashtirilgan?

- *a) 14ta
- b) 10ta
- c) 12ta
- d) 15ta

28. Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish davrini belgilang?

- a) 1 iyundan -31 avgustgacha
- b) 25 maydan -30 avgustgacha
- c) 2 maydan
- d) 30 iyulgacha

IV BOB.
BOLALARNI HUQUQIY TARBIYALASHDA QONUN
HUJJATLARIDAN FOYDALANISH.

§ 9. Oilaviy nodavlat maktabgacha maktabgacha ta'lim tashkilotlari
hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining
asoslari

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadi va vazifalarini, ularning faoliyatini tashkil etish, moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta'minlash, moliyalashtirish, ularni boshqarish tartibini belgilaydi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi imzolagan davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitimga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi⁶.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faqat davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta'minlash shakli asosida qishloq joylarda tashkil etiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yakka tartibdagi tadbirkor shaklida faoliyat yuritadi va bank hisob raqamiga, o'z nomi ko'rsatilgan muhrga ega bo'ladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadi va
vazifalari

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolalarni (keyingi o'rinlarda bolalar deb ataladi) har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish; ta'lim-tarbiya berish orqali bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash; bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining vazifalari: ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish; bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash; bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish; bolalarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta'minlash; bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari:

ota-onalar bilan kelishuv bo'yicha qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish (shu jumladan o'qituvchilar, murabbiylar, tibbiyot xodimlarini taklif qilish);

xizmatlar ko'rsatishdan tushgan mablag'lar hisobiga tarbiyachi va uning yordamchisi ishini qo'shimcha ravishda rag'batlantirish; foyda olish huquqiga ega.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tuman (shahar) hokimliklari tomonidan beriladigan belgilangan shakldagi ruxsatnomani qabul qilib olgan vaqtdan boshlab ta'lim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talab etilmaydi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari yakka tartibdagi tadbirkor bo'ladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga kirish joyida fuqarolarni oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti haqida ma'lumotlardan xabardor qilish maqsadida axborot peshlavhasi o'rnatiladi.

Unda tuman (shahar) hokimliklari tomonidan berilgan belgilangan shakldagi ruxsatnoma nusxasi, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim nusxasi, pedagog va tibbiyot xodimlarining diplomlari nusxalari, Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish tartibi va boshqa hujjatlarning nusxalari joylashtiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan 7 — 12 nafar bolalarga tarbiya berilishiga yo'l qo'yiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etilishi rejalashtirilayotgan uyda bolalarning sog'lom o'sishi va tarbiya olishlari uchun zarur shart-sharoitlar bo'lishi, bino va inshootlar yong'in xavfsizligi hamda sanitariya-epidemiologiya nazoratining sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos bo'lishi lozim.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan belgilangan tartibda davlat-xususiy sherikchilik to'g'risida bitim imzolagandan so'ng faoliyatini boshlaydi.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi tuzilgan bitimlarning yagona reestri Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan yuritiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim mazmuni maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga asosan ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z (mualliflik) dasturlaridan foydalanishga haqlidir. Ushbu dasturlarni tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'z (mualliflik) dasturlarida milliy, etnik va diniy adovatni targ'ib etishga qaratilgan buzg'unchilik g'oyalarini aks ettirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish tartibi va bolalarning muassasada bo'lish vaqti ota-onalarning istak va talablaridan kelib chiqib muassis tomonidan belgilanadi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 iyuldagi "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida" 595-sonli qarori

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida 5 kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida, quyidagi kunlik ish tartibi joriy etiladi:

9 soatli;

4 soatli.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqib, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning ovqatlanishi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari asosida amalga oshiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga tibbiy yordam ko'rsatish sog'liqni saqlash organlarining shartnoma asosida maxsus birlashtirilgan tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiyot xodimlari oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya qilinishi uchun javob beradilar. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, tegishli tibbiy xulosa asosida amalga oshiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish va muassasadan chiqarish tartibi oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining qarori bilan amalga oshiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalar soni 7 nafardan kam bo'lmasligi va 12 nafardan oshmasligi lozim.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan boshlanadi va keyingi yilning 1 iyuniga qadar davom etadi. 1 iyundan 1 sentyabrgacha bo'lgan davr muassasada sog'lomlashtirish davri hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilari.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (keyingi o'rinlarda ota-onalar deb ataladi), pedagog xodimlar ta'lim-tarbiya jarayonining qatnashchilari hisoblanadi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarni qabul qilishda ota-onalarni o'z ustavi, kun tartibi, ta'lim-tarbiya dasturlari va boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi shart.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ushbu muassasaning ustavi hamda shartnoma bilan tartibga solinadi. Ota-onalar bilan tuzilgan shartnoma bolalarning ushbu muassasada bo'lish vaqtini, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda tomonlarning huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini o'z ichiga oladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan tuzilgan bitimga asosan tarbiyalanuvchilar umumiy sonining 70 foizi miqdorida ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarning farzandlarini o'qitish, ular uchun kamida 3 yil davomida ota-onalar to'lovining imtiyozli hajmlarini (shu joydagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan hajmlardan oshmaydigan miqdorlarda) belgilaydi⁷.

Ota-onalar quyidagi huquqlarga ega:

o'z bolalari uchun ta'lim-tarbiya shakllarini, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim berish tilini tanlash;

oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim-tarbiya berish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini hamda bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;

oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma shartlarida belgilangan tartibda kun davomida o'ziga qulay bo'lgan vaqtda bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotidan olib ketish;

ota-onalar qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Quyidagilar ota-onalarning majburiyatlari hisoblanadi:

oilaviy nodavlat ta'lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq ota-onalar badalini o'z vaqtida to'lash;

oilaviy nodavlat ta'lim tashkilotida bolaga berilgan ta'lim-tarbiyani mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

Ota-onalar qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishlari mumkin.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi va xodimlari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hamkorlik, bolaning shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish asosida olib boriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida tegishli oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotli shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan (tegishli hududlarda oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotli talabgorlar mavjud bo'lmagan holatlarda) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlovdan o'tkazilgan shaxslar ham pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Sud tomonidan yoki tibbiy xulosaga muvofiq bunday faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 iyuldagi "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida" 595-sonli qarori

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagoglari va boshqa xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzish va ularni bekor qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari belgilangan tartibda pedagog kadrlar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qiladi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, mualliflik dasturlari, metodik qo'llanmalar va didaktik materiallar joriy etilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining huquq va imtiyozlari qonun hujjatlarida, ushbu muassasaning ustavida, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagog xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda ushbu muassasa ustavida belgilangan tartibda qatnashish;

o'z kasbiy sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagog xodimlari quyidagilarga majbur:

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish;

ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish bo'yicha o'ziga yuklangan vazifalar doirasida shart-sharoitlar yaratish;

bolalarga yuqori professional darajada ta'lim-tarbiya berish orqali maktabgacha ta'lim sifatini oshirish;

pedagog axloq-odobiga rioya qilish, bolaning qadr-qimmatini hurmat qilish, bolalarni tazyiqdan himoya qilish, ularni mehnatga, ota-onaga hurmat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

o'zining kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish.

Pedagog xodimlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishi mumkin.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini nazorat qilish

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish muassis tomonidan amalga oshiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari har chorakda kamida bir marta o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotni tuman maktabgacha ta'lim bo'limiga taqdim etadi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini nazorat qilish muassis tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarining va ta'lim-tarbiya dasturlarining

bajarilishini nazorat qilish ushbu sohadagi vakolatli organ — O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish, ularning faoliyatini vaqtincha to'xtatib turish va to'xtatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga mol-mulk qonun hujjatlarida belgilangan tartibda biriktiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti o'ziga biriktirilgan mol-mulkni va o'ziga ajratilgan mablag'lar hisobiga sotib olingan mol-mulkni qonun hujjatlariga muvofiq tasarruf etadi.

Maktabgacha ta'lim vazirligining hududiy organlari tomonidan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati uchun zarur bo'lgan jihozlar, asbob-uskunalar va o'quv materiallari beriladi. Mazkur jihozlar va o'quv materiallaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish va ularning saqlanishiga oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti javob beradi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq muassisning mablag'lari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan ajratiladigan subsidiyalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga quyidagi maqsadlar uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratiladi:

tarbiyachi va yordamchi xizmatlariga tegishli toifa bo'yicha qisqa muddatli yoki 9-soatlik davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan mehnatga to'lanadigan haqqa teng shartlarda va hajmlarda ish haqi to'lash;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan normativlar bo'yicha ovqatlanish, yumshoq inventar, anjomlar va dori-darmonlarga ajratilayotgan miqdorlarda xarajatlarni qoplash;

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan ham moliyalashtirilishi mumkin.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibini belgilaydi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida tashkil etiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tuman (shahar) hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

asosiy tushunchalar:

ruxsatnoma — vakolatli organ tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorga beriladigan, tadbirkorlik faoliyati sohasida harakatlarni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirish huquqini beradigan hujjat;

talabgor — yakka tartibdagi tadbirkor yoxud ularning ruxsatnoma olish uchun tegishli ariza bilan belgilangan tartibda orqali murojaat qiladigan vakolatli shaxsi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha mazkur nizomga ilovadagi shaklga muvofiq ruxsatnoma (keyingi o'rinlarda ruxsatnoma deb ataladi) cheklanmagan muddatga beriladi.

Talabgor arizasiga ko'ra, ruxsatnoma muayyan muddatga berilishi mumkin.

Ruxsatnoma yakka tartibdagi tadbirkorga oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va ularning faoliyatini yuritish huquqini beradi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga ruxsatnoma berish talablari va shartlari

Ruxsat berishga doir qoidalarga muvofiq oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va ularning faoliyatini amalga oshirish bo'yicha talablar va shartlar hisoblanadi:

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilish;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mulkka egalik qilish huquqi yoki boshqa mol-mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan binolar, inshootlar va sharoitlarning mavjudligi;

o'quv va tarbiya jarayonini davlat talablariga, o'quv rejalariga va ta'lim dasturlariga muvofiq tashkil etish.

oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, uning tarbiyalanuvchilari, pedagoglari va ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'risidagi ishonchli axborotni yozma shaklda tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limiga taqdim etish yoki Maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimiga kiritish.

Ruxsatnoma berish uchun mazkur Nizomning 6-bandida nazarda tutilmagan boshqa talab va shartlar belgilanishi mumkin emas.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bo'yicha ruxsatnoma olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bo'yicha ruxsatnoma olish uchun talabgor tomonidan tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limiga ariza bilan murojaat qilinadi va arizada yakka tartibdagi tadbirkorning ismi, familiyasi, otasining ismi ko'rsatiladi va unga quyidagilar ilova qilinadi:

pasportining ko'chirma nusxasi;

oilaviy nodavlat ta'lim faoliyatini amalga oshirish joyining manzili;

bank tashkilotining nomi va bankdagi hisob raqami;

oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan talabgor o'rtasida belgilangan tartibda imzolangan davlat-xususiy sherikchilik to'g'risida bitim nusxasi;

yong'in va sanitariya-epidemiologiya nazorati organlarining mavjud binolar va xonalarning yong'in xavfsizligi talablariga va sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosalari nusxalari;

oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotiga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat (tegishli hududlarda oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotli talabgorlar mavjud bo'lmagan hollarda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlovdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat) nusxasi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bo'yicha ruxsatnoma olish uchun talabgor tomonidan hujjatlar tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limiga bevosita yoxud ularning olinganligi to'g'risidagi bildirishnoma bilan pochta aloqa vositasi orqali yetkazib beriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bo'yicha ruxsatnoma olish uchun hujjatlar tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limining mas'ul shaxsi tomonidan ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, ro'yxatning nusxasi hujjatlar qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan holda arizachiga yuboriladi (taqdim etiladi).

Ishonchsiz yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi uchun ruxsatnoma talabgori qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Arizalarni ko'rib chiqish va ruxsatnoma berish yoki ruxsatnoma berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish

Ruxsatnoma talabgorining arizasi ko'rib chiqilgani uchun yig'im undirilmaydi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish bo'yicha tuman (shahar) hokimligi huzurida komissiya tuziladi va u tuman (shahar) moliya bo'limi, iqtisodiyot bo'limi, adliya bo'limi, qurilish bo'limi hamda maktabgacha ta'lim bo'limi boshliqlaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Komissiya toq sonli a'zolaridan va kamida yetti kishidan iborat bo'lishi kerak. Tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi boshlig'i komissiya kotibi hisoblanadi.

Komissiyaning ishchi organi tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi hisoblanadi. Tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi qabul qilingan hujjatlarni haqqoniyligini o'rganib chiqib, Komissiya yig'ilishi muhokamasiga kiritadi.

Komissiya yig'ilishida talabgor tomonidan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bo'yicha ruxsatnoma olish yuzasidan taqdim etilgan hujjatlar muhokama qilinadi va yig'ilish natijasida talabgorga ruxsatnoma berish yoki ruxsatnoma berishni rad etish masalasi bayonnoma bilan uch ish kuni mobaynida rasmiylashtiriladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish to'g'risidagi tuman (shahar) hokimining qarori talabgorning arizasi olingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida qabul qilinadi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berishni rad etish komissiya bayonnomasida asoslangan holda talabgorga komissiya yig'ilishi bo'lib o'tgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida ushbu bayonnomaning nusxasi taqdim etiladi.

Tuman (shahar) hokimligi ruxsatnoma berish bo'yicha qaror qabul qilganda talabgorga mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma rasmiylashtiriladi.

Ruxsatnoma ikki nusxada — talabgor va tuman (shahar) hokimligi uchun bir nusxadan tuziladi.

Ruxsatnoma berish quyidagi asoslarga ko'ra rad etilishi mumkin:

murojaat etuvchi tomonidan mazkur Nizomning 9-bandida nazarda tutilgan hujjatlarning to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilishi;

talabgor tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligi.

Ruxsatnoma berishni boshqa asoslar bo'yicha rad etish qat'iyani taqiqlanadi.

Ruxsatnoma berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan holatlarda murojaat etuvchiga yozma shaklda, shu jumladan, axborot tizimi orqali elektron shaklda rad etish sabablari, qonun hujjatlarining aniq normalari va murojaat etuvchi ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, takroran murojaat qilishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan rad etish haqidagi xabarnoma yuboriladi (taqdim etiladi).

Ruxsatnoma berishda rad uchun asos bo'lgan sabablar murojaat etuvchi tomonidan bir oy muddatda bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish, ruxsatnoma berish yoki uning berilishini rad etish tuman (shahar) hokimligi tomonidan murojaat etuvchining rad etish sabablarini bartaraf etganligi to'g'risidagi arizasi va rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar olingan kundan e'tiboran 10 kundan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Nizomning qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob berishadi⁸.

§ 10. BOLALARNI BOSHLANG'ICH TA'LIMGA MAJBURIY BIR YILLIK TAYYORLASHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrtdagi "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli qarori bilan mos holda maktabgacha ta'lim tizimini kelgusida takomillashtirish, sog'lom, faol, to'la rivojlangan, ijtimoiy moslashgan bola shaxsini shakllantirish, shuningdek, boshlang'ich ta'limga bolalarning sifatli tayyorgarligi va kelgusidagi muvaffaqiyatli o'quv faoliyatiga shart-sharoitlarni yaratish maqsadlarida respublikaning barcha xududlarida bosqichma-bosqich tarzda 6-7 yoshli boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy yillik tayyorlash guruhlari tashkil etiladi.

Mazkur guruhlarda bolalar har tomonlama rivojlanadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalar bilan ishlash borasida har qanday yangi ish kabi ma'lum bir qiyinchiliklarga duch keladi.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 iyuldagi "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida" 595-sonli qarori

"Ilm yo'li" variativ dasturi mualliflari tomonidan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarni boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik to'lovsiz tayyorlash bo'yicha guruhlardagi pedagogik jarayonni to'laqonli ravishda tashkil etishga yordam beradigan metodik tavsiyanomalar ishlab chiqilgan.

Shuni ko'zda tutish kerakki, maktabgacha ta'lim qamrab olingan va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnamagan bolalarning rivojlanish darajasi sezilarli ravishda farqlanadi. Aynan mana shuning uchun ham kelgusi barcha ishlar asosiga har bir tarbiyalanuvchining individual qirralari va intellektual imkoniyatlari sinchiklab o'rganilishi qo'yilishi zarur bo'ladi.

Eslatib o'tamizki, o'qitish va tarbiyalash tizimi ham maktabgacha ta'lim tashkilotida, ham oilada bolalar faoliyatining istalgan turi ko'rinishida, shu jumladan, o'quv mashg'ulotlarida o'yinlardan foydalanish negizida olib borilishi lozim.

6-7 yoshli bolalarning o'qitilishini tashkil etish mazkur guruhlarda individual, hamkorlikdagi mashg'ulotlar yoki rivojlanish markazlarida kichik guruhlar bo'yicha didaktik va rolli o'yinlar, kuzatishlar, tajriba qilish shaklida olib borilishi mumkin.

Pedagoglarni dastur vazifalari soddalashtiriladigan va har bir kichik guruhdagi bolalar differentsiyalanmaydigan vaziyatlarda amalda uchrab turadigan xatoliklardan ehtiyot bo'lishlarini ta'kidlab o'tamiz. Bunday vaziyatlarda yuqori mahorat va ko'nikma darajasiga ega bo'lgan bolalarda dastur talablarning pasaytirilishi ulardagi qobiliyatlarni sun'iy ravishda pasaytiradi, mashg'ulotga yoki o'yinga qiziqishning yo'qolishiga olib keladi. Pastoq darajadagi mahorat va ko'nikmalarga ega bolalar esa murakkab vazifalarni uddalay olmay qoladilar va ular ham berilgan vazifalarni bajarishga qiziqishlarini yo'qotadilar.

Bolaning individual o'ziga xosliklarini bilish pedagoglarga o'qitishni muvaffaqiyatli tashkil etishga imkon beradi, har bir bola rivojlanishining darajasini aniqlash esa diagnostik mashqlar yordamida amalga oshirilish mumkin. Bunda bitta bolada nutq mahorati yuqori, boshqasida esa tasviriy mahorat past bo'lishi mumkin, bularni bolalar bilan ishlashda e'tiborga olmaslik mumkin emas.

O'qitish jarayonini boy va turli-tuman o'yinlar dunyosi bilan uyg'unlashtirish bu jarayonni mazmunli va qiziqarli qiladi, istalgan, hatto bolaning nuqtai-nazaridan befoydali o'quv topshiriqlarini bajarish esa qiziqarli va foydali bo'lib qoladi.

O'qitish jarayoniga o'yinlarning kiritilishi bolalarda taklif etilayotgan o'quv mazmunini egallash istagini uyg'otadi, o'quv faoliyati motivatsiyasini yaratadi va olingan natijalardan faxrlanish imkonini beradi.

Ravshanki, ota-onalar pedagoglarning birinchi yordamchilari bo'lishlari kerak. O'zaro yordamsiz va bir-birini qo'llab-quvvatlashsiz bolani to'laqonli rivojlantirish vazifasini bajarish mushkuldir. Ota-onalarga kishi shaxsining butun kelgusi hayoti davomidagi rivojlanishi asoslarini ta'minlovchi bosqich sifatida maktabgacha bo'lgan davrning ahamiyatini, qadr-qimmatini va noyobligini tushuntirish zarur bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy yillik tayyorlash bo'yicha

guruhlardagi ta'lim jarayonini tuzish quyidagi bir qator shart-sharoitlarga javob berishi kerak:

1. Maktabgacha yoshdagi bolaning kun tartibida faoliyatning har xil turlarini – o'quv, o'yinli, mehnat kabilarni maqsadga muvofiq tarzda taqsimlash, shuningdek, ularni dam olish va musatqil mashg'ulotlarni navbatma-navbat qo'llash, bu bolalarning charchab qolishlari oldini oladi;

2. Maktabgacha ta'limning variativ shakllarini tashkil etishda ta'lim ishlari mazmuni bolalar faoliyatining turli sohalarini qamrab olishi, bilimlarning predmetli sohalar integratsiyalanishini ta'minlashi, shaxsning tayanch milliy madaniyatini shakllantirishi kerak. Bu bolaga kelgusida boshlang'ich maktabda nazariy bilimlarni va amaliy mahoratni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

Bolalarning to'laqonli psixofizik rivojlanishi uchun eng muhim shart bo'lib atrofdagilar bilan muloqot qilishda qulay emotsional psixologik iqlimning mavjudligi va uning yaratilishi sanaladi.

Bu yerda ko'p narsa pedagogning pedagogik jarayonni qanchalik to'g'ri tashkil eta olishiga, barcha rejimli lahzalarni amalga oshirishiga, bolalar jamoasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogning professionalizmi bolalar bilan muloqot qila olishidan, ular orasidagi hamkorlikdagi faoliyatda xoyrixohlarcha munosabatlarni o'rnatishidan, nizoli vaziyatlarga yo'l qo'ymasligidan va bolaga o'z vaqtida yordam bera olishidan iborat bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bola organizmining funktsional holatiga sezilarli ta'sirni o'quv mashg'ulotlari ko'rsatadi. Faoliyatning bu turi boladan ma'lum bir urinishlarni, harakatli faollikning cheklanshini, pozani kuchaytirishni, diqqatni barqarorlashtirishni talab qiladi.

Bilishga doir faoliyatni tashkil etishda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- bolalarning yoshga doir fiziologik imkoniyatlariga mosligi;
- dasturiy materiallarni soddadan murakkabga qarab berilishi bosqichliligi;
- faoliyatning turli xillarini maqsadga muvofiq tarzda navbatma-navbat qo'llash va o'z vaqtida bir turdan ikkinchisiga o'tish;
- mashg'ulotlar yoki ularning qismlari orasida dinamik pauzalar mavjudligi;
- xonaga va materiallarga gigienik talablarni hisobga olish;
- o'quv jarayonida didaktik tamoyillarga rioya qilish;
- bolaga individual differentsiatsiyalangan yondashuvni amalga oshirish.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maburiy bir yillik tayyorlov guruhlaridagi ta'lim jarayonini tashkil etish modeli o'z ichiga quyidagi uchta tarkibiy qismlarni oladi:

1. Reglamentlangan o'quv mashg'ulotlari bloki.
2. Bolalar bilan katta yoshli kishining hamkorlikdagi sheriklik faoliyat bosqichi.
3. Erkin mustaqil faoliyat bosqichi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning bilishga doir rivojlanishi ta'lim jarayonining mana shu barcha bosqichlarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga 3,5-4 soatga keladigan bolalar uchun ta'lim jarayoni maksimal darajada ixcham tarzda tashkil qilinishi kerak, bunda tig'iz vaqt sharoitlarida bola rivojlanishidagi hech qaysi bir muhim yo'nalish ko'zda qochirilmasligi lozim. Badiiy kitoblarni o'qish mashg'ulotlar jadvalidan tashqariga bemaolol chiqarilishi mumkin va ota-onalarga uyda bolaga kitobni qanday o'qib berishni tushuntirish zarur bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalar katta yoshli kishining bola bilan o'zaro harakatlarining barcha yo'nalishlariga kelishilgan yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Maktabgacha bo'lgan bolalikning har bir yosh bosqichida mazkur davrning o'ziga xosligidan va oila hamda maktabgacha ta'lim tashkilotidagi sharoitlarida hal qilish lozim bo'lgan vazifalardan maksimal darajada foydalanish tamoyiliga rioya qilinadi.

Ta'lim ishlarni tashkil etish ota-onalarga va pedagoglarga bolalarning tarbiyalanishiga hamda rivojlanishiga o'z munosabatlarini umumiy misollar to'plami tarzida emas, balki oldingi tajribalari, qiziqishlari, qobiliyatlarini hisobga olish bilan bola yoshining psixologik o'ziga xosliklarini bilish asosida konkret bola bilan muloqot qilish san'ati sifatida olib qarashga yordam beradi.

Oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida paydo bo'lgan qiyinchiliklarni e'tiborga olmaslik ham mumkin emas. Faqat oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining xamkorligida xohlanayotgan natijaga erishish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy yillik tayyorlov bo'yicha guruhlardagi bola sog'ligini mustahkamlash va ularning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq ishlar quyidagilarga yo'naltiriladi:

- bolaning sog'lomlashtirilishi va jismoniy rivojlanishi masalalarida oilaning kompetentligini oshirish;

- bolalarda o'z sog'ligiga ongli munosabatni shakllantirish, ularni sog'liqni mustahkamlashning ommabop usullari bilan tanishtirish;

- sog'liq holatining individual o'ziga xosliklarini hisobga olish bilan maktabgacha yoshdagi bolalarning harakatli sifatleri va qobiliyatlarini rivojlantirish.

Bolalar bilan ishlashda **nutq rivojlanishi bo'yicha** ijobiy natijalarga erishish uchun mazkur guruhlariga qatnovchi bolalarning o'zlari haqida tasavvurlarga ega bo'lish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini har tomonlama tekshirib chiqish zarur bo'ladi. Tekshirishni bolalar bilan ishlovchi pedagoglar va defektolog (agar u bo'lsa) bilan parallel ravishda olib borish lozim.

Natijalar tahlili quyidagilarga imkon beradi:

- mutaxassislarining yordamiga ehtiyoj sezadigan, nutq rivojlanishi sust va patologiyali bo'lgan bolalarni aniqlash;

- bolalarning nutq rivojlanishi darajasi bo'yicha yetarlicha kontrastli bo'lgan kichik guruhlarini ajratib olish, ulardan birinchisiga nutqning turli tomonlarini yaxshi egallagan maktabgacha yoshdagi bolalar, ikkinchisiga esa nutqi sust yoki yomon bo'lgan bolalar kiradi.

Ko'plab maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ rivojlanishi yetarlicha qulay amalga oshadi. Ular ham o'z tengdoshlari, ham katta yoshlilar bilan

aloqa o'rnatadilar, birgalikda ishlash va o'ynash haqida kelisha oladilar, o'zlaricha reja tuzadilar; ular o'z iltimoslarini ifodalab bera oladilar, xabar bera oladilar va shu kabilarni amalga oshiradilar; muloqotning turli xil vositalari – nutqli, mimikali, qo'l harakati bilan usullarni o'zlashtirgan bo'ladi.

Shu bilan birga tan olish lozimki, maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarning ko'pchilik qismi kommunikativ faoliyatni egallashda ma'lum bir qiyinchiliklarni boshdan o'tkazadilar. Bu qiyinchiliklar yorqin ifodalangan xususiyatga ega bo'lishi mumkin, lekin ular ko'pincha unchalik ham sezilmaydigan bo'ladi. Ularni bolalarning kattalar bilan o'zaro harakatlari, tengdoshlari, sheriklik o'yinlari, birgalikdagi o'yinlar tizimini sinchiklab o'rganib chiqish davomida aniqlaydilar. Kattalar odatda buning sababini bola xarakterining o'ziga xosliklarida deb biladilar, aslini olganda esa bunday hodisaning ildizlari maktabgacha yoshdagi bolaning shakllantirilmagan kommunikativ faoliyatidan izlash kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ xulq-atvori paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan pedagog faoliyatida ikkita asosiy yo'l belgilanadi:

- bola tomonidan o'z tengdoshlarini anglashini rag'batlantirish, ular bilan ishbilarmonlik hamkorligini rivojlantirish va umumiy qiziqishlarni shakllantirish bo'yicha maxsus ishlar;

- maktabgacha yoshdagi bolaning turli xildagi kommunikativ vositalarni (emotsional mimikaviy, pantomimik, qo'l harakati bilan, so'zli) qabul qilish va ulardan foydalanish qobiliyatini takomillashtirish.

Elementar matematik tasavvurlarni (matematikani) rivojlantirish sohasida maktabgacha ta'lim mazmunining asosiy yo'nalishlari:

- son va miqdor haqida, shakl, qiymat va uni aniqlash usullari haqida tasavvurlarni shakllantirish;

- makonli-maydon va vaqt yo'nalishlarini takomillashtirish.

Har bir yo'nalish bolalar uchun ommabop, konkret bo'lgan mazmun bilan to'ldiriladi va ko'rgazmali asosda atrof-muhitdagi predmetlarning xossalari (qiymati, shakli, miqdori) haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogning harakatlarini quyidagilarga yo'naltirish lozim:

- bolalarning yaratuvchanlik natijador faoliyatiga
- kattalar bilan bilishga doir muloqoti uchun shart-sharoitlarni ta'minlashga, bolada paydo bo'ladigan savollarni muhokama qilishga;

- maktabgacha yoshdagi bola uchun qiziqarli va ommabop bo'lgan hodisalarni kuzatishlarni kollektisyalashga;

- maxsus adabiyotlarni o'qishga;

- tajribalar o'tkazish, kuzatish va bilishga doir faoliyat jarayonini va natijalarini bola bilan muhokama qilishga.

Bunda elementar matematik tasavvurlarning rivojlanishi ilm-fanga ma'lum bo'lgan tushunchalar va bog'liqliklar bola tomonidan mustaqil ravishda kashf qilinadi, bola tomonidan eng muhim qonuniyatlar o'rnatiladi. Didaktik o'yinlar, topshiriqlarni birgalikda bajarish o'qitish jarayonini qiziqarli, ommabop va rivojlantiruvchi o'qitishga aylantiradi.

Bilish faoliyati bolaning olg'a siljishdagi individual sur'ati bilan belgilanadi. Bunda didaktik ta'sir ko'rsatishlarning mazmunini va takrorlanuvchanligini tanlab olishda individual dozirovkaga erishiladi. Kuzatishlar ko'rsatadiki, maktabgacha yoshda bola uning o'zi tanlab olgan faoliyat eng katta samaradorlik bilan amalga oshiriladi.

Bu faoliyatning shiori bo'lib **"Menga ayt – men yoddan chiqarib qo'yaman"**, **"Ko'rsat menga – men eslab qolaman"**, **"Meni qiziqtir – men o'rganaman"** kabilar hisoblanadi.

Istalgan **badiiy faoliyatning** eng muhim sifatlaridan biri bo'lib uning ijodiy xususiyati sanaladi. Bolalar tasavvuriga xos bo'lgan yorqinlik, yengillik va tezkorlikka bog'liq holda bola o'z ijodkorlik faoliyatida muvaffaqiyatli yechimlarga erishishi mumkin.

Bolalarning badiiy-estetik rivojlanishida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- faollikning barcha turlarida bolaning hissiy tajribalari boyitilishi;
- berilgan yoshga mos keluvchi badiiy faoliyatni tashkil etish;
- bolaga faoliyat turini, syujetini, materialini, va vositalarini tanlash imkoniyatining taqdim etilishi;
- bolalarcha soddadillikni qo'llab-quvvatlash, bolada tasavvurlarni, fantaziyani rag'batlantirish.

Bolaning badiiy-estetik tarbiyalanishida ishtirok etishga va maktabgacha ta'lim tashkilotining hayotida ishtirok etishga ota-onalarni jalb etishning eng istiqbolli shakllari bo'lib quyidagilar sanaladi:

- ota-onalar va pedagoglar bolalar bilan eng to'laqonli muloqot qilish tajribasi bilan almashinadigan mavzuiy ko'rgazmalar;

- bolaning mintaqaviy madaniyatni bilib olishiga yo'naltirilgan muzeylarga sayohatlar;

- ota-onalar bilan bayramlar, bolalar ishlari ko'rgazmasini o'tkazish.

Oila pedagog uchun faqat ta'sir ko'rsatish ob'ekti bo'lib qolmasligi kerak, mazkur guruhlar pedagoglaridan bola uchun oila – bu hayotiy zarur bo'lgan muhit ekanligi, ko'p jihatdan bolaning shaxs sifatida shakllanishini belgilovchi ekanligini o'zlari tushunishlari va buni ota-onalarga singdirishlari talab qilinadi.

Ota-onalarning pedagogik jarayon doirasiga jalb etilishlari, ularning bu jarayondan manfaatdor tomon sifatida ishtirok etishlari pedagog shuni xohlagani uchun emas, balki ularning o'z farzandlari rivojlanishi uchun kerakdir.

Ta'lim jarayonida quyidagi bir nechta yo'nalishlar bo'yicha differentsiallashgan va individual yondashuvlar yuzaga chiqariladi:

- mashg'ulotlarda ko'rgazmali metodlardan (predmetlar namunalarni ko'rsatish, harakat usullarini namoyish etish), so'zli (savollar, ko'rsatmalar, tushuntirishlar), o'yinli metodlar va usullardan keng foydalaniladi. Mazkur yoshning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda pedagog hikoyasidan kamdan-kam hollarda foydalaniladi.

Pedagogik jarayonlarda ota-onalarning ishtirok etishlari darajasining o'zgarishi quyidagi sxema bo'yicha ro'y beradi:

•ota-onalar bilan parallel ravishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni MTT mutaxassisarlari ham olib boradilar. Ular barcha qiziqtiradigan masalalar bo'yicha seminar-praktikumlar, maslahatlar, individual suhbatlarni tashkil etadilar;

•bolalarning rivojlanishni nazorat qilish va tahlil qilish, bu bolalarning kunduzi qisqa vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'ladigan guruhlaridagi ta'lim-tarbiya ishlarining tarkibiy qismi bo'lib, u quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

•psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatishning individual yo'naltirilganligini aniqlash, u quyidagilar bilan ifodalanadi:

•har bir bolaning xulq-atvori va rivojlanishi ustidan kuzatib borish;

•tarbiyaviy ta'sirlarni o'z vaqtida korrektsiyalash haqida qarorlarni qabul qilish.

§11. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KUZATUV KENGASHNING O'RNI VA YURITILISHI

Maktabgacha ta'lim vazirining 2018 yil 21 noyabrdagi 2-mh-son buyrug'iga buyrug'i bilan Maktabgacha ta'lim muassasasining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizom tasdiqlandi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining kuzatuv kengashi haqidagi NAMUNAVIY NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi PQ-3955-son «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasasi Kuzatuv kengashining (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari, vakolatlari hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga (bundan buyon matnda muassasa deb yuritiladi) tatbiq etiladi.

Mazkur Nizom nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega.

2. Kengash yuridik shaxs hisoblanmaydi va davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi.

Kengash muassasani boshqarishda strategik organ hisoblanadi.

3. Kengashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

muassasaning ustuvor vazifalarini belgilash;

maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'linmasi (bundan buyon matnda hududiy bo'linma deb yuritiladi) tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarini saylash;

muassasaning maqsadlari va vazifalarini hamda ularga erishish rejalarini tasdiqlash;

muassasada amalga oshirilishi belgilangan vazifalarning bajarilishi va maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi ustidan nazorat olib borish.

2-bob. Kengashning vazifalari

5. Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

hududiy bo'linma tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan muassasa rahbarini saylash, shuningdek uni egallab turgan lavozimidan ozod etish haqida takliflar kiritish;

muassasani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

muassasa faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet va byudjetdan tashqari hamda homiylik mablag'laridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida muassasa rahbarining hisobotlarini tinglash;

muassasaning yillik moliyaviy rejalarini, ko'rsatilayotgan pullik xizmatlar narxining miqdorlarini va muassasa mulkidan foydalanlik uchun ijara haqi miqdorini, shu jumladan auksiondagi boshlang'ich narxni muassasa rahbarining ishtirokida tanishib chiqish va takliflar berish;

muassasa rahbari, pedagog va boshqa xodimlarining faoliyati bo'yicha ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

muassasada tarbiyalanuvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ularni yaxshilash bo'yicha ota-onalar va jamoatchilik tashkilotlari va homiyilar bilan hamkorlik qilishda amaliy yordam ko'rsatish;

muassasani rivojlantirishga doir ustuvor yo'nalishlarni belgilash bo'yicha ta'lim muassasasi rahbarining dastur va rejalarini yuzasidan hududiy bo'linmaga takliflar kiritish;

muassasaning xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha hududiy bo'linmaga takliflar berish.

Kengash qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Kengash faoliyatini tashkil etish va tarkibini shakllantirish

6. Muassasada bolalarning sifatli ta'lim olishlari, ularga tegishli shart-sharoitlar yaratish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida muassasa rahbariga ko'maklashish uchun har bir muassasada Kengash tashkil etiladi.

7. Kengash 11 kishidan kam bo'lmagan toq sondan iborat tarkibda tuziladi. Bunda, Kengash tarkibiga muassasaning pedagoglari orasidan 2 nafar, tarbiyachi yordamchilari orasidan 2 nafar, muassasa ma'muriyatidan 1 nafar, tegishli hududiy bo'linmadan 1 nafar, jamoat tashkilotlari va homiyilar orasidan 2 nafar hamda har bir guruhida tarbiyalanuvchilarning ota-onalaridan kamida 3 nafar, a'zo kiritiladi.

Kengash a'zolarining soni cheklanmaydi.

8. Kuzatuv kengashi har bir guruhdagi tarbiyalanuvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rinini bosuvchi shaxslar, pedagoglar, tarbiyachilar yordamchilari, maktabgacha ta'lim muassasasi ma'muriyati, hududiy bo'linma xodimlari orasidan shakllantiriladi.

9. Kengashning birinchi yig'ilishida ishtirok etayotgan a'zolar umumiy sonining oddiy ko'pchilik ochiq ovoz berishi orqali Kengash raisi va kotibi

saylanadi. Bunda, Kengash raisi va kotibi Kengash a'zosi hisoblangan ota-onalar orasidan saylanadi.

10. Kengash tarkibi 3 yil muddatga saylanadi. Bunda Kengash tarkibi har o'quv yili boshida ko'rib chiqilishi mumkin.

11. Kengash a'zolarining saylashda muassasada tarbiyalanayotgan bolalarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (ulardan biri) ishtirok etishi mumkin.

12. Kengash a'zolari muassasa tarbiyalanuvchilari ota-onalarining umumiy yig'ilishida ochiq ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

13. Kengash a'zosi etib saylangan ota-onalarning farzandlari muassasada tarbiyalanuvchilar qatoridan chiqarilganda, kengashning ushbu a'zosi kengash a'zolari qatoridan chiqariladi va uning o'rniga ota-onalar orasidan boshqa a'zo saylanadi.

14. Muassasa ma'muriyati xodimlari, pedagoglar, tarbiyachilar, tarbiyachi yordamchilari Kengashga yashirin ovoz berish orqali saylanadi va muassasa pedagogik kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

15. Kengash a'zolisiga hududiy bo'linma vakili tegishli tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'linmasi buyrug'i bilan tayinlanadi.

16. Muassasaning rahbari yoki uning o'rinbosarlari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari Kengash a'zolari sifatida saylanishiga yo'l qo'yilmaydi.

17. Kengash a'zosi Kengashning yig'ilishlarida surunkali 3 marta uzrli sabablarsiz ishtirok etmagan taqdirda, u Kengash a'zolari tarkibidan chiqariladi.

4-bob. Kengash yig'ilishlarini tashkil qilish va o'tkazish

18. Kengashning birinchi yig'ilishi muassasa rahbari tomonidan tashkillashtiriladi va o'tkaziladi.

19. Kengash har chorakda kamida bir marta yig'iladi.

20. Kengash yig'ilishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

21. Kengash yig'ilishida uning umumiy a'zolaridan 60 foizi ishtirok etganda Kengash qaror qabul qilishi mumkin.

22. Kengash o'z faoliyatini daxlsizlik, oshkoralik, shaffoflik, adolatlilik tamoyillariga muvofiq amalga oshiradi.

23. Kengash qarorlari a'zolarining teng huquqliligi asosida oddiy ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

24. Kengash yig'ilishlariga Kengash raisi raislik qiladi.

25. Kengash raisi o'z vakolatini vaqtincha bajarish imkoniyati bo'lmagan hollarda (xizmat safari, ta'til va kasallik davrida), uning vazifasini bajarish Kengash a'zolaridan biriga vaqtincha yuklatiladi. Bunda, muassasa va hududiy bo'linma xodimlariga yuklatilishi mumkin emas.

26. Kengash yig'ilishida muassasa rahbari yoki uning o'rinbosarlari kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

27. Kengash yig'ilishlari mazkur Nizom talablariga muvofiq tashkillashtirishi va o'tkazilishi hamda hujjatlarining to'g'ri va to'liq rasmiylashtirilishi uchun Kengash raisi mas'ul hisoblanadi.

28. Kengash yig'ilishi o'tkazilishidan kamida 10 kun oldin yig'ilish o'tkaziladigan kun, vaqti, joyi va muhokama etiladigan masalalar haqida Kengash a'zolari xabardor qilinishi lozim. Kengash a'zolarini xabardor qilish uchun Kengash raisi mas'ul hisoblanadi.

29. Muassasa rahbari Kengash yig'ilishlarini o'tkazish va uning ishini tashkil qilish (hujjatlarini rasmiylashtirish va saqlash uchun zarur bo'lgan xona, muassasa faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar va kanselyariya jihozlari) uchun mas'ul hisoblanadi.

30. Kengashning faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni har chorakda muassasaning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida yoki muassasaning barcha ko'rishi mumkin bo'lgan joyiga joylashtirish tavsiya etiladi.

31. Kengash yig'ilishlari o'tkazilganligi haqidagi bayonnomalari Kengash yig'ilishi o'tkazilgan kundan boshlab 3 kundan ko'p bo'lmagan muddatda hududiy bo'linmaga taqdim etilishi lozim.

5-bob. Kengashning huquq va vakolatlari

32. Kengash o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

muassasaning tegishli davrdagi faoliyati bo'yicha muassasa rahbaridan ma'lumotlar so'rash va olish;

muassasaning moliyaviy hisobotlari bilan tanishish;

homiylilik va xayriya mablag'larining kirim qilinishi va sarflanishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish;

muassasa pedagog xodimlarining sha'ni, qadr-qimmatini, obro'sini himoya qilish bo'yicha takliflar kiritish.

§ 12. "YUNESKO" tashkilotining Bolalar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi

Nyu-York shahrida 1989-yil 20-noyabr kuni qabul qilingan va 1990-yil 2-sentyabr kuni kuchga kirgan. Bugungi kunda Konvensiyaga a'zo davlatlar soni – 196 ta. Konvensiyani imzolagan, lekin ratifikatsiya qilmagan davlatlar soni – 1 ta (AQSH). O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrda 757-XII-sonli —Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish haqidagi muvofiq qo'shilgan. Konvensiya O'zbekiston Respublikasi uchun 1994-yil 29-iyuldan kuchga kirgan. Konvensiyaga muvofiq har bir shaxs 18 yoshga to'lgunga qadar bola deb e'tirof etiladi. Konvensiya 54 moddadan iborat bo'lib, unda quyidagi asosiy normalar belgilangan:

1-4-moddalarda: —bolalarning tushunchasi, bolalar manfaatlarining ustuvorligi va ishtirokchi-davlatlarning Konvensiyada belgilangan huquqlarni kamsitishsiz amalga oshirish choralarini ko'rish majburiyati;

5-11-moddalarda: hayotga, ismga, fuqarolikka, ota-onasini bilish huquqiga, ota-onaning g'amxo'rligi va ajralmasligiga, ota-onalarning bolalarga nisbatan huquqlari va majburiyatlari;

12-17-moddalarda: bolalarning o'z nuqtayi nazarini, o'z fikrini bildirish, fikrlash, vijdon va din erkinligi, uyushish va tinch yig'ilishlarga bo'lgan huquq, bolaning axborotga ega bo'lish va uni tarqatish huquqlari;

18-27-moddalarda: davlat tomonidan bolaning ota-onalariga va qonuniy vakillariga yordam berish, shuningdek bolalarga ularni tarbiyalovchi shaxslar tomonidan qo'pol muomala bo'lish, ularning tahqirlanishidan himoya qilish, oilaviy muhitdan mahrum bo'lgan yoki asrab olingan, aqliy yoki jismoniy jihatdan zaif bolalarni himoya qilish, bolalarning sog'liqni saqlash sohasidagi huquqlari, shuningdek, bolalarning ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turmush darajasi to'g'risidagi normalar;

28-31-moddalarda: bolalarning ta'lim olish, ona tili va madaniyatidan foydalanish, dam olish olish va madaniy sohadagi huquqlari; 32-36-moddalarda: davlatning bolalarni noqonuniy ekspluatatsiya qilinishdan, giyohvand moddalarni noqonuniy iste'mol qilish, o'g'irlash va bolalar savdosidan himoya qilishga oid majburiyatlari;

37-41-moddalarda: sodir etilgan jinoyatlar uchun jazodan ozod qilish imkoniyati bo'lmasa o'lim va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolari 18 yoshga to'lgunga qadar sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo'llanilmasligi, bolalarga nisbatan qiynoqqa solish va qadr-qimmatni kamsituvchi jazo ta'qiqlanishi, jinoiy xatti-harakatlar sodir etishda ayblanayotgan bolaning huquqlari, shuningdek qurolli to'qnashuvlar va urushlar paytida bolalarni himoya qilish normalari. Konvensiyaning a'zo davlatlar tomonidan bajarilishi ustidan monitoringni BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi amalga oshiradi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya Muqaddima Ushbu Konvensiyada ishtirokchi-davlatlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e'lon qilingan tamoyillarga muvofiq, jamiyat barcha a'zolarining o'ziga xos bo'lgan qadr-qimmatini, teng va ajralmas huquqlari yer yuzasida erkinlik, adolat va tinchlikni ta'minlashning asosi ekanligi e'tirof etilganini hisobga olib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqlari Nizomida insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining sha'ni va qadr-qimmatiga bo'lgan o'z ishonchlarini tasdiqlaganliklari hamda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilash borasida ko'maklashishga ahd qilganliklarini e'tiborga olib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda har bir inson mazkur xujjatlarda ko'rsatib qo'yilgan huquq hamda erkinliklarga irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoki boshqa holatlar bilan bog'liq belgilariga ko'ra har qanday tafovutdan qat'iy nazar, ega bo'lishini e'lon qilganligi va rozilik bildirganligini e'tirof etib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam huquqiga egadirlar, deb e'lon qilganligini eslatib, jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha a'zolari, ayniqsa, bolalar o'sib ulg'ayishlari va

farovonlikka ega bo'lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga to'liq oladigan bo'lishiga erishish maqsadida zarur himoya va yordam bilan ta'minlanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda, bolaning shaxsi sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamoloti uchun u oila g'amxo'rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o'sishi zarurligini e'tirof etib, bola jamiyatda mustaqil hayotga to'la tayyorlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e'lon qilingan g'oyalar ruhida, ayniqsa, tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozimligini hisobga olib, bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi 1924 yilgi Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasida va 1959 yil 20 noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasida ko'zda tutilganligini va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro paktda (jumladan, 23- va 24-moddalarda), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro paktda (jumladan, 10-moddada), shuningdek, ixtisoslashgan muassasalar hamda bolalarning farovonligi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Nizomlari va tegishli xujjatlarida e'tirof etilganligini e'tiborga olib, Bola huquqlari deklaratsiyasida ko'rsatib o'tilganidek, —bola, agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan bo'lsa, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj ekanligini e'tiborga olib, ijtimoiy va huquqiy tamoyillar to'g'risidagi deklaratsiyaning bolalar himoyasi va farovonligi, ayniqsa, bolalarni milliy va xalqaro darajalarda tarbiyalashga berish hamda asrab olish paytidagi himoyasi va farovonligiga doir qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (—Pekin qoidalari) va Favqulodda holatlarda va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya qoidalariga tayanib, jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda og'ir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida e'tiborga muhtoj ekanliklarini e'tirof etib, bolaning himoya qilinishi va uyg'un ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning an'analari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib, har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini e'tirof etib, quyidagilar haqida kelishib oldilar:

I QISM. 1-modda. Ushbu Konvensiyaning maqsadlari uchun 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi.

2-modda. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada o'z ta'sir doirasida bo'lgan har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning ota onasi yoki qonuniy vasiysi yoki birorbir boshqa holatlardan qat'iy nazar, hurmat qiladilar hamda shu huquqlarni ta'minlab beradilar. Ishtirokchi-davlatlar bola, uning ota-onasi, qonuniy vasiysi yoki boshqa oila

a'zolarining qarashlari yoki e'tiqodida o'z ifodasini topadigan maqom, faoliyat asosida kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan bolaning himoyasini ta'minlash uchun hamma zarur choralarni ko'radilar.

3-modda. Bolalarga nisbatan barcha xatti-harakatlarda, ular ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat yoki xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimi-yo'qmi, bundan qat'iy nazar, bolaning manfaatlarini yaxshiroq ta'minlanishiga birinchi darajali e'tibor beriladi. Ishtirokchi-davlatlar o'z zimmasiga bolani uning farovonligi uchun zarur hisoblangan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlash, bunda uning ota-onasi, vasiysi yoki qonun bo'yicha uning uchun javobgar sanalmish boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini e'tiborda tutishni hisobga oladilar hamda ana shu maqsadda barcha qonuniy va ma'muriy chora-tadbirlarni ko'radilar. Ishtirokchi-davlatlar bolalar haqida g'amxo'rlik ko'rsatish yoki ularni himoya qilish uchun mas'ul hisoblangan organlar, muassasalar va xizmatlar vakolatli organlar tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorlarga, xususan, xavfsizlik va sog'liqni saqlash sohasida va ulardagi xodimlarning soni va ishga yaroqliligi, shuningdek, vakolatli nazorat olib borishi nuqtai nazaridan belgilangan me'yorlarga javob berishlarini ta'minlaydilar.

4-modda. Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirish uchun barcha zarur qonuniy, ma'muriy va boshqa choralarni ko'radilar. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga nisbatan ishtirokchi-davlatlar bunday choralarni o'zlarida mavjud bo'lgan imkoniyatlar doirasida, mumkin qadar yuqori darajada zarurat tug'ilgan taqdirda esa xalqaro hamkorlik doirasida qabul qiladilar.

5-modda. Ishtirokchi-davlatlar ota-onaning va tegishli holatlarda kengaytirilgan oila a'zolari yoki mahalliy urf-odatlarida ko'zda tutilganidek, jamoaning vasiylar yoki qonun bo'yicha bola tarbiyasi uchun javobgar hisoblangan boshqa shaxslarning ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirishda munosib darajada bolani boshqarish va unga rahbarlik qilish hamda bu ishni bolaning rivojlanib borayotgan qobiliyatlariga muvofiq holda bajarishdagi mas'uliyati, huquq va majburiyatlarini hurmat qiladilar.

6-modda. Ishtirokchi-davlatlar har bir bola yashash uchun ajralmas huquqqa ega ekanligini e'tirof etadilar. Ishtirokchi-davlatlar bolaning omon yashashi va sog'lom rivojlanishi uchun mumkin qadar yuqori darajada imkoniyat yaratib beradilar.

7-modda. Bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan atalish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek, iloji boricha, o'z ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlarini olishga haqli hisoblanadi. Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqlarni o'z milliy qonunchiliklariga muvofiq amalga oshirilishini, ularning majburiyatlari shu sohaga tegishli xalqaro hujjatlarga asosan, xususan, agar bola boshqa fuqarolikka ega bo'lmagan taqdirda bajarilishini ta'minlaydilar.

8-modda. Ishtirokchi-davlatlar qonunda ko'zda tutilganidek, bolaning o'ziga xos xususiyatlari jumladan, fuqaroligi, ismi va oilaviy aloqalarini saqlab qolish

huquqini hurmat qilish, qonunga zid ravishda aralashuvga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar. Agar bola o'ziga xoslik elementlarining bir yoki barcha qismlaridan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etilgan bo'lsa, ishtirokchi-davlatlar uning bu xususiyatlari tezroq tiklanishi uchun zarur yordam himoyalashni ta'minlaydilar.

9-modda. Ishtirokchi-davlatlar bola o'z ota-onasidan ularning hoxishlariga zid ravishda ayrilib qolmasligini ta'minlaydilar, vakolatli organlar sud qaroriga binoan qo'llanilgan qonun va tartib-rusumga muvofiq tarzda bunday ayrilish bolaning eng yaxshi manfaatlarini yo'lida zarur deb topgan holatlar bundan mustasnodir. Bunday ajrim, masalan, ota-ona bolaga shafqatsizlik bilan munosabatda bo'lgan yoki unga g'amxo'rlik qilmay qo'ygan yoxud ota-ona alohida yashayotgan hamda bola yashaydigan joyga nisbatan qaror qabul qilish zarurati paydo bo'lgan u yoki bu aniq holatda zarur bo'lishi mumkin. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq holda ishni har qanday sharoitda ko'rib chiqish jarayonida barcha manfaatdor tomonlarga muhokamada qatnashish va o'z nuqtai nazarini bayon qilish imkoniyati beriladi. Ishtirokchi-davlatlar ota-onasining bittasi yoki har ikkovidan ham ayrilgan bolaning ular bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqini hurmat qiladilar, bunday munosabatlar bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid keladigan bo'lsa bundan mustasno bo'ladi. Ishtirokchi-davlat tomonidan qabul qilingan biror-bir qaror, masalan, hibsga olish, qamash, surgun qilish, deportatsiya yoki ota-onadan bittasi yoxud ikkovining ham yoki bolaning o'limi (ana shu shaxs davlat ixtiyorida bo'lgan paytda har qanday sababga ko'ra ro'y bergan o'lim ham shunga kiradi) tufayli sodir bo'lgan bo'lsa, ishtirokchi-davlat ota-onaga, bolaga yoki, agar zarurat tug'ilsa, oilaning boshqa a'zosiga ularning iltimosiga binoan oilaning yo'qolgan a'zosi (a'zolari yashab turgan joy) haqida, zarur axborotni agar bu bolaning farovonligiga ziyon keltirmaydigan bo'lsa yetkazib beradi. Ishtirokchi-davlatlar bunday iltimosni qondirish o'z-o'zidan tegishli shaxs (shaxslar) uchun noxush oqibatlariga olib kelmasligini ta'min etadilar.

10-modda. Ishtirokchi-davlatlarning 9-moddadagi 1-band bo'yicha majburiyatiga muvofiq bola yoki uning ota-onasi oilani birlashtirish maqsadida ishtirokchidavlatga kirish yoxud undan chiqish uchun bergan arizalari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ijobiy, insonparvarlik ruhida va tezkorlik bilan ko'rib chiqilishi lozim. Ishtirokchi-davlatlar bunday iltimoslar arizachilar va ularning oila a'zolari uchun noxush oqibatlar keltirib chiqarmasligini ta'minlaydilar. Ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola alohida holatlardan tashqari, otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqiga egadir. Ana shu maqsadda 9-moddaning 2-bandi bo'yicha ishtirokchi-davlatlarning majburiyatlariga muvofiq ishtirokchi-davlatlar bolaning va ota-onasining har qanday mamlakatni tark etish, jumladan, o'z mamlakatini tashlab ketish va unga qaytib kelish huquqini hurmat qiladilar. Har qanday mamlakatni tark etish huquqiga nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan va davlat xavfsizligini, jamoat tartibini (ordre public), aholining sog'lig'i va ma'naviyati hamda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini saqlash uchun zarur

hisoblangan, ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan boshqa huquqlarga mos tushadigan cheklashlarga amalda bo'ladi.

11-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolalarning g'ayriqonuniy ravishda ko'chirilishiga va chet eldan qaytmasligiga qarshi kurash olib borish uchun chora-tadbirlar ko'radilar. Ana shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitimlar tuzilishiga yoxud amaldagi bitimlarga qo'shilishga ko'maklashadilar.

12-modda. Ishtirokchi-davlatlar o'zining qarashlarini shakllantirishga qodir bolaga, ana shu karashlarni bolaga taalluqli barcha masalalar bo'yicha erkin ifoda etish huquqini ta'minlaydilar, binobarin, bolaning qarashlariga uning yoshi va yetukligiga muvofiq munosib darajada e'tibor beriladi. Ana shu maqsadda bolaga, jumladan, bolaga taalluqli har qanday sud yoki ma'muriy muhokama paytida, bevosita, vakil yoxud tegishli organ orqali milliy qonunchilikning protsessual me'yorlarida ko'zda tutilgan tartibda o'zining fikrlarini ular tomonidan eshitish imkoniyati beriladi.

13-modda. Bola o'zining fikrini erkin ifodalash huquqiga ega: bu huquq har qanday turdagi axborotni, chegarasidan qat'iy nazar, og'zaki, yozma yoki bosma shaklda, san'at asari ko'rinishida yoki bolaning tanloviga ko'ra boshqa vositalar yordamida izlash, olish va uzatish erkinligini o'z ichiga oladi. Bunday huquqning amalga oshirilishi ba'zi bir cheklashlarga duch kelishi mumkin, biroq bunday cheklashlar faqat qonunda ko'zda tutilgan cheklashlardan iborat bo'ladi, bu quyidagilar uchun zarur: boshqa shaxslarning huquqlari va obro'sini hurmat qilish uchun; davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibini (ordre public), aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini muhofaza qilish uchun.

14-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolaning fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqini hurmat qiladilar. Ishtirokchi-davlatlar ota-onaning hamda tegishli holatlarda qonuniy vasiylarning bolaga uning rivojlanayotgan qobiliyatlariga muvofiq keladigan usul orqali bola huquqini amalga oshirishda rahbarlik qilish huquqi va majburiyatlarini hurmat qiladilar. O'z dini yoki e'tiqodini targ'ib qilish erkinligi faqat qonunda belgilangan hamda davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholining ma'naviyati va sog'lig'ini saqlash yoki boshqa shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur hisoblangandagina cheklanishi mumkin.

15-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolaning assotsiatsiya va tinch yig'ilishlar erkinligi huquqini e'tirof etadilar. Bu huquqning amalga oshirilishiga nisbatan biror-bir cheklashlar qo'llanilmaydi, qonunga muvofiq qo'llaniladigan va demokratik jamiyatda davlat xavfsizligi yoki jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi (ordre public) manfaatlarini yo'lida, aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini saqlash, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan cheklashlar bundan mustasnodir.

16-modda. Birorta bola uning shaxsiy hayot, oilaviy hayot, uy-joy dahlsizligi yoki pochta orqali yuboriladigan narsalarning maxfiyligiga bo'lgan huquqi amalga oshirilishiga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga zid ravishda aralashish yoxud uning sha'ni va obro'siga g'ayriqonuniy tajovuz qilish obyekti bo'lishi mumkin

emas. Bola ana shunday aralashishlar yoki tajovuz qilishlardan qonun yo'li bilan himoyalaniş huquqiga egadir.

17-modda. Ishtirokchi-davlatlar ommaviy axborot vositalarining muhim mavqeini e'tirof etadilar hamda bola turli xil milliy va xalqaro manbalarning axborotlari hamda materiallari, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy farovonlikka, shuningdek, bolaning sog'lom, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan axborotlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydilar. Shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar:

ommaviy axborot vositalarini ijtimoiy va madaniy yo'nalishdagi hamda 29-modda ruhidagi bola uchun foydali axborot va materiallarni tarqatishga rag'batlantiradilar;

turli xil madaniy, milliy va xalqaro manbalardan bunday axborot va materiallar tayyorlash, ayirboshlash hamda tarqatish sohasidagi xalqaro hamkorlikni rag'batlantiradilar;

bolalar adabiyotini nashr etish va tarqatishni rag'batlantiradilar;

ommaviy axborot vositalarining qandaydir ozchilikni tashkil qiluvchi guruh yoki tub aholiga mansub bolaning til ehtiyojlariga alohida e'tibor berishni rag'batlantiradilar;

13- va 18-moddalarni hisobga olgan holda bolaning farovonligiga zarar yetkazadigan axborot va materiallardan uni himoya qilishning tegishli tamoyillarini ishlab chiqishni rag'batlantiradilar.

18-modda. Ishtirokchi-davlatlar bola tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun ota-onaning umumiy va bir xil javobgarligi tamoyili e'tirof etilishini ta'minlashga qaratilgan barcha mumkin bo'lgan kuch-g'ayratlarni safarbar etadilar. Ota-ona yoki tegishli holatlarda qonuniy vasiylar bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun asosiy javobgar bo'ladilar. Bolaning eng yaxshi manfaatlarini ular ko'rsatadigan asosiy g'amxo'rlikning predmeti hisoblanadi. Ushbu Konvensiyada bayon qilingan huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlash va ko'maklashish maqsadida ishtirokchi-davlatlar ota-ona va qonuniy vasiylarga bola tarbiyasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishlariga tegishli yordam ko'rsatadilar hamda bolalar muassasalari tarmog'ining rivojlanishini ta'minlaydilar. Ishtirokchi-davlatlar ota-onasi ishlaydigan bolalar uchun mo'ljallangan xizmatlar hamda bolalar parvarish qilinadigan muassasalardan bolalarning foydalanish huquqiga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

19-modda. Ishtirokchi - davlatlar bolani jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning, haqoratlash va suiiste'molliklar, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, yoki, beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala qilish, yoki ota-ona, qonuniy vasiylar yoki bola haqida g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiiste'molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan himoyalash maqsadida jamiki zarur qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy choratadbirlarni ko'radilar. Bunday himoya choralari, zarurat tug'ilgan taqdirda, bola va unga g'amxo'rlik ko'rsatayotgan shaxslarni lozim darajada qo'llab-quvvatlash maqsadidagi ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish uchun samarali tartib-rusumlarni, shuningdek, bola bilan yuqorida ko'rsatilgan tarzda

shafqatsizlarcha muomala qilish hollari munosabati bilan ogohlantirish, aniqlash, xabar berish, qarab chiqish, tergov olib borish, davolash hamda shundan keyingi choralarni ko'rish zarurati tug'ilgan taqdirda, sud ishini qo'zg'atish uchun chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi.

20-modda. O'zining oila g'amxo'rligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo'lgan, yoki, o'zining eng yaxshi manfaatlarini yo'lida bunday g'amxo'rlikda qola olmaydigan bola davlat tomonidan ko'rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egadir. Ishtirokchi-davlatlar o'z milliy qonunlariga muvofiq ravishda bolani parvarish qilishning almashtirilishini ta'minlaydilar. Bolani bunday parvarishlash, jumladan, islom shariati bo'yicha — kafolatga tarbiyaga berishni, asrab olishni yoki zarurat tug'ilgan taqdirda, bolalar boqiladigan tegishli muassasalarga joylashtirishni o'z ichiga oladi. Parvarishni almashtirish turlari qarab chiqilayotganda bola tarbiyasidagi vorislikning maqsadga muvofiqligi hamda uning etnik kelib chiqishi, diniy va madaniy mansubligi, ona tili yetarli darajada hisobga olinishi lozim.

21-modda. Bola asrab olish tizimi mavjudligini e'tirof yoki hal qiladigan ishtirokchidavlatlar bolaning eng yaxshi manfaatlarini birinchi navbatda hisobga olinishini ta'minlaydilar, ular:

- bolani asrab olish faqat vakolatli ma'murlar tomonidan hal etilishini ta'minlaydilar, bunday ma'murlar qo'llaniladigan qonun va tartib-rusumlarga muvofiq hamda ishga taalluqli va ishonchli butun axborot asosida asrab olishga ota-ona, qarindoshlar va qonuniy vasiylarga nisbatan bolaning maqomiga qarab, agar talab etilsa, manfaatdor shaxslar zarur bo'lib qoladigan maslahat asosida asrab olish uchun o'zlarining ongli roziliklarini berishlari bois yo'l qo'yilishini aniqlaydilar;

- boshqa mamlakatda asrab olish, agar bolani tarbiyaga berish yoki uning tarbiyasini ta'minlay oladigan yoxud asrab oladigan oilaga joylashtirish mumkin bo'lmasa, agar bola paydo bo'lgan mamlakatda uni munosib ravishda tarbiyalashni ta'minlashning iloji bo'lmasa, bola boqishning muqobil usuli sifatida qaralishini e'tirof etadilar;

- bola boshqa mamlakatda asrab olingan taqdirda xuddi mamlakat ichkarisida asrab olinganida qo'llaniladigan kafolat va me'yorlar qo'llanilishini ta'minlaydilar;

- bola boshqa mamlakatda asrab olingan taqdirda uning joylashtirilishi shu ish bilan bog'liq shaxsga o'zini oqlamagan moliyaviy foyda keltirmasligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radilar;

- zarur holatlarda ushbu moddaning maqsadlariga ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartlashuvlar yoki bitimlar tuzilishi yo'li bilan erishishga ko'maklashadilar hamda shu asosda bolaning boshqa mamlakatda joylashuvi vakolatli ma'murlar va organlar tomonidan amalga oshirilishini ta'minlashga intiladilar.

22-modda. Ishtirokchi-davlatlar qochqin maqomini olishni istagan yoki qochqin hisoblangan bolani qo'llaniladigan xalqaro yoki ichki huquq va tartib-rusumlarga muvofiq ravishda, ham unga hamroh bo'layotgan va bo'lmayotgan ota-onasi yoki tegishli ravishda himoya qiladigan va insonparvarlik yordami

ko'rsatadigan har qanday boshqa shaxsni ushbu Konvensiyada va inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro hujjatlarda yoki hujjatlarda bayon qilingan qo'llanishi mumkin bo'lgan huquqlardan foydalanishini ishtirokchilari hisoblanadigan ko'rsatib o'tilgan davlatlar ta'minlashi uchun zarur choralarni ko'radilar. Ana shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar, o'zlari zarur deb topgan holatlarda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa vakolatli hukumatlararo tashkilotlar yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik qilayotgan nodavlat tashkilotlarning bunday bolani himoya qilish, unga yordam ko'rsatish hamda har qanday qochqin bolaning ota-onasi yoki oilasining boshqa a'zolarini izlashda, uning o'z oilasi bilan qo'shilishi uchun zarur bo'lgan axborotni olish maqsadidagi har qanday kuch-g'ayratlariga ko'maklashadilar. Agar ota-onasi yoki oilasining boshqa a'zolarini topish iloji bo'lmagan taqdirda bu bolaga, ushbu Konvensiyada ko'zda tutilganidek biror-bir sababga ko'ra o'zining oilaviy g'amxo'rligidan doimiy yoki vaqtincha mahrum bo'lgan har qanday ko'rsatiladigan himoya taqdim etiladi.

23-modda. Ishtirokchi-davlatlar aqliy va jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanmagan bola o'zining qadr-qimmatini ta'minlaydigan, o'ziga ishonch tug'diradigan va uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini yengillashtiradigan sharoitlarda to'laqonli hamda munosib tarzda yashashi lozimligini e'tirof etadilar. Ishtirokchi-davlatlar aqliy va jismoniy noto'kis bola o'ziga nisbatan alohida g'amxo'rlik ko'rsatilishi huquqiga ega ekanligini e'tirof etadilar hamda buni rag'batlantiradilar, imkoniyatlar mavjud bo'lgan taqdirda, yordam so'rab iltimos qilingan bo'lsa va bunday yordam bolaning ahvoriga, uning ota-onasi va bola haqida g'amxo'rlik ko'rsatayotgan boshqa shaxslarning mavqeiga mos kelsa, shunga haqli bolaga unga g'amxo'rlik qilish uchun javobgar kishilarga ana shunday yordam berilishini ta'minlaydilar. Aqliy va jismoniy noto'kis bolaning alohida ehtiyojlari e'tirof etilgan holda ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq yordam imkon darajasida bolaning ota-onasi va uning haqida g'amxo'rlik qilayotgan boshqa shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari hisobga olinib bepul beriladi, bunday yordam noto'kis bola ta'lim, kasb-kor tayyorgarligi, tibbiyot, sog'liqni tiklash, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish sohasidagi xizmatlaridan samarali ravishda bahramand bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutadi, shuningdek, dam olish vositalariga yo'l ochadiki, bunday vositalar imkon darajasida bolani ijtimoiy hayotga jalb etishga, shaxsning rivojlanishi, jumladan, madaniy va ma'naviy kamol topishiga olib keladi. Ishtirokchi-davlatlar xalqaro hamkorlik ruhida noto'kis bolalarning sog'lig'ini saqlash profilaktikasi, tibbiyot, ruhiy va funksional davolanishi sohasidagi tegishli axborotning ayirboshlanishiga ko'maklashadilar, sog'lomlashtirish usullari, umumiy ta'lim va kasb-kor tayyorgarligi haqidagi axborotni tarqatish, shuningdek, ana shu axborot bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lish ham shunga kiradi, toki ishtirokchi-davlatlar bu sohadagi o'z imkoniyatlari va bilimlarini yaxshilashga, tajribalarini kengaytirishga erishsinlar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi lozim.

24-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolaning sog'liqni saqlash tizimining takomillashgan xizmatlaridan, kasalliklarni davolash va salomatlikni tiklash

vositalaridan foydalanishini huquqiy e'tirof etadilar. Ishtirokchi-davlatlar birorta ham bola sog'liqni saqlash tizimining bunday xizmatlaridan bahramand bo'lishdan iborat o'z huquqidan mahrum bo'lib qolmasligini ta'minlashga harakat qiladilar. Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqning to'la amalga oshishiga erishadilar, jumladan, quyidagi choralarni ko'radilar:

- chaqaloqlar va bolalar o'limi darajasini pasaytirish;
- hamma bolalarga zarur tibbiy yordam ko'rsatilishi va ularning sog'lig'ini saqlashga, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor berilishiga erishish;
- boshqa usullar qatorida qulay texnologiyani qo'llash va yetarli miqdorda to'yimli oziq-ovqat va toza ichimlik suv yetkazib berish yo'li bilan hamda atrofmuhitning ifloslanish xavf-xatarini e'tiborga olgan holda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish doirasida kasalliklar va to'yib ovqatlanmaslikka qarshi kurash olib borish;

- onalarga tug'ish oldidan va tuqqandan keyingi davrda ularning sog'lig'ini saqlash sohasida tegishli ravishda xizmatlarni taqdim etish;

- jamiyat barcha tabaqalarining, jumladan, ota-onalar va bolalarning go'daklar sog'lig'i va ovqatlanishi, ko'krak suti bilan boqishning afzalliklari, gigiyena, bola yashayotgan muhit sanitarisasi va baxtsiz hodisalarning oldini olish haqidagi xabardorligini ta'minlash, shuningdek, ularning ilm olishiga yo'l ochish va egallagan bilimlaridan foydalanishlarini qo'llab quvvatlash;

- profilaktik tibbiy yordam va oila hajmini rejalashtirish sohasidagi ma'rifiy ishlar va xizmatlarni rivojlantirish. Ishtirokchi-davlatlar bolalarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan an'anaviy amaliyotga barham berish maqsadida har qanday samarali va zarur chora-tadbirlarni ko'radilar. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddada e'tirof etilgan huquqlar to'la amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadida xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish majburiyatini oladilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi zarur.

25-modda. Ishtirokchi-davlat parvarish qilish, himoya ostiga olish yoki jismoniy yoxud ruhiy davolash, bolaga taqdim etiladigan davolashni vaqtincha baholash hamda bunday vasiylik bilan bog'liq, bolaga tegishli barcha boshqa shart-sharoitni yaratib berish maqsadida vakolatli organlar tomonidan vasiylikka topshirilgan bolaning huquqlarini e'tirof etadilar.

26-modda. Ishtirokchi-davlatlar har bir bolaning ijtimoiy ta'minot ne'matlaridan, jumladan, ijtimoiy sug'urtadan foydalanish huquqini e'tirof etadilar hamda ana shu huquq davlatlarning milliy qonunchiligiga muvofiq tarzda to'la amalga oshishiga erishish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'radilar. Bu ne'matlar zaruratga qarab bolaning hamda bolani boqish mas'uliyatini zimmasiga olgan shaxslarning, bola tomonidan yoki uning nomidan ne'matlarni olish bilan bog'liq har qanday fikr-mulohaza nazarda tutilgan holda taqdim etiladi.

27-modda. Ishtirokchi-davlatlar har bir bolaning jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy kamol topishi uchun zarur hisoblangan turmush darajasiga ega bo'lish huquqini e'tirof etadilar. Ota-ona yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa

shaxslar o'z qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitini ta'minlashga asosiy javobgardir. Ishtirokchi-davlatlar milliy shart-sharoitlarga muvofiq va o'z imkoniyatlari doirasida ana shu huquqning amalga oshishida ota-ona va bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslarga yordam ko'rsatish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radilar, zarurat tug'ilgan hollarda moddiy yordam beradilar, ayniqsa, oziq-ovqat, kiyimkechak va uy-joy bilan ta'minlash borasidagi dasturni qo'llab-quvvatlaydilar. Ishtirokchi-davlatlar ota-ona yoki bola uchun moliyaviy javobgar hisoblangan boshqa shaxslar tomonidan bolani boqish ishtirokchi-davlat ichida ham, xorijda ham tiklanishini ta'minlash uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar. Xususan, bola uchun moliyaviy javobgar shaxs va bola turli davlatlarda yashayotgan bo'lsalar, ishtirokchi-davlatlar xalqaro bitimlarga qo'shilishga yoki shunday bitimlar tuzilishiga, shuningdek, boshqa tegishli kelishuvlarga erishishga ko'maklashadilar.

28-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolaning ilm olish huquqini e'tirof etadilar hamda ana shu huquq teng imkoniyatlar asosida amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadida ular, jumladan: bepul va majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etadilar; ham umumiy, ham kasb-hunar bo'yicha o'rta ta'limning turli shakllari rivojlanishini rag'batlantiradilar, bunday ta'limdan hamma bolalar bahramand bo'lishlarini ta'minlaydilar hamda bepul ta'lim joriy etish va zarurat tug'ilgan hollarda moliyaviy yordam ko'rsatish singari zarur chora tadbirlarni ko'radilar; barcha zarur vositalar yordamida har bir bolaning qobiliyati asosida oliy ta'limdan bahramand bo'lishini ta'minlaydilar; barcha bolalar uchun ta'lim va kasb-hunar tayyorgarligi sohasida axborot hamda materiallar bilan tanishish imkoniyatlarini yaratib beradilar; bolalarning maktabga muntazam borishlariga ko'maklashish hamda maktabni tashlab ketadigan o'quvchilar sonining kamayishi uchun chora-tadbirlar ko'radilar. Ishtirokchi-davlatlar maktab intizomi bolaning insoniylik qadr-qimmatini hurmatlash o'z ifodasini topgan usullar yordamida hamda ushbu Konvensiyaga muvofiq olib borilishi uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar. Ishtirokchi-davlatlar ta'limga taalluqli masalalar bo'yicha, jumladan, butun dunyoda johillik va savodsizlikni tugatishga yordam beradigan hamda ilmiy-texnikaviy bilimlar va o'qitishning zamonaviy usullariga yo'l ochishni yengillashtiradigan maqsadlarga qaratilgan xalqaro hamkorlikni rag'batlantiradilar va rivojlantiradilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi zarur.

29-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolaga ta'lim berish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi lozimligiga rozilik bildiradilar:

- bolaning shaxsi, iste'dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari eng to'la hajmda rivojlanishi;

- inson huquqlari va asosiy erkinliklariga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e'lon qilingan tamoyillarga hurmatni tarbiyalash;

- bolaning ota-onaga, uning madaniy o'ziga xosligi, tili va qadriyatlariga, bola yashayotgan mamlakatning, u dunyoga kelgan mamlakatning milliy qadriyatlariga,

o'zinikidan farq qiladigan madaniy taraqqiyot darajasiga hurmat bilan qarashni tarbiyalash;

- bolani erkin jamiyatda, tinchlik, sabr-toqatli bo'lish, erkaklar va ayollarning tengligi hamda barcha xalqlar, etnik, milliy va diniy guruhlar, shuningdek, tub aholi orasidan bo'lgan shaxslar o'rtasida do'stlik ruhida tayyorlash;

- atrof-tabiatta hurmatni tarbiyalash.

Ushbu moddaning yoki 28-moddaning hech qaysi bandi alohida shaxslar va organlarning o'quv yurtlarini ochish hamda ularga ushbu moddaning 1-bandida bayon etilgan tamoyillarga rioya qilgan holda rahbarlikni amalga oshirish hamda bunday o'quv yurtlarida beriladigan ta'lim davlat tomonidan o'rnatilgan minimal me'yorlarga javob berishi kerak, degan talabning bajarilishidagi erkinligini cheklash sifatida talqin qilinmaydi.

30-modda. Etnik, diniy yoki til jihatdan ozchilikni tashkil qiluvchi yoxud tub aholiga mansub shaxslar yashaydigan davlatlarda ana shunday ozchilikka yoki tub aholiga mansub bolaning mazkur guruh boshqa a'zolari bilan birgalikda o'z madaniyatidan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish va uning rasm-rusumlarini bajarish, shuningdek, ona tilidan foydalanish huquqi rad etilmasligi lozim.

31-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolaning dam olish va bo'sh vaqtini o'tkazish huquqini, o'zining yoshiga mos keladigan o'yinlar va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish, madaniy hayotda erkin qatnashish, san'at bilan shug'ullanish huquqini e'tirof etadilar. Ishtirokchi-davlatlar bolaning madaniy va ijodiy hayotda har tomonlama qatnashish huquqini hurmat qiladilar, rag'batlantiradilar hamda madaniy va ijodiy faoliyat, bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun tegishli teng imkoniyatlar yaratib berilishiga ko'maklashadilar.

32-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda uning sog'lig'i uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan yoxud sog'lig'i, jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqini e'tirof etadilar, Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddaning amalga oshirilishini ta'minlash uchun qonuniy, ma'muriy va ijtimoiy, shuningdek, ta'lim sohasidagi choratadbirlarni ko'radilar. Ana shu maqsadlarda, boshqa xalqaro hujjatlarning tegishli qoidalariga amal qilgan holda, ishtirokchi-davlatlar, jumladan:

- ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh yoki eng kichik yoshlarni belgilab qo'yadilar;

- kundalik vaqtdagi ishning muddati va mehnat sharoitiga doir zarur talablarni aniqlaydilar;

- ushbu moddaning samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun jazoning tegishli turlari yoki boshqa sanksiyalarni ko'zda tutadilar.

33-modda. Ishtirokchi-davlatlar tegishli xalqaro shartnomalarda belgilab qo'yilganidek, bolalarni giyohvandlik va psixotrop moddalarini g'ayriqonuniy ravishda iste'mol qilishdan himoya etish maqsadida zarur barcha chora-tadbirlarni, jumladan, qonuniy, ma'muriy va ijtimoiy, shuningdek ta'lim sohasidagi choralarni hamda ana shunday moddalarni g'ayriqonuniy ravishda ishlab chiqarishda va ularni sotishda bolalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik choralarni ko'radilar.

34-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolani shahvoniy maqsadlarda foydalanish va shahvoniy buzishning barcha shakllaridan himoya qilish majburiyatini o'z zimmlariga oladilar. Ana shu maqsadlarda ishtirokchi-davlatlar, jumladan, milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada quyidagi holatlarning oldini olish uchun hamma zarur chora-tadbirlarni ko'radilar:

- bolani har qanday g'ayriqonuniy ravishdagi shahvoniy faoliyatga tortish va majburlash;

- bolalardan fohishabozlik yoki g'ayriqonuniy ravishdagi barcha shahvoniy maqsadlarda foydalanish;

- bolalardan pornografiya va pornografiya materiallari tayorlash maqsadlarida foydalanish.

35-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolalarni o'g'irlash, sotish yoki ularni har qanday maqsadlarda va har qanday shakllarda kontrabanda qilishning oldini olish uchun milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.

36-modda. Ishtirokchi-davlatlar bolani uning farovonligiga oid har qanday jihatdan zarar yetkazadigan foydalanishning barcha boshqa shakllaridan himoya qiladilar.

37-modda. Ishtirokchi-davlatlar quyidagilarni ta'minlaydilar:

- birorta ham bola qiynoqlarga yoki boshqa shafqatsizlarcha, g'ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni oyoq osti qiladigan muomala yoki jazoga duchor etilmasligini. Na o'lim jazosi, na ozodlikka chiqarish imkoniyatini ko'zda tutmagan umrbod qamoq jazosi 18 yoshdan kichik bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun belgilanmaydi;

- birorta ham bola g'ayriqonuniy ravishda yoki o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum etilmasligini. Bolani hibsga olish, ushlab turish yoki qamoqqa solish qonunga muvofiq amalga oshiriladi hamda faqat noiloj chora sifatida va mumkin qadar tegishli qisqa vaqt mobaynida ishlatiladi;

- ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola uning yoshidagi shaxs ehtiyojlari hisobga olingan holda insoniy muomala va shaxsining ajralmas qismi bo'lgan qadr-qimmatini hurmatlashdan foydalanishini. Xususan, ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola, agar bolaning eng yaxshi manfaatlari yo'lida shunday qilish kerak, deb hisoblanmasa, kattalardan ajratib saqlanadi hamda alohida holatlarni istisno qilganda, o'z oilasi bilan xat yozish va diydor ko'rishish orqali aloqa bog'lab turish huquqiga egadir;

- ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola huquqiy va boshqa tegishli yordamdan zudlik bilan bahramand bo'lish huquqidan, shuningdek, sud yoki boshqa vakolatli, mustaqil va xolis organ oldida o'zining ozodlikdan mahrum etilishining qonuniyligiga e'tiroz bildirish huquqidan hamda ana shunday har

- qanday protsessual xatti-harakatga nisbatan ular tomonidan kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi huquqidan foydalanadi.

38-modda. Ishtirokchi-davlatlar xalqaro insonparvarlik huquqining qurolli mojarolar ro'y bergan holatda ularga nisbatan qo'llaniladigan va bolalarga taalluqli me'yorlarini hurmat qilishni, ularga rioya etilishini ta'minlashni o'z zimmlariga

oladilar. Ishtirokchi-davlatlar 15 yoshga to'lmagan shaxslar harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmasliklarini ta'minlash uchun imkon bo'lgan barcha choratadbirlarni ko'radilar. Ishtirokchi-davlatlar 15 yoshga to'lmagan har qanday shaxsni o'z qurolli kuchlari safiga xizmatga chaqirishga yo'l qo'ymaydilar. 15 yoshga yetgan biroq 18 yoshga to'lmagan shaxslar orasidan armiyaga jalb etilayotganda ishtirokchidavlatlar yoshi kattaroq shaxslarni ma'qul ko'rishga harakat qiladilar. Qurolli mojarolar paytida harbiy bo'lmagan aholini himoya qilish bilan bog'liq xalqaro insonparvarlik huquqi bo'yicha majburiyatlariga muvofiq ishtirokchi-davlatlar qurolli mojarolarning ta'siridan bolalarni himoyalash hamda parvarishlashni ta'minlash uchun imkon bo'lgan barcha zarur choratadbirlarni ko'rish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

39-modda. Ishtirokchi-davlatlar beparvolik, ishlatish yoki suiiste'molliklar, qiynashning har qanday ko'rinishlari yoki shafqatsizlik, noinsoniy yoxud qadr-qimmatni oyoqosti qiladigan boshqa har qanday muomala, jazolash yoki qurolli mojarolar qurboni bo'lgan bolaning jismoniy va ruhiy tiklanishi hamda ijtimoiy jihatdan o'zini o'nglab olishiga ko'maklashish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar. Bunday tiklanish va o'zini o'nglab olish bolaning sog'lig'i, o'zini o'zi hurmatlashi va qadr-qimmatini ta'minlaydigan sharoitlarda amalga oshirilishi lozim.

40-modda. Ishtirokchi-davlatlar jinoiy qonunchilikni buzgan deb topilgan, qonunni buzishda ayblanayotgan yoki aybdor deb topilayotgan har bir bolaning unda qadrqimmat va ahamiyatga moliklik his-tuyg'usini tarbiyalaydigan, bolada inson huquqlariga va boshqalarning asosiy erkinliklariga hurmatni mustahkamlaydigan hamda bunda bolaning yoshi va o'zini o'nglab olishi, jamiyatda foydali o'rin tutishiga ko'maklashish istagi hisobga olinadigan huquqini e'tirof etadilar. Ana shu maqsadlarda va xalqaro xujjatlarning tegishli qoidalarini e'tiborga olib, ishtirokchi-davlatlar, jumladan, quyidagilarni ta'minlaydilar:

-birorta bola xatti-harakat sodir etilgan vaqtda milliy yoki xalqaro huquqda man etilmagan harakat yoki harakatsizlik sababli jinoiy qonunchilikni buzgan deb topilmasligi, ayblanmasligi va aybdor deb topilmasligini;

- jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblanayotgan yoki uni buzishda ayblanayotgan har bir bola kamida quyidagi kafolatlariga ega bo'lishi zarur:

- uning aybi qonunga muvofiq isbotlanguncha aybsizlik prezumpsiyasi;

-unga qarshi qo'yilayotgan ayblar haqida o'ziga, zarurat tug'ilgan taqdirda, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi orqali kechiktirmasdan va bevosita ma'lum qilish hamda o'zining himoyasini tayyorlash va amalga oshirishda huquqiy va boshqa xil yordam olishi;

-ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud organi tomonidan ishni adolatli tarzda ko'rish davomida qonunga muvofiq ravishda advokat yoxud boshqa tegishli shaxs ishtirokida, agar bu bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid keladi deb hisoblanmasa, xususan, uning yoshi yoki ota-onasi yoxud qonuniy vasiylarining mavqei hisobga olingan holda hech kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi;

- guvohlik ko'rsatmasi berish yoki aybga iqror bo'lishga majburlashdan erkinlik; ayblash bo'yicha guvohlarning ko'rsatmalarini yoxud mustaqil ravishda yoxud boshqa shaxslar yordamida o'rganib chiqish hamda himoya guvohlarining teng ravishdagi ishtiroki va ularning ko'rsatmalarini o'rganishni ta'minlash;

-agar bola jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblansa, yuqori turuvchi vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud tomonidan tegishli qarorni va u bilan bog'liq holda qabul qilingan har qanday choralarni qonunga muvofiq ravishda takroran ko'rib chiqish;

- agar bola foydalanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda gapira olmasa, tarjimonning bepul yordam berishi;

- ishni ko'rib chiqishning barcha bosqichlarida uning shaxsiy hayotini to'la hurmat qilish. Ishtirokchi-davlatlar jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblanayotgan, qonunbuzarlikda ayblanayotgan yoki aybdor deb topilgan bolalarga bevosita taalluqli qonunlar, tartibqoidalar, organlar va muassasalarni aniqlashda ko'maklashishga intiladilar, jumladan:

- jinoiy qonunchilikni buzishga qodir bo'lmagan eng kichik yoshni belgilashga;

- zarurat tug'ilgan taqdirda va imkon bo'lganda, bunday bolalar bilan muomala qilish bo'yicha inson huquqi va huquqiy kafolatlar to'la rioya etilgan holda sud muhokamasidan foydalanmaslik chora-tadbirlarini ko'rishga.

Bolaning farovonligi, holati va jinoyatning xarakteriga muvofiq keladigan, muassasalardagi parvarishning o'rmini bosadigan muomala qilishni ta'minlash maqsadida parvarish, vasiylik va nazorat haqida qoida, maslahat xizmatlari, sinov muddatini belgilash, o'quv va kasb-hunarga tayyorlash dasturlari va parvarishning boshqa shakllari mavjud bo'lishi zarurdir.

41-modda. Ushbu Konvensiyadagi hech bir narsa bola huquqlarini amalga oshirishga ko'p darajada yordam beradigan har qanday vaziyatga daxl qilmaydi hamda bunday qoidalar quyidagilarda o'z ifodasini topishi mumkin:

- ishtirokchi-davlat qonunchiligida;

- mazkur davlatga nisbatan amal qilayotgan xalqaro huquq normalarida.

42-modda. Ishtirokchi-davlatlar tegishli va ta'sirli vositalardan foydalangan holda Konvensiyaning tamoyillari va qoidalari haqida katta yoshdagilarni ham, bolalarni ham keng xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

43-modda. Ishtirokchi-davlatlar tomonidan ushbu Konvensiyaga muvofiq qabul qilingan majburiyatlar bo'yicha erishilgan taraqqiyotni ko'rib chiqish maqsadida quyida ko'zda tutilgan vazifalarni ado etadigan Bola huquqlari bo'yicha qo'mita ta'sis qilinadi. Qo'mita o'zining yuksak ma'naviy fazilatlarini hamda ushbu Konvensiyada qamrab olingan sohalarida vakolatli deb e'tirof etilgan o'n nafar ekspertdan iboratdir. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan o'z fuqarolari ichidan saylanadilar hamda ular shaxsan ishtirok etadilar, binobarin, adolatli ravishda jug'rofiy taqsimlanishga, shuningdek, bosh huquqiy tizimlarga e'tibor beriladi. Qo'mita a'zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ko'rsatilgan shaxslar ro'yxatiga kiritilganlar orasidan yopiq ovoz berish yo'li bilan saylanadilar. Har bir ishtirokchi-davlat o'z fuqarolari orasidan bitta shaxsni ko'rsatishi mumkin.

Qo'mitaga dastlabki saylov ushbu Konvensiya kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oydan kechikmasidan, keyin esa har ikki yilda bir marta o'tkaziladi. Har bir saylov kunidan kamida to'rt oy oldin Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ishtirokchi-davlatlarga ikki oy mobaynida o'z nomzodlarini taqdim etish taklifi bilan xat orqali murojaat qiladi. So'ngra Bosh kotib ko'rsatilgan barcha nomzodlar ro'yxatini alifbo tartibida ishtirokchi-davlatlar nomini qayd etgan holda tuzib chiqadi hamda bu ro'yxatni ushbu Konvensiya ishtirokchidavlatlariga taqdim etadi. Saylovlar Bosh kotib tomonidan chaqiriladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining markaziy muassasalarida ishtirokchi-davlatlar kengashlarida o'tkaziladi. Ishtirokchidavlatlarning uchdan ikki qismi kvorumni tashkil etadigan ana shu kengashlarda Qo'mita tarkibiga saylangan deb eng ko'p ovoz olgan hamda ishtirokchi-davlatlarning kengashida ishtirok etayotgan va ovoz berishda qatnashayotgan vakillarining mutlaq ko'pchilik ovozini to'plagan nomzodlar hisoblanadilar. Qo'mita a'zolari to'rt yillik muddatga saylanadilar. Ular nomzodlari takroran ko'rsatilgan taqdirda qayta saylanish huquqiga egadirlar. Birinchi saylovlarda saylangan besh a'zoning vakolat muddati ikki yillik davr oxirida tugaydi, birinchi saylovdan keyinok zudlik bilan aynan shu besh a'zo kengash Raisi tomonidan qur'a tashlash orqali aniqlanadi. Qo'mita a'zolaridan birortasi vafot etgan yoki iste'foga chiqqan yoxud u qandaydir sababga ko'ra Qo'mita a'zosi vazifalarini bundan keyin bajara olmay qolgan taqdirda o'sha Qo'mita a'zosini ko'rsatgan ishtirokchi-davlat Qo'mita qo'llabquvvatlashi sharti bilan qolgan muddatga o'z fuqarolari orasidan boshqa ekspert tayinlaydi. Qo'mita o'zining tartib-qoidalarini o'rnatadi. Qo'mita ikki yillik muddatga o'zining mansabdor shaxslarini saylaydi. Qo'mita sessiyalari, odatda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining markaziy muassasalarida yoki Qo'mita tanlagan boshqa har qanday qulay joyda o'tkaziladi.

Qo'mita o'z sessiyalarini, odatda har yili o'tkazadi. Qo'mita sessiyasining davom etishi Bosh Assambleya qo'llab-quvvatlashi sharti bilan ushbu Konvensiya ishtirokchi-davlatlarining kengashida aniqlab qo'yiladi va zaruratga qarab qayta ko'rib chiqiladi. Qo'mita o'zining vazifalarini ushbu Konvensiyaga muvofiq samarali bajarishi uchun uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi zarur xodimlar va moddiy mablag' bilan ta'minlaydi. Ushbu Konvensiyaga binoan ta'sis etilgan Qo'mita a'zolari Bosh Assambleya tomonidan belgilab qo'yilgan tartib va shartlarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti mablag'lari hisobidan Bosh Assambleya tasdiqlagan rag'batlantirishlarni oladilar.

44-modda. Ishtirokchi-davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi orqali Qo'mitaga Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlari mustahkamlash yuzasidan qabul qilingan choratadbirlar haqida hamda ana shu huquqlarini amalga oshirishda erishilgan taraqqiyot haqida ma'ruzalar taqdim etish majburiyatini oladilar: Konvensiya kuchga kirganidan keyin ikki yil mobaynida tegishli ishtirokchidavlat uchun; keyinchalik har besh yilda.

Ushbu moddaga muvofiq taqdim etiladigan ma'ruzalarda mazkur Konvensiya bo'yicha majburiyatlarning bajarilish darajasiga ta'sir etuvchi omil va qiyinchiliklar, agar ular mavjud bo'lsa, ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek,

ma'ruzalarda yetarli axborot ham o'z ifodasini topadi, toki mazkur mamlakatda Konvensiyaning amal qilish borasida Qo'mita to'la tasavvurga ega bo'lsin. Qo'mitaga har tomonlama dastlabki mufassal ma'ruza taqdim etgan ishtirokchi-davlat ushbu moddaning 1-b bandiga binoan taqdim etiladigan keyingi ma'ruzalarda ilgari bayon qilingan asosiy axborotni takrorlashiga zarurat bo'lmaydi. Qo'mita ishtirokchi-davlatlardan ushbu Konvensiyaning bajarilishiga taalluqli bo'lgan qo'shimcha axborot so'rab olishi mumkin. Qo'mita faoliyati to'g'risidagi ma'ruzalar ikki yilda bir marta Bosh Assambleyaga Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash vositachiligida taqdim etiladi. Ishtirokchi-davlatlar ma'ruzalari o'z mamlakatlarida keng oshkora bo'lishini ta'minlaydilar.

45-modda. Konvensiyaning samarali amalga oshirilishiga ko'maklashish va ushbu Konvensiyada qamrab olingan sohalaridagi xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish maqsadida: Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamg'armasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti boshqa organlari ushbu Konvensiyaning ular vakolati doirasiga kiradigan qoidalarini amalga oshirishga doir masalalar muhokama qilinayotgan paytda vakil yuborish huquqiga egadirlar. Qo'mita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamg'armasi va boshqa vakolatli organlariga agar maqsadga muvofiq deb topsa, ularning tegishli vakolat doirasiga kiradigan masalalarda Konvensiyaning amalga oshirilishiga doir ekspertlar xulosasini taqdim qilishni taklif etishi mumkin.

Qo'mita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamg'armasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti boshqa organlariga o'z faoliyat doirasiga kiradigan sohalarida Konvensiyaning amalga oshirilishi haqida ma'ruzalar taqdim qilishni taklif etishi mumkin; Qo'mita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamg'armasi va boshqa vakolatli organlariga, agar maqsadga muvofiq deb topsa, ishtirokchi-davlatlarning texnik maslahat yoki yordam so'ralgan yoxud shunga ehtiyoj ko'rsatib o'tilgan har qanday ma'ruzalarini, shuningdek, Qo'mitaning ana shunday iltimos yoki ko'rsatmalarga doir fikr-mulohaza va takliflarini, agar ular mavjud bo'lsa, qayta yo'llaydi;

Qo'mita Bosh Assambleyaga o'z nomidan Bosh kotibga bola huquqlariga taalluqli alohida masalalar yuzasidan tadqiqotlar o'tkazishni taklif etishni tavsiya qilishi mumkin;

Qo'mita ushbu Konvensiyaning 44- va 45-moddalariga muvofiq olinadigan axborotga asoslangan umumiy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar kiritishi mumkin. Umumiy ahamiyatga molik bunday taklif va tavsiyalar manfaatdor har qanday ishtirokchi-davlatga oldindan yo'llanadi hamda ishtirokchidavlatlarning fikr-mulohazalari bilan birgalikda, agar mavjud bo'lsa, Bosh Assambleyaga ma'lum qilinadi.

46-modda. Ushbu Konvensiya barcha davlatlar tomonidan imzolash uchun ochiqdir.

47-modd. Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi zarur. Ratifikatsiya yoriqlari saqlab qo'yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiriladi.

48-modd. Ushbu Konvensiya unga har qanday davlatning qo'shilishi uchun ochiqdir. Qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar saqlab qo'yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiriladi.

49-modd. Ushbu Konvensiya yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlab qo'yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshirilgan sanadan e'tiboran o'ttizinchi kun o'tgandan keyin kuchga kiradi. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan yoki unga qo'shiladigan har bir davlat uchun yigirmanchi ratifikatsiya yorlig'i yoxud qo'shilish to'g'risidagi hujjat saqlab qo'yishga topshirilgan sanadan e'tiboran mazkur Konvensiya bunday davlat uni ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjatni saqlab qo'yishga topshirilgandan keyingi o'ttizinchi kundan boshlab kuchga kiradi.

50-modd. Har qadai ishtirokchi-davlat Konvensiyaga tuzatish taklif qilishi va uni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. Shundan so'ng Bosh kotib taklif etilgan tuzatishni ishtirokchi-davlatlarga mana shu takliflarni ko'rib chiqish va ularni ovoza qo'yish maqsadida ishtirokchidavlatlarning konferensiyasini chaqirish tarafdorimi, degan so'rov bilan qayta yo'llaydi. Agar mana shunday xabar yetkazilgan sanadan boshlab to'rt oy mobaynida ishtirokchi-davlatlarning kamida uchdan bir qismi shunday konferensiyani chaqirishni yoqlab chiqsa, Bosh kotib bunday konferensiyani

Birlashgan Millatlar Tashkiloti belgisi ostida chaqiradi. Bu konferensiyada ishtirok etayotgan va ovoz berishda qatnashayotgan ishtirokchi-davlatlarning ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilingan har qanday tuzatish tasdiqlash uchun Bosh Assambleyaga taqdim etiladi. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tasdiqlagandan keyin hamda ishtirokchidavlatlarning uchdan ikki aksariyat qismi qabul qilgan taqdirda kuchga kiradi. Tuzatish kuchga kirgandan keyin u mana shu tuzatishni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'lib qoladi, boshqa davlatlar uchun esa ushbu Konvensiya qoidalari hamda ular qabul qiladigan keyingi har qanday tuzatishlar majburiy hisoblanadi.

51-modd. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi davlatlar tomonidan ratifikatsiya yoki qo'shilish paytida bildirilgan e'tiroz matnini qabul qilib oladi hamda barcha davlatlarga yuboradi.

Ushbu Konvensiyani maqsad vazifalariga mos tushmaydigan e'tirozga yo'l berilmaydi. E'tiroz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yuborilgan tegishli bildirishnoma yo'li bilan istalgan paytda olib tashlanishi mumkin, so'ngra Bosh kotib bu haqda barcha davlatlarga xabar yetkazadi. Bunday bildirishnoma uni Bosh kotib qo'lga olgan kundan boshlab kuchga kiradi.

52-modd. Har qanday ishtirokchi-davlatning ushbu Konvensiyani Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga yozma ravishdagi bildirishnoma yuborish

asosida bir tomonlama bekor qilishi Bosh kotib bildirishnomani olganidan keyin bir yil o'tgach, kuchga kiradi.

53-modd. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi ushbu Konvensiyaning saqlovchisi etib tayinlanadi.

54-modd. Ushbu Konvensiyaning inglizcha, arabcha, ispancha, xitoycha, ruscha va fransuzcha asl nusxasi matnlari teng bir xillikka ega bo'lib, saqlab qo'yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibiga topshiriladi. Ushbuni tasdiqlash uchun quyida imzo chekkan vakolatli vakillar o'zlarining tegishli hukumatlari tomonidan shunga yetarli darajada vakil qilingan bo'lib, mazkur Konvensiyani imzoladilar.

Bola Huquqlarining kafolati va uning huquqiy asoslari.

Bolaning xususiy mulkga bo'lgan huquqi, bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi, bolaning turar joyga bo'lgan huquqlari, bolaning mehnat qilish huquqi, bolaning dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqi, bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi, bolaning bilim olish huquqi kabi huquqlarini ta'minlash orqali bolaning ikkinchi avlod huquqlari bo'lmish iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish davlat faoliyatining eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. Albatta, bu huquqlarni ta'minlab berishda tegishli maxsus qonunlarni qabul qilish va boshqa tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu huquqlarni ta'minlashning yetarli kafolati hisoblanmaydi.

Chunki, bunday huquqlar ham ayrim hollarda fuqarolar, mansabdor shaxslar va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan buzilishi mumkin. Bunda buzilgan huquqlarni tiklash bilan bir qatorda, uni buzgan huquqbuzar subyektlar uchun tegishli ravishda javobgarlik belgilanishi, bu huquqlarni ta'minlashning kafolati bo'lishi mumkin. Bolaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini buzganlik uchun, sodir etilgan huquqbuzarlikning xarakteriga qarab, huquqbuzar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan ma'muriy, jinoiy, fuqarolik yoki, moddiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Quyidagi bunday huquqbuzarliklar uchun javobgarlik turlariga to'htalib o'tamiz. Ma'muriy javobgarlik.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining —Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar deb nomlanadigan 5-bobida bola huquqlarini ta'minlash sohasidagi huquqbuzarliklarning turli xillari uchun javobgarlikni ko'zda tutgan qator normalar mustahkamlab qo'yilgan.

Mazkur kodeksning 42-moddasida fuqarolarning tarbiya va ta'lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to'sqinlik qilish va cheklash, davlat tilini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlar va elatlarning tillarini mensimaslik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Ushbu norma ta'lim sohasida kamsitilmaslik va teng huquqlik tamoyilini amalga oshirish kafolati deb hisoblanadi.

Shuningdek, 2013-yili Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bolalarni ta'lim olish huquqini buzganligi, bolalarni maktab, litsey yoki kollejda o'qishga qatnashishiga to'sqinlik qilganligi uchun ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni tegishli ravishda javobgarlikka tortish bo'yicha norma bilan to'ldirildi. Jumladan: mazkur Kodeksning bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik masalalariga bag'ishlangan 47-moddasining 1-qismida —Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni

bajarmaslik, shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi — eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi deb ko'rsatilgan bo'lsa, unga yangi kiritilgan 2-qismga ko'ra, —Bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishiga ota-onalar yoki, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish - eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi deb belgilab qo'yildi.

Kodeksda bevosita ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, jumladan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaslik (471 -modda), ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda qonun hujjatlari talablarini buzish (472 -modda), vasiylik huquqini suiiste'mol qilish (48-modda) uchun tegishli ravishda ma'muriy javobgarlik belgilangan. Bolaning mehnat sohasidagi huquqlarini buzish uchun Kodeksning 49- moddasiga binoan javobgarlik ko'zda tutilgan. Alohida qayd etib o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan —O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ko'shimchalar kiritish haqidagi qonuni yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik bilan bog'liq vaziyatni yaxshilash, ularning g'ayrisotsial xatti-harakatining oldini olishga qaratilgan bo'lib, unda voyaga yetmaganlarni tungi vaqtda ota-onalaridan birining yoki, ularning o'rnini bosuvchi shaxsning kuzatuvsiz restoranlarga, kafelarga, barlarga, diskotekalarga, kinoteatrlarga, Internet va kompyuter zallariga, ko'ngilochar tadbirlar o'tkaziladigan boshqa binolarga kiritganlik uchun ma'muriy javobgarlik joriy etilishi ko'zda tutilgan. Jahonning ko'p davlatlarida voyaga yetmaganlarning tungi vaqtda ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok masalasi qonun hujjatlarida mustahkamlangan bo'lib, qonun hujjatlarida javobgarlik belgilangan.

Jumladan: 2009-yilda Rossiya, Geratsiyasida bola huquqlari asosiy kafolatlari to'g'risidagi Qonunga 196 tegishli o'zgartish va ko'shimchalar kiritilib, unda tungi vaqt (22.00dan 06.00gacha) tushunchasi, davlat organlari, mahalliy organlari hamda ota-onalarni bolalarni sog'lom va ma'naviy yetuk tarbiyalash majburiyatlari, shuningdek, 18 yoshga to'lmagan shaxslarni tungi vaqtda kuzatuvsiz jamoat joylarga, stadionlarga, Uestoranlarga, kafelarga, barlarga, Internet va kompyuter zallariga, ko'ngilochar tadbirlar o'tkaziladigan joylarga borishi, jamoat transportida yurishi uchun cheklov o'rnatilishi hamda ma'muriy javobgarlik joriy etilishi ko'zda tutilgan. 2002-yil 23- iyuldagi Germaniyaning

—Yoshlar muxofazasi to'g'risidagi qonunida 18 yoshga to'lmagan bolalarni tungi bar va klublarda, ko'ngilochar, qimor o'yin zallarda va shunga o'xshash joylarda bo'lishi taqiqlangan. Ayrim xorijiy davlatlarda (AQSh, Fransiya, Germaniya va boshqalar), esa tungi vaqtda alkogol ichimliklarni sotish joylari cheklangan bo'lib,

voyaga yetmaganlarni uchun alkogol mahsulotini sotish va istemol qiladigan joylarga kiritish taqiqlangan. Buyuk Britaniyada spirtli ichimliklarni sotish 8.00dan 21.00gacha ruxsat etilgan bo'lsa, Irlandiyada esa 18 yoshga to'lmagan shaxslarni ushbu ichimliklarni bilan savdo qiladigan barlarga 21.00dan keyin kirish taqiqlanadi. Jinoiy javobgarlik. Bola huquqlarining buzilishi jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, Jinoyat kodeksida fuqarolarning, jumladan, bolalarning konstitutsiyaviy huquqlarini buzish uchun, jumladan mehnat qilish huquqini (148-modda) buzish uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqining kafolati bo'lib Jinoyat kodeksining quyidagi qoidalarini xizmat qiladi: voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan: alkogol va tamaki vositalarini sotib, savdo yoki xizmat qoidalarini buzish (189-modda), giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish (272-modda), giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar (273-modda), giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarini iste'mol qilishga jalb etish (274-modda).

Jinoyat kodeksining 116- va 117-moddalari tibbiyot xodimlari tomonidan kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmasligi va xavf ostida qoldirilishi bolaning hayoti va sog'lig'i himoyasining kafolati hisoblanadi. Sog'liqqa bo'lgan kafolatning elementi bo'lib, Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aqldrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilish bo'yicha voyaga yetmagan shaxsni g'ayri ijtimoiy xatti harakatlarga jalb qilish to'g'risidagi modda hisoblanadi (127-modda). Ushbu modda bo'yia huquqbuzar tegishli muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko'zda tutiladi.

Oila kodeksining 153-moddasiga binoan, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi va boshqa hujjatlardagi farzandlikka oluvchilar farzandlikka olinganlarning ota-onasi emasligini bildiradigan mazmundagi yozuvlar bilan tanishtirish bu yozuvlardan ko'chirmalar va boshqa ma'lumotlarni farzandlikka oluvchilarning rozilgisiz, agar ular vafot etgan bo'lsa vasiylik va homiylik organining rozilgisiz berish taqiqlanadi. Ushbu qoidani buzganlik uchun Jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan. Jinoyat kodeksining 125-moddasida farzandlikka olish sirini oshkor qilish uchun sanksiyalar ko'zda tutilgan Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunning 10- va 11-moddalari bolani ekspluatatsiya qilishning barcha shakllaridan va ota-onalar tomonidan suiste'mol qilinishdan himoya qilish majburiyatini davlat zimmasiga yuklaydi.

Oila kodeksida ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish va ularni cheklash shartlari, oqibatlarini, bunday shaxslarni bolalari bilan ko'rishi, ota-onalik huquqini

cheklanishni bekor qilish, Bolaning hayoti yoki sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganda bolani olish, Sudda bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni ko'rishda vasiylik va homiylik organining ishtiroki, Bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarorlarini ijro etish tartib qoidalari belgilangan (79-89 moddalar). Ota-ona quyidagi hollarda ota-onalik huquqlaridan mahrum bo'lishi mumkin: ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan, aliment to'lashdan bo'yin tovlasa, uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasidan tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa; ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatasa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa, mutassil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lsa, o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yohud eri xotining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa (79- modda).

Ota-onalik huquqlaridan mahrum etish qonun asosida va sud tomonidan amalga oshiriladi. Ota-onalik huquqlaridan mahrum etish bo'yicha ishlar ota yoki ona, prokuror yoki vasiylik va homiylik organlari da'vo arizasiga binoan ko'riladi. Bolaning mehnat sohasidagi huquqlarini buzish uchun javobgarlik. Bolaning mehnat sohasidagi huquqlarini buzganlik uchun ish beruvchining javobgarligi Ma'muriy kodeksda ko'zda tutilgan bo'lib, uning tartibi va proseduralari Kodeksning 187-197-moddalarida belgilangan. Fuqarolik – huquqiy javobgarlik. Fuqarolik kodeksiga binoan, moddiy va ma'naviy zarar yetkazish orqali bola huquqlariga oid qonun hujjatlarni buzish uchun Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan sud tartibida fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish ko'zda tutilgan.

Bola huquqlarini ta'minlashda davlat organlarining o'rni va roli

Albatta, barcha sohalarida bo'lgani kabi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilish sohasida ham muhim va hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Chunki, bu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirilishi, qonunchilikni takomillashtirish va boshqa huquqiy, tashkiliy masalalarning qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining qanchalik demokratik va samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga binoan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z vazifalari doirasida quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash; bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini ijro etish;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari hamda hududiy dasturlarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish; bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari, bolalar muassasalari, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga doir tadbirlarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish; davlatga qarashli bolalar muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va nodavlat bolalar muassasalarini rivojlantirishga ko'maklashish chora-tadbirlarini ko'rish;

bola huquqlarini ta'minlash masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish hamda xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalash;

axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish; ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash masalalarini hal etish. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash, davlat organlari va boshqa organlarning, tashkilotlarning bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qonun - hujjatlarida belgilangan tartibda bola huquqlari bo'yicha vakolatli organ tashkil etilishi mumkin. Bolalarga oid davlat siyosatini hayotga tatbiq etish bo'yicha davlat organlarining asosiy vazifalarini va vakolatlarni tartibga solishga, ularning faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini va shakllarini belgilashga qaratilgan.

Shuningdek, ushbu modda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada nazarda tutilgan bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha turli davlat organlari o'rtasidagi, davlat organlari va milliy nodavlat hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va o'zaro ta'sirini kuchaytirish maqsadida kompleks choralar ko'rish zarurligi to'g'risidagi qoidalarining amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bola huquqlarining himoya qilinishini ta'minlaydigan organlar tizimi inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha umumiy davlat tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va bu tizimga quyidagi davlat organlari kiradi:

Bola huquqlari va erkinliklarining kafolatchisi – davlat boshlig'i, ya'ni, mamlakatdagi barcha hokimiyat vakolatlarni muvofiqlashtiruvchisi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Vakillik organlari sifatida oliy vakillik organi sifatida:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, mahalliy vakillik organlari organlari sifatida: viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlari;

Ijro etuvchi hokimiyat organlari sifatida – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, ijro xokimiyatiga qarashli boshqa davlat tuzilmalari hamda mahalliy davlat boshqaruvi organlari, ya'ni hokimiyatlar;

Sudlov hokimiyati organlari sifatida – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha viloyat, Toshkent shahar sudlari, xarbiy va xo'jalik sudlari tarkibida sud tizimini tashkil etadigan sud organlari;

Nazorat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va unga buysunadigan prokuraturalar; Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar sifatida: Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilikni monitoring instituti. Bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish va bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va hamda strategik dasturlarni, jumladan bola huquqlariga oid dasturlarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Genatining birgalikdagi vakolatlariga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ichki va tashqi siyosatiga oid eng muhim masalalari, jumladan bola huquqlarini ta'minlash masalari bo'yicha har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ma'ruzalar taqdim etadi. Shunday qilib, bola huquqlariga oid yagona davlat siyosatini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi. Davlat siyosatini shakllantirishda va amalga oshirishda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyatiga rahbarlikni ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faol ishtirok etadi. Hukumat davlat boshqaruv organlar tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruv organlariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatiga ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat, va aholini ijtimoiy himoya qilish va boshqa sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshirish kiradi.

2003-yil 29avgustdagi —O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi Qonunning 6-moddasiga binoan, Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qumitalari, idoralari va boshqa davlat va xo'jalik organlarining faoliyatni muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi, ularning faoliyatini tartibga soladigan nizomlarni tasdiqlaydi. Vazirliklar va idoralar faoliyati ustidan, jumladan bola huquqlariga oid masalalar bo'yicha faoliyati ustidan ham nazoratni amalga oshirib, Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari idoralari va boshqa davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining qarorlarini qonunchilikka zid kelgan hollarda bekor qilish huquqiga ega. bevosita bolalar huquqlarini ta'minlash masalalari bilan Vazirlar Mahkamasining ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha Axborot-tahlil departamenti shug'ullanadi. Vazirliklar va idoralar, boshqa davlat boshqaruv organlari o'zlari boshchilik qiladigan sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Masalan, 2004-yil 5-avgustdagi Vazirlar Maxkamasining Qarori bilan tasdiqlangan Xalq ta'limi vazirligi to'g'risidagi Nizomga binoan, vazirlikning asosiy vazifalariga maktabgacha bo'lgan, umumiy, o'rta va maktabdan tashqari ta'limning rivojlantirishga, pedagogik kadrlarning, ayniqsa boshlang'ich maktab o'qituvchilarining sifatini va professional darajasini ko'tarishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish kiradi.

Ta'kidlash joizki, bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalari bola huquqlarini amalga oshirish bo'yicha qabul qilinayotgan qonunlarda va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarini ta'minlashga bag'ishlangan

har yilgi va maxsus davlat dasturlarida o'z aksini topadi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlar va davlat (hududiy) dasturlarining ijrosini ta'minlaydi. Bolaning yashash, sog'lig'ini saqlash, bilim olish, zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan himoyalash, dam olish va boshqa vaqtga bo'lgan huquqlari hamda boshqa huquqlari va erkinliklari tegishli qonun hujjatlar bilan tartibga solinadi va Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura va joydagi prokuraturalar, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar, Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili, vasiylik va homiylik organlari, davlat hokimiyati va boshqaruv, mahalliy organlari tomonidan ta'minlanadi. Davlat organlari, bolalar muassasalari tomonidan bola huquqlarini ta'minlashga oid qonun-hujjatlarni va O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini ijro etilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish bola huquqlari masalalari bilan shug'ullanadigan davlat organlarining muhim vakolatlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillari mobaynida O'zbekiston Respublikasida Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalari asosida bola huquqlarini ta'minlash bilan shug'ulanadigan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish modeli shakllandi. Bu sohada qonun-hujjatlarni amalga oshirish masalalari bo'yicha davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlaydigan asosiy organ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi bo'ladi. Masalan, 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan va 2007-yil 2-oktabrda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan Sog'liqni saqlash to'g'risidagi Qonunda ko'rsatilganidek, Vazirlar Mahkamasining vakolatiga fuqarolarning sog'lig'ini saqlash, oilani, onalikni va bolalikni muhofaza etish bo'yicha davlat boshqaruv organlari va xo'jalik subyektlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish kiradi. Idoraning ichki faoliyatini muvofiqlashtirishmasdan bola huquqlarini ta'minlanishini tasavvur qilish mumkin emas, unda yuqori davlat organlari quyi, ya'ni ularga bo'ysunadigan tuzilmalarning faoliyatini muvofiqlashtirishadi.

Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasida Bolalar huquqlarini va qonuniy manfaatlarini monitoring va nazorat qilish milliy tizimi shakllangan bo'lib, uni shartli ravishda ichki va tashqi monitoring va nazoratga ajratish mumkin. Ichki monitoring va nazorat bola huquqlarini ta'minlash sohasidagi vaziyatni monitoring qilishda namoyon bo'lib, muayyan sohada bola huquqlarini bevosita amalga tatbiq qiladigan quyi tuzilmalar va idoralarga qarashli bo'limlar ustidan yuqori organlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat organlari, bolalar muassasalari va tashkilotlarining faoliyati yuzasidan tashqi monitoring va nazorat qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat organlari tizimida yaratilgan quyidagi maxsus institutlar tomonidan amalga oshiriladi:

- Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Vakili;
- Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Amaldagi qonunchilikni monitoring qilish instituti;

- Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi tizimida faoliyat olib boradigan inson huquqlari himoya qilish bo'yicha maxsus tuzilmalar (inson huquqlari bo'yicha boshqarmalar);

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sud huzuridagi sud qonunchiligini Gemokartlashtirish va liberalashtirish va sud tizimini mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar markazi;

- Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar (mazkur komissiya faoliyati to'g'risida keyingi paragrafda batafsil to'htalib o'tiladi). Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha choralarni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash. —Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunning 5-moddasida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish uchun moliyalashtirishni ta'minlash zaruriyati aniq ko'rsatilgan. Bu moliyalashtirish davlat tomonidan va mamlakat qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar bilan ta'minlanishi kerak. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini

bajarish uchun davlat bolalarning ijtimoiy harajatlarini ta'minlash uchun, ayniqsa milliy, viloyat va tuman darajalarida sog'liqni saqlash, farovonligini oshirish va ta'lim sohalarida ajratiladigan byudjet mablag'larini qayta ko'rib chiqishi kerak. Qonun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bola huquqlariga oid davlat siyosatini moddiy-texnikaviy va moliyaviy ta'minlash bilan bog'liq vakolatlarini belgilaydi.

Qonun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va boshqa qonun bilan taqiqlanmagan manbalar hisobidan bola huquqlarini himoya qilishga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni belgilangan tartibda moliyalashtirish, bu mablag'larni davlat bolalar muassasalarining moddiy - texnikaviy asosini mustahkamlash, nodavlat bolalar muassasalarining rivojlanishiga ko'maklashish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvatlashga yo'naltirish bo'yicha majburiyatlarni davlat zimmasiga yuklaydi. Bola huquqlari bo'yicha turli hil faoliyatlarni moliyalashtirish tartibi qonunda belgilangan. Masalan, Sog'liqni saqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunida (9-modda) quyidagi sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish manbalari nazarda tutilgan: Davlat byudjeti mablag'lari, tibbiy sug'urtalash mablag'lari, fuqarolarning sog'lini saqlashga mo'ljallangan aniq maqsadga yo'naltirilgan fondlar, tibbiy profilaktika muassalar tibbiy yordam ko'rsatish uchun olgan mablag'lari, ixtiyoriy va xayriya badallari, bank kreditlari va boshqa qonun bilan taqiqlanmagan manbalar.

O'zbekiston tegishli davlat organlari orqali o'zining xalqaro majburiyatlarini bajarish doirasida bolalar huquqlarini ta'minlash uchun nafaqat qonuniy va tashkiliy choralar, balki ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va moddiy texnikaviy choralar ham ko'radi, ulardan boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim tizimini, ularning sog'lig'ini saqlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga yordam berish uchun foydalaniladi. Bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish davlat byudjeti hisobidan, ijtimoiy manbalar (jamoa tashkilotlarning fondlari), xalqaro tashkilotlar (YUNISEF va boshqa) mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bola huquqlariga oid xalqaro majburiyatlarni

bajarilishini nazorat qilish. Davlat organlariga bola huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish va O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini xalqaro tashkilotlarda himoya qilish vakolati berilgan. Shu munosabat bilan, ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 27-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari qat'iy va majburiy ravishda bajarilishi lozim. O'zbekiston

hukumati ularni bajarish uchun choralarni ishlab chiqadi va xalqaro majburiyatlarni, jumladan bola huquqlariga oid majburiyatlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan vazirliklarni va idoralarni belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi tegishli vazirliklar va idoralari vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun bevosita ma'sul. Ushbu davlat organlari BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi va boshqa tegishli xalqaro hujjatlarning qoidalari bajarilishi to'g'risidagi milliy ma'ruzalar uchun ma'lumot taqdim etadilar.

Axborot - ma'rifiy faoliyat. —Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonun va boshqa qonun hujjatlar haqida axborot berish bola huquqlarini samarali himoya qilinishini ta'minlaydi va shuning uchun axborot-ma'rifiy faoliyat bola huquqlarini himoya qilish masalalari bilan shug'ulanadigan davlat organlarining muhim vakolati hisoblanadi. U aholi, bolalar, huquqni muhofaza qilish organlari, NNT vakillari, fuqarolarning o'z o'zini boshqarish organlarining bola huquqlarini himoya qilish va ularla rioya etish masalari bo'yicha bilimini oshirishga qaratilgan. Axborot-ma'rifiy choralar doirasida davlat organlari bola huquqlarini ta'minlash masalalariga oid O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, O'zbekiston qo'shilgan xalqaro huquqiy hujjatlar, bola huquqlari bilan shug'ulanadigan davlat va nodavlat tuzilmalarning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida axborot berishlari, bola huquqlari buzilgan taqdirda ularni himoya qilish usullari va shakllarini tushuntirishi kerak.

Shuningdek, bola huquqlariga bag'ishlangan ma'rifiy faoliyat maktabgacha va maktab ta'lim muassasalarida bola huquqlari bo'yicha ta'lim tizimini shakllanishida, tegishli adabiyot chop etilishida, seminarlar, treninglar, konferensiyalar, suhbatlar va aholi bilan uchrashuvlar olib borilishda, bolalarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash bo'yicha horijiy tajribani o'rganishda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash davlat organlarining muhim vakolati hisoblanadi. Bu toifadagi bolalarga Qonunining 3-moddasiga binoan nogironlar, jismoniy va yoki, ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, ota- ona qaramog'isiz qolgan bolalar, yetimlar, maxsus bolalar muassasalarida tarbilanayotgan bolalar, turar joyi bo'lmagan bolalar, kam ta'minlangan oilalardan bolalar, hamda jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazo o'tash muassasalarida bo'lgan, zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlari himoya qilish bo'yicha maxsus choralar va proseduralar nazarda

tutilgan bo'lib, Bolalar farovonligini ta'minlash bo'yicha Milliy harakatlar dasturida ularni himoya qilish bolalarni qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishi deb belgilangan. Ushbu dasturning 5-bo'limi maxsus sharoitlarda bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatish bo'yicha aniq choralarni ko'rsatadi. Bundan tashqari,

bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunning 3-bobida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari aks etilgan. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ularning vakolatini belgilaydigan hujjatlar asosida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Masalan, yagona statistik ma'lumot va hisobot tizimini o'rnatish, bola huquqlarini amalga oshirish masalalari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, bola huquqlarini tartibga solishni takomillashtirishda ishtirok etish, bola huquqlari sohasidagi vaziyatni yaxshilashga ko'maklashadigan organlar va tuzilmalarni shakllantirish barcha davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

Shu yerda alohida qayd etish lozimki, Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunda bola huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda davlat va boshqa organlar bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha tashkilotlar faoliyatini monitoring qilish maqsadida bola huquqlari bo'yicha vakil institutini tashkil etish ehtimoli ko'zda tutilgan.

IV BOB BO'YICHAXULOSA

1. Davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati o'rganish tahlil qilinadi.

2. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish, ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilari, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini nazorat qilish, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga ruxsatnoma berish talablari va shartlari, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bo'yicha ruxsatnoma olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar haqida ma'lumotlar beriladi.

3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlashni joriy etish tajriba loyihasini amalga oshirilishi haqida tushunchalar beriladi.

4. "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli qarori bilan mos holda maktabgacha ta'lim tizimini kelgusida takomillashtirish vazifalari bilan tanishtiriladi.

5. Kengashning asosiy maqsadlari, tashkilotning ustuvor vazifalarini belgilash, maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'linmasi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini saylash, tashkilotning maqsadlari va vazifalarini hamda ularga erishish rejalarini

tasdiqlash, tashkilotda amalga oshirilishi belgilangan vazifalarning bajarilishi va maqsadli ko'rsatkichlarga erishilishi ustidan nazorat olib borish.

Nazorat savollari.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi qanday tashkil etiladi
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi a'zolari qanday shakllantiriladi
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi qanday huquq va vakolatlar mavjud
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi maqsad va vazifalariga nimalar kiradi
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi tashkilot faoliyatidagi tutgan ahamiyati.

MAKTABGACHA TA'LIMDA ME'YORIY ASOSLAR FANI BO'YICHA IZOHLI LUG'AT

Konstitutsiya—("constitution" lotincha soʻz boʻlib, "tuzish" degani) "qoida" va "nizom" maʼnolarini anglatadi. Konstitutsiyada jamoat va davlat tuzilishi, davlat hokimiyati va boshqaruvining asoslari, fuqarolarning asosiy huquq va majburiyatlari aniq belgilab beriladi

Inson huquqi— insonning davlat bilan munosabatdagi huquqiy holatini, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlarini tavsiflash tushunchasi

Konstitutsiyaviy Huquq— huquqning yetakchi tarmogʻi, shuningdek, huquqiy fanlar va oʻquv-taʼlimi turlaridan biri. Konstitutsiya va konstitutsiyaviy huquqning farqi shundan iboratki, konstitutsiya birgina qonun hisoblansa, konstitutsiyaviy huquq juda koʻp huquqiy manbalarni, shuningdek, konstitutsiyani oʻz ichiga oluvchi butun bir huquqiy tarmoqni qamrab oladi

Qonun— Davlat xalq xoʻjaligining tegishli sohasiga oid meʼyorlarni belgilovchi, Oliy Majlisda qabul qilinadigan, sohaning strategik rivojlanishini ifodalovchi, uzoq muddatga moʻljallangan, takomillashib boruvchi hujjat.

Farmon— Tegishli soha yoki muhim obʼektga, voqeylikka nisbatan chiqarilgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriq va koʻrsatmalarini ifodalovchi meʼyoriy hujjat.

Farmoyish— ijro etish muddati tezlikni, operativlikni talab etuvchi vakolatli idoralar rahbarlari tomonidan chiqariladigan meʼyoriy hujjat.

Buyruq— Sohaga oid vakolatga ega boʻlgan tashkilotlarning turli rahbarlari tomonidan davlat qonuni, PF va VM Qarorlari hamda yuqori tashkilotlarning turli koʻrsatmalar ijrosini taʼminlash hamda korxona, muassasa, tashkilotlar boshqaruvini amalga oshirish uchun chiqarilgan meʼyoriy hujjat.

Alohida taʼlim olish ehtiyojlari boʻlgan bolalar — nogironligi boʻlganidan yoki boʻlmashligidan qatʼi nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida eʼtiboriga muhtoj boʻlgan individual ehtiyojlarga ega bolalar;

Davlat maktabgacha taʼlim tashkiloti — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha taʼlim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha taʼlim va tarbiya xizmatlari koʻrsatuvchi tashkilot;

Inklyuziv taʼlim va tarbiya — bolalarning alohida taʼlim olishga boʻlgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda taʼlim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni taʼminlaydigan jarayon;

Maktabgacha boʻlgan yosh — bolalarning tugʻilgan paytidan yetti yoshgacha, toʻularga umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida taʼlim berish boshlangan paytga qadar boʻlgan yoshi;

Maktabgacha taʼlim va tarbiya — bolalarga taʼlim va tarbiya berishga, ularni intellektual, maʼnaviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz taʼlim turi;

Maktabgacha taʼlim va tarbiya davlat standarti — taʼlim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha taʼlim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning sogʻlom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui;

Maktabgacha taʼlim va tarbiyaning davlat taʼlim dasturi — bola tomonidan oʻzlashtirilishi lozim boʻlgan asosiy bilimlarning, mahorat va koʻnikmalarning hajmini hamda mazmunini belgilovchi, shuningdek taʼlim va tarbiya mazmunining oʻziga xosligini, taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi hujjat;

Maktabgacha taʼlim tashkiloti — maktabgacha taʼlim va tarbiya sohasida taʼlim va tarbiya xizmatlari koʻrsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti;

Nodavlat maktabgacha taʼlim tashkiloti — nodavlat taʼlim xizmatlarini koʻrsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha taʼlim va tarbiya sohasida taʼlim va tarbiya xizmatlarini koʻrsatuvchi yuridik shaxs;

Pedagogning kasbiy standarti — maktabgacha taʼlim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va koʻnikmalariga doir asosiy talablar majmui;

Davlat -xususiy sheriklik — xususiy investitsiyalarni jalb qilish, resurslarni birlashtirish va xavf-xatarlarni taqsimlash maqsadida davlat sherigi va xususiy sherikning aniq muddatga yuridik rasmiylashtirilgan maktabgacha taʼlim sohasidagi oʻzaro samarali hamkorligi;

Davlat -xususiy sheriklik toʻgʻrisida bitim (keyingi oʻrinlarda matnda bitim deb yuritiladi) — tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek davlat-xususiy sheriklik loyihasini ijro etishning boshqa shartlarini belgilab beradigan davlat sherigi va xususiy sherik oʻrtasida tuzilgan yozma shartnoma;

Davlat -xususiy sheriklik toʻgʻrisidagi bitim tomonlari (keyingi oʻrinlarda matnda tomonlar deb yuritiladi) — davlat sherigi va xususiy sherik;

Davlat sherigi — Oʻzbekiston Respublikasining Maktabgacha taʼlim vazirligi (keyingi oʻrinlarda matnda Vazirlik deb yuritiladi);

Xususiy sherik — bitim tuzgan yoki bitim tuzish istagini bildirgan yuridik yoxud jismoniy shaxs. Davlat tashkilotlari xususiy sheriklar boʻla olmaydi, shuningdek xususiy sheriklar tarafida ishtirok eta olmaydi;

Davlat -xususiy sheriklik toʻgʻrisidagi bitim obʼekti (keyingi oʻrinlarda matnda obʼekt deb yuritiladi) — bitim boʻyicha maktabgacha taʼlim tashkilotlarini tashkil etish maqsadida foydalanilishi mumkin boʻlgan yer uchastkalari, boʻsh turgan binolar, shu jumladan ishlaymaydigan va but qilinmagan davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlari hamda boshqa obʼektlar;

But qilinmagan davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlari — rejadagi quvvatining 50 foizi ham but qilinmagan davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlari;

Davlat -xususiy sheriklik loyihasi — muhim davlat, ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy-texnik ahamiyatga ega boʻlgan maktabgacha taʼlim sohasidagi investitsiyaviy, innovatsion, infratuzilmaviy va boshqa tadbirlar majmui;

Filantropik faoliyat — jismoniy va yuridik shaxslarning fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga mol-mulkni, shu jumladan pul mablag'larini beg'araz (bepul) o'tkazish, bepul tarzda ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, boshqacha ko'mak berish bo'yicha ixtiyoriy faoliyati;

Ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalar — kam ta'minlangan oilalar, a'zolari nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat bo'lgan oilalar, boquvchisini yo'qotgan oilalar, bolaning ota-onasi kvotalar bo'yicha mintaqalarga taqsimlangan ijtimoiy soha xodimlari bo'lgan oilalar, to'rt yoki undan ko'p bolalari bo'lgan oilalar;

Maxsus kontingent — harbiy xizmatchilarning va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining bolalari, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari va davlat umumta'lim maktablari pedagog xodimlarining bolalari;

Kontsessiya (kontsession bitim) — muayyan muddatga tuzilgan bitim, unga ko'ra davlat kontsessionerga qurilish ishlarini amalga oshirish uchun yer uchastkalariga, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotini qayta qurish va jihozlash uchun binolarga egalik qilish (tasarruf etish huquqisiz) va ulardan foydalanish huquqini beradi, kontsession faoliyat natijasida kontsessioner ega bo'lgan mahsulot va daromadlar kontsession bitimda belgilangan hajmda va shartlarda uning mulki hisoblanadi;

Otaliq — otaliqqa olingan maktabgacha ta'lim tashkilotiga jismoniy yoki yuridik shaxs (otaliq) tomonidan iqtisodiy, moliyaviy, madaniy, ta'lim yoki boshqa beg'araz tizimli yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat.

Rivojlanish - inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;

Rivojlanish sohasi - bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;

Kichik soha - sohaning kichik guruhlar. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

Kutilayotgannatija - bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

Bola kompetentsiyasi - ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatlar;

Integratsiya - bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

Inklyuziv ta'lim - bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

«Men» kontseptsiyasi - bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi;

Refleksiv faoliyat - bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni.

Kompetentsiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetentsiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kommunikativ kompetentsiya - muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetentsiyasi - bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetentsiya - hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetentsiyasi - atrofidagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Ruxsatnoma — vakolatli organ tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorga beriladigan, tadbirkorlik faoliyati sohasida harakatlarni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirish huquqini beradigan hujjat;

Talabgor — yakka tartibdagi tadbirkor yoxud ularning ruxsatnoma olish uchun tegishli ariza bilan belgilangan tartibda orqali murojaat qiladigan vakolatli shaxsi.

Asosiy adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari.

1. Mirziyoev SH.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". – T.: "O'zbekiston", 2019.
2. Mirziyoev SH.M. "Konstitutsiya— erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.

Normativ-huquqiy hujjatlar

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3305-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 noyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-944-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 iyuldagi "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida" 595-sonli qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2018 yil 21 noyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 2-mh-son buyrug'i.
10. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-595-son 16.12.2019
11. "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PQ-4312-son 08.05.2019
12. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vaziri A.SHinning 2018 yil 18 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi 1 MH son buyrug'i.
13. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi.

Axborot manbalari:

1. www.cspi.uz/ - Toshkent viloyati ChDPU elektron sayti.
2. <http://www.president.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.
3. <http://www.gov.uz/> - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
4. <http://www.xs.uz/> - "Xalq so'zi" gazetasi sayti.
5. <http://www.lex.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti.
- <http://www.kun.uz/> - O'zbekiston va jahon yangiliklari, eng so'nggi xabarlar sayti.

NOSIROVA RA'NO XAMIDOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING
KONSEPTUAL ASOSLARI FANIDAN**

O'QUV QOLLANMA

**Ta'lim yo'nalishi: 70110201- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim)**

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044,.2023 й

Bichimi 60x84¹/₁₆. "Times New Roman" garniturası, kegli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 10.75.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 1866861

City of book MCHJda chop etildi.

QAYDLAR UCHUN